
Turgunova Fazilat

O‘ZBEKISTON ME’MORCHILIGI SAN’ATI TARIXI



Сканировано с CamScanner

UO'K 726.822(075.8) II 88
KBK 38.7(5O') II 88
T95

Turgunova F.N.
O'zbekiston me'morchiligi san'ati tarixi. O'quv qo'llanma / F.Turgunova. – T.: "Dimal" nashriyoti. 2025-y. -156 b.

Ilmiy muharrir:
Nishanova Kamola,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar:
Fatxullayev Ravshan,
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor
Muxamedova Munisa,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Mazkur o'quv qo'llanma "O'zbekiston me'morchiligi san'ati tarixi" fani bo'yicha tayyorlangan bo'lib, fanning vazifasi, rivojlanish bosqichlari, keltirilgan mavzular doirasidagi tadqiqot turlari, nazariy jihatdan muammolari, o'rganilgan tadqiqotning obyekti, predmeti, uslub va vazifalari masalalari ahamiyatini ochib beradi. Shuningdek, o'quv qo'llanmada talabalarga O'zbekiston me'morchiligining tarixi va nazariyasi, rivojlanish qonuniyatlari, turli uslublarning yuzaga kelishi va shu uslublar ta'sirida bunyod etilgan obidalar me'morchiligi, jumladan, O'zbekiston memorchiligi xususiyatlari, ibtidoiy, antik va o'rta asr O'zbekiston me'morchiligi, O'zbekistonning XI asrdan – XX asr boshlariga qadar bo'lgan me'morchiligi kabi jarayonlarni o'rgatishdan iborat.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2023 - yil 29-sentabrdagi 438-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-562-44-0

© F.Turgunova, 2025.
© "Dimal " nashriyoti, 2025.

Сканировано с CamScanner

KIRISH

O‘zbekiston jahonga mashhur diyor bo‘lib, jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan zamin hisoblanadi. Shuningdek, bu hududda insoniyat madaniyatining durdonalari hisoblangan ko‘plab betakror, mahobatli tarixiy me’moriy obidalar mavjud.

“O‘zbekiston me’morchiligi san’ati tarixi” o‘quv qo‘llanmasida O‘zbekiston me’morchiligi va shaharsozligi tarixi eng qadim zamonlardan boshlab toki XX asr boshlarigacha bo‘lgan davrlar ko‘rib chiqilgan. Bunda har bir tarixiy bosqichga alohida baho berilib, me’morchilikning siyosiy va tarixiy taraqqiyot yo‘llari uzviy bayon etilgan.

Shuningdek, qo‘llanmada O‘zbekiston me’morchiligi xususiyatlari, ibtidoiy davr ilk qurilish materiallari, konstruksiyalar, turarjoy, shaharsozlik, fortifikatsiya va diniy inshootlar, bronza davridagi ilk shaharsozlik elementlari, antik davr shaharsozlik va me’morchilikdagi o‘zgarishlar, O‘zbekistonning ilk feodalizm davri me’morchiligi, karvonsaroy, rabotlar qurilishi, Amir Temur davri me’morchilik sohasidagi tub burulishlar, bog‘, saroy, ilk madrasa, maqbara va masjidlar qurilishi tahlil etilgan.

Shu bilan birga Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklari me’morchiligi takomillashuvi, XIX asr birinchi yarmi me’morchiligida suv inshootlari, ma’muriy binolar, teatrlar qurilishi, XIX asr ikkinchi yarmi me’morchiligiga rus an’analari ta’siri, XX asr boshlari me’morchiligida madaniyat saroylari, klublar barpo etilishi hamda olimlarning me’morchilik sohasida olib borgan tadqiqotlari ham keltirib o‘tilgan.

O‘quv qo‘llanma 5151900 – Muzeyshunoslik (muzey predmetlari ekspertizasi, konservatsiyalash va ta’mirlash) hamda 5151900 – Muzeyshunoslik (muzey menejmenti va madaniy turizm) ta’lim yo‘nalishlari talabalariga “O‘zbekiston me’morchiligi san’ati tarixi” fanini o‘qitish uchun 3-kurs, VI-semestriga mo‘ljallangan.

Сканировано с CamScanner

ВВЕДЕНИЕ

Узбекистан – всемирно известная страна, внесшая огромный вклад в развитие мировой науки и культуры. Надо отметить, что на этой древней земле находится множество уникальных, великолепных исторических архитектурных памятников, считающихся шедеврами мировой культуры.

В учебном пособии “История искусств архитектуры Узбекистана” рассматривается история архитектуры и градостроительства Узбекистана с древнейших времен до начала XX века. В ней даётся индивидуальная оценка каждого исторического этапа и слаженно излагаются пути политического и исторического развития архитектуры.

Также в пособии представлены особенности архитектуры Узбекистана: первые строительные материалы первобытного периода, постройки, жилищные, градостроительные, фортификационные и культовые сооружения, элементы первого градостроительства эпохи бронзы, изменения в градостроительстве и архитектуре античного периода, анализируется архитектура периода раннего феодализма Узбекистана, строительство караван-сараев, работ, революции в области архитектуры в период Амира Темура, строительство садов, дворцов, первых медресе, мавзолеи и мечетей.

Вместе с тем рассматривается развитие архитектуры первой половины XIX века Бухарского, Хивинского, Кокандского ханств - строительство водных сооружений, административных зданий, театров, в архитектуре второй половины XIX века-влияние русских традиций, в архитектуре начала XX века-дворцы культуры, клубы, а также исследования ученых в области архитектуры.

Учебное пособие “История искусств архитектуры Узбекистана” предназначено для студентов 3- курсов, VI-семестра, специальностей 5151900 - Музееведение (экспертиза, консервация и реставрация музейных предметов) и 5151900 - Музееведение (культурный туризм и музейный менежмент).

INTRODUCTION

Uzbekistan is a world famous country that has made a huge contribution to the development of world science and culture. It should be noted that on this ancient land there are many unique, magnificent historical architectural monuments, which are considered masterpieces of world culture.

The textbook “History of the Art of Architecture in Uzbekistan” examines the history of architecture and urban planning in Uzbekistan from ancient times to the beginning of the 20th century. It gives an individual assessment of each historical stage and coherently outlines the paths of the political and historical development of architecture.

The manual also presents the features of the architecture of Uzbekistan: the first building materials of the primitive period, buildings, housing, urban planning, fortifications and places of worship, elements of the first urban planning of the Bronze Age, changes in urban planning and architecture of the ancient period, analyzes the architecture of the period of early feudalism in Uzbekistan, the construction of caravanserais , works, revolutions in the field of architecture during the period of Amir Temur, the construction of gardens, palaces, the first madrasahs, mausoleums and mosques.

At the same time, the development of the architecture of the first half of the 19th century of the Bukhara, Khiva, Kokand khanates is considered - the construction of water structures, administrative buildings, theaters, in the architecture of the second half of the 19th century - the influence of Russian traditions, in the architecture of the early 20th century - palaces of culture, clubs, as well as research scientists in the field of architecture.

The textbook “History of the art of architecture of Uzbekistan” is intended for students of 3 courses, VI-semester, specialties 5151900 - Museum Studies (examination, conservation and restoration of museum items) and 5151900 - Museum Studies (cultural tourism and museum management).

1-ma’ruza : Kirish. O’zbekiston me’morligi xususiyatlari

Reja:
1. “O‘zbekiston me’morchiligi san’ati tarixi” fanining predmeti va obyekti
2. Fanning maqsad va vazifalari
3. O‘zbekiston me’morchiligini o‘rganilish tarixi

Kalit so‘zlar: *me’morchilik, bino, shaharsozlik, yodgorlik, me’mor, inshoot, bog‘-park, landshaft, tendensiya*

O‘zbekiston me’morchiligi san’ati tarixi fani - O‘zbekiston me’morchiligi san’ati tarixining rivojlanish bosqichlari, mavzu doirasidagi tadqiqotning turlari, nazariy jihatdan muammo va yechimlari, o‘rganilayotgan tadqiqotning obyekti, predmeti, uslubi va vazifalari masalalari ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga talabalarning me’morchilik yodgorliklari to‘g‘risidagi tarixiy dunyoqarashini shakllantirish, ularda erkin fikrlashni qaror toptirish, O‘zbekiston me’morchiligi san’ati tarixini chuqur darajada bilish, insoniyat tomonidan kashf etilgan me’morchilik borasidagi ixtirolaridan va amaliyotidan to‘la bahramand bo‘lish kabi dolzarb masalalarni o‘rganadi.

“O‘zbekiston me’morchiligi san’ati tarixi” fani o‘z ichiga ibtidoiy davrdan to XX asrga qadar mavjud bo‘lgan tarixiy davrni qamrab olib, mazkur davrga oid me‘moriy yodgorliklarning o‘ziga xosligi, qurilish uslublari haqida ma’lumot beradi. Fan o‘qitilishidan maqsad – talaba yoshlarda fan sohasidagi tadqiqotlarning turlarini va tadqiqotlar tahlillarini umumlashtirish, tadqiqotlarni o‘rganish, har taraflama ilmiy-nazariy tahlil qilishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarini boyitishdan iboratdir. Talabalarning O‘zbekiston me’morchiligi san’ati tarixi fanini bilishlari uchun o‘qitishning sifatli pedagogik usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

“O‘zbekiston me’morchiligi san’ati tarixi” fanining vazifasi insoniyat turmushi va faoliyati uchun munosib fazoviy muhitni tashkil etishdir. Ushbu masala moddiy struktura barpo etilayotgan va ta‘mir qilinayotgan imoratlar orqali hal etiladi. Me‘morchilik xalq arxitekturasida imoratlarning bunyod etilish san‘atini ifodalovchi tushunchadir.

O‘tmish zamonlardan buyon jahon madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin egallab kelayotgan O‘zbekiston me‘morchiligiga bo‘lgan qiziqish bugungi kunda ham nihoyatda o‘sib bormoqda. Me’morchilikni rivojlantirish uchun uning tarixi va nazariyasini o‘rganish ishni yangi pog‘onaga ko‘tarishni taqozo etadi. Bugungi kunda O‘zbekiston me‘morchiligi san’ati tarixini davrma-davr yaxlit umumlashtirilgan o‘zbek tilidagi adabiyot juda kamdir. Asosan O‘zbekiston me‘morchiligi san’ati tarixini rus tilida chop etilgan nashrlar orqali o‘rganiladi.

Xorijiy manbashunoslar M. Berxsm, M. Gers, A. Dis, L. Mayer O‘zbekiston hududi me’morchiligi manbashunoslikning dastlabki yillarida nazariy bilimlarga asoslanmagan deb hisoblashgan[1]. Lekin vaqt o‘tishi bilan XVI asr Buxoro me’morlari tomonidan chizilgan loyiha chizmalarining topilishi va 1944-yilda N. V. Baklanov tomonidan nashr etilishi bu masalaga ancha oydinlik kiritdi.

Shundan so‘ng me’moriy loyihalash mavjud bo‘lganligi va binolarning asosiy qismi oldin mukammal loyihalanib, keyin qurilganligiga shubha qolmadi. Lekin oldinda loyihalashning qanday qonuniyatlari va sir asrorlari borligini o‘rganib chiqish masalasi ko‘ndalang turardi. Bu borada yetuk olimlardan M. Bulatov, L. Rempel, G. Pugachenkovalar hamda ularning tadqiqotlarini davom ettirgan P. Zohidov, K. Kryukov, L. Mankovskaya, I. Notkin va boshqalar bir qator ilmiy muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdilar[2]. Ayniqsa, bu izalanishlarni o‘rta asrlar yozma manbalariga tayangan holda asoslab, amaliy tahlillar bilan isbotlab bergan M.Bulatovning ishlari ijobiy natija ko‘rsatdi. Bu olim O‘zbekiston me’morchiligiga mutanosiblik masalasini keng falsafiy ma’noda tushunib, uni umumiy koinot qonuniyatlari bilan mufofiqlikdan kelib chiqishini ta’kidlab, tahlil qilib berdi.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yildan keyin rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Mamlakatimiz o‘zining bebaho tarixiy, madaniy va ma‘naviy merosiga ega bo‘ldi. O‘zbekistonda me’morchilik sohasi va uning turli davrlardagi

[1] Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 1995.- Б 113.

[2] Булатов М. Мавзолей Саманидов - жемчужина архитектуры Средней Азии. - Ташкент : Изд-во лит. и искусства, 1976. – 127 с.; Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. История развития и теория построений. - Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1961. - 608 с.; Пугаченкова Г. А. Пути развития архитектуры южного Туркменистана поры рабовладения и феодализма. – Москва: Изд-во Академии Наук, 1958. – 490 с.; Зоҳидов П.Ш. Меъмор олами: [луғат]. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996. – 240 б.; Mankovskaya L. Yu. Qo‘sh madrasa. - Toshkent: O‘zbekiston, 1977. - 33 b.

holati bo‘yicha bir qator ishlar e’lon qilindi. Me’morchilik sohasi tarixiga bag‘ishlangan mavjud ilmiy asarlar, ya’ni maqolalar, risola va monografiyalar, dissertatsiya ishlari asosan soha mutaxassislari, san’atshunoslar, iqtisodchilar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lib, ularda muammoga san’atshunoslik nuqtai-nazardan yondashish yetishmaydi.

O‘zbekiston me’morchilik san’ati tarixi mavzusiga oid nashr qilingan ishlarni mazmuni va mohiyati, bayon qilish uslubidan kelib chiqib S.Xaqqulov[3] ikki guruhga ajratib tahlil etadi. Tadqiqotchi tomonidan birinchi guruhga 1991-yildan oldingi adabiyotlar, ikkinchi guruhga 1991-yil va undan keyin nashr etilgan adabiyotlar kiritiladi.

O‘zbekiston me’morchilik san’ati sohasini o‘rganishga jiddiy kirishish asosan XX asrning 50-60-yillariga to‘g‘ri keladi. V.Lavrov, V.Voronena, A.Nilsen, T.Qodirova[4] kabi olimlarning tadqiqotlari buning dalilidir. XX asrning 70-yillarida jahon me’morchiligining 12 jilddan iborat tarixini yaratish ishlari jadal olib borildi. Mazkur kitoblarning 4-jildida O‘rta Osiyo me’morchiligi haqida keng qamrovli ma’lumot beriladi.

L. Rempel maxsus “Архитектурный орнамент Уэбекистана”[5] kitobida eng qadim zamonlardan to o‘rta asrlargacha bo‘lgan O‘zbekistondagi me’moriy obidalarning naqshlarning yasalish turlarini keltirib, batafsil tahlil etgan.

M.Bulatov esa “Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX-XV в.в.”[6] asarida nafaqat naqshlar tahlili bilan chegaralanib qolmasdan, balki XI asrning noma’lum muallifi yozib qoldirgan va hozirgi kunda Parijda saqlanayotgan qo‘lyozmadan ko‘chirma keltiradi. Bu manbada ayniqsa geometrik naqshlar - girih turlarining ma’lum o‘lchamlar va nisbatlarda yasalishi yaqqol ko‘rinib turadi. Muallif qator geometrik shakllardan boshlab murakkab girihlarning

[3] Xaqqulov S. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда меъморчилик ва шаҳарсозлик тарихи // Multidisciplinary Scientific Journal. – VOLUME 2. ISSUE 1. 2023. – Б. 228.

[4] Воронина В.Л. Архитектура Средней Азии XVIII-XIX вв// Всеобщая история архктектуры, т. VIII. М: Издательство литературы по строительству. 1969, 367 с.; Кадырова Т.Ф. Пути архитектурного возрождения Узбекистана за XX - начало XXI вв. (традиции и современность). - Т.:, 2007. - 303 с.

[5] Рempель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. История развития и теория построений. - Ташкент: Гослитиздат, 1961. - 608 с.

[6] Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX-XV веков.- Москва: Наука, 1988. - 364 с.

yasalish usullarini tahlil qilib beradi. Bularning hammasi o‘rta asrlar O‘rta Osiyo me’morlari yuqori darajadagi bilimdon va zukko kishilar bo‘lganligidan dalolat berib turibdi. Buning yana bir isboti shunda namoyon bo‘ladiki, bizgacha yetib kelgan ba’zi bir me’moriy obidalarda mablag‘ sarflab binoni bunyod ettirgan shaxsning emas, balki me’morining dastxati yozib qoldirilgan. Dsmak, o‘sha davrda me’morlarning jamiyatdagi nufuzi baland sanalgan.

O‘zbekistonlik ko‘pgina mashhur me’morlar tomonidan o‘tgan asrning 70-80-yillarida keng suratli izlanishlar olib borildi. T.Qodirova, B.Parmuzin, I.Azimov, D.Nozilov, V.Nilsen, M.Yusupova[7] kabi olimlarning ishlari buning yorqin namunasidir. Mustaqillik yillarida tarix fani uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Tarixiy haqiqatni yuzaga chiqarish uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaratildi. Fandagi yangilanish munosabati bilan tarixiy voqea-hodisalarga yangicha yondashishga asosan me’morchilik mavzusini ham mukammal tadqiq etish imkoniyatini berdi. Mustaqillik yillarida shaharsozlik sohasiga ulkan e’tibor qaratilishi bois me’morchilik san’ati sohasi bo‘yicha e’lon qilingan nashr qilingan ishlar ko‘lami ham kengayib bordi.

Me’morchilik va qurilish sohasi uchun mutaxassis tayyorlovchi o‘quv yurtlari talabalari uchun me’morchilikning turli yo‘nalishlariga oid o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratildi. Ularda O‘zbekiston me’morchik san’ati sohasining turli yo‘nalishlariga oid ko‘plab muhim va kerakli ma’lumotlar bir joyga umumlashtirilgan. Xususan, ularda shaharsozlik sohasining yangi pog‘onaga ko‘tarilishi, me’morchilik ilmidagi yangi an’analar kabi masalalar o‘z aksini topdi. Ayniqsa, ular orasida M.Ahmedovning “O‘rta Osiyo me’morchilik tarixi”[8] o‘quv qo‘llanmasida O‘rta Osiyoda me’morchilikning vujudga kelishi, quldorlik davri me’morchiligi va shaharsozligi, O‘rta Osiyoda fan va madaniyatning qayta uyg‘onish davri me’morchiligining rivojlanish omillari, o‘rta asrlar va temuriylar

[7] Қодирова Т. Ф. Ўзбекистоннинг истиқлол йиллари меъморлиги: ўқув қўлланма. – Тошкент: ЎАЖБНТ, 2004. – 80 б.; Нозилов Д. Халқ меъморчилиги.-Т.: Фан, 1982. - 96 б.; Нильсен В.А. Монументальная архитектура Бухарского оазиса XI-XII вв. К вопросу о возникновении средневековой архитектуры в Средней Азии. - Ташкент: Издательство Академии наук, 1956. - 156 с.; Юсупова М.А. Суфийские традиции в искусстве Мавераннахра XV-XVII вв. (архитектура, миниатюра, музыка) / Коллективная монография. - Ташкент, 2010 г. 208 с.

[8] Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 1995.- 142 б.

davri me’morchiligi, O‘zbek xonliklari davri me’morchiligi va shaharsozligi, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O‘rta Osisdagi siyosiy ahvol, shaharsozlik hamda me’morchilikdagi o‘zgarishlar haqida tarixiy manbalar keltirib o‘tilgan. Muallif turarjoy me’morchiligi masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tadi.

Shuningdek, 1991-yildan keyin O‘zbekistonda me’morchilik san’ati tarixi masalasiga bag‘ishlangan qator ilmiy maqolalar nashr qilinib borildi. Bunda ayniqsa “O‘zbekiston arxitekturasi va qurilishi” jurnali sahifalarida e’lon qilinayotgan maqolalar diqqatga sazovordir. Jumladan, jurnalning 2007-yil 3-sonida Samarqand shahrining mustaqillik davri me’morchiligi xususida qimmatli ma’lumotlar tahlil etiladi.

T.F.Qodirovaning me’morchilik tarixiga bag‘ishlangan qator maqolalari ushbu jurnal sahifalarida doimiy ravishda nashr etildi[9]. Muallif tomonidan o‘z maqolalarida O‘zbekistonning turli hududlarida mustaqillik yillarida barpo etilgan qator me’moriy binolar, ularning qurilish uslubi xususida fikr yuritadi. Mustaqillik yillarida me’morchilik masalasiga bag‘ishlangan ilmiy nazariy konferensiyalar doimiy o‘tkazilib, ularda ishtirokchilarning ilmiy maqolalari to‘plamlarda nashr etib borildi. Ilmiy anjuman materiallarida mustaqillik davri me’morchilik sohasining ko‘plab dolzarb masalasiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar nashr qilindi.

Shuningdek, mazkur yillarda O‘zbekistonda me’morchilikning landshaft sohasi ham yangidan yo‘lga quyilib, rivojlantirilib bordi. Shu bois keyingi yillarda me’morchilikning ushbu yo‘nalishini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab, ilmiy ishlar e’lon qilindi. L.Odilov, D.Isamuhammedov, K.Raximov, A.Uralov, N.Drobchenko kabilarning ishlari shu mavzularga bag‘ishlangan. Masalan, L.Odilovning kitobida landshaft me’morchiligini hozirgi zamon sharoitida yo‘lga quyish masalasi, shahar ko‘kalamzorlashtirish tizimi, sharq mamlakatlari bog‘- park san’ati, zamonaviy landshaft me’morchiligining asosiy tendensiyalari, park va bog‘larda ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari haqida masalalar ko‘rib chiqilgan.

[9] Кадырова Т.Ф. Архитектура и дизайн. //Архитектура и строительство Узбекистана. - Ташкент, 2001, № 1. С. 49-53.

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston me’morchilik san’ati tarixini tadqiq etish masalasiga bag‘ishlangan qator dissertatsiya ishlari ham himoya qilindi. A.Karpikov, I.Azimov, K.Molotov, I.Mamajonov, I.Azimov, Z.Dosmetova, T.Qodirovaning dissertatsiyasi me’morchilik fanining ba’zi bir muhim masalalarini yoritishga bag‘ishlangan. Ular orasida ayniqsa T.Qodirovaning doktorlik dissertatsiyasi alohida ahamiyatga ega. Muallif o‘z izlanishlari davomida O‘zbekistonda me’morchilik sohasining turli tarixiy davrlardagi holatini ilmiy tahlil etadi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasi va sovet hukmronligi sharoitida me’morchilik sohasini yo‘lga quyilishidagi bir tomonlama yondashuv, ikkinchi jahon urushi yillari va urushdan keyingi yillarda bu borada amalga oshirilgan tadbirlar xususida, mustaqillik sharoitida yangi davr talabiga muvofiq me’morchilikni yo‘lga quyish tadbirlari xususidagi ma’lumotlar ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

2010-yilda M.Vaxitov tomonidan nashr etilgan “Me’morchilik”[10] darsligida me’morchilikning turli jabhalari qamrab olingan bo‘lib, manba uch qismdan tashkil topgan. Darslikning birinchi qismida jahon me’morchilik tarixi hamda O‘zbekiston milliy me’morchilik tarixi masalalari bayon etilgan. Kitobning ikkinchi qismi - fuqarolik binolariga bag‘ishlangan bo‘lib, u to‘rtta bo‘limni o‘z ichiga oladi. Ularda inshootlarni barpo etish usullari, turarjoy imoratlari va jamoat binolarining qurilish texnikasi masalalari keltirib o‘tilgan. Darslikning uchinchi qismida asosan sanoat binolarini loyihalash asoslari, binolarning konstruksiyalari, me’morchilik fanini o‘qitish metodikasi yoritib berilgan.

“Пути развития средневековых архитектурных ансамблей Узбекистана”[11] deb nomlangan monografiya O‘zbekiston o‘rta asr me’moriy ansambllarining paydo bo‘lishi va kompozitsion rivojlanishiga bag‘ishlangan. Mazkur monografiyada turli tarixiy bosqichlarda arxitektura ansambllarini shakllantirishning badiiy uslublari, tamoyillari va usullari, ularning shahar tuzilishi va tarkibidagi ahamiyati o‘rganiladi.

[10] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – 368 b.
[11] Ахмедов М. К. Пути развития средневековых архитектурных ансамблей Узбекистана. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 160 с.

Birinchi marta shaharsozlik loyihasi, inshootlar majmui makonini joylashtirish va uyg‘unlashtirishning o‘rta asr tamoyillari masalalari ko‘tarilgan.

Yuqorida nomlari qayd etib o‘tilgan o‘quv-qo‘llanma, darslik, monografiya, jurnal maqolalari bugungi kunda O‘zbekiston me’morchilik san’ati tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Savol va topshiriqlar

1. “O‘zbekiston me’morchiligi san’ati tarixi” fanining predmeti va obyektiga izoh bering?
2. “O‘zbekiston me’morchiligi san’ati tarixi” fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. O‘zbekiston me’morchilik sohasida tadqiqot olib borgan O‘zbekistonlik olimlardan misol keltiring.
4. O‘zbekiston me’morchilik sohasida tadqiqot olib borgan xorijlik olimlar?
5. O‘zbekiston hududi me’morchiligini nazariy bilimlarga asoslanmagan deb hisoblagan xorijiy manbashunoslar?

2-ma’ruza. Ibtidoiy davr O’zbekiston me’morligi

Reja:

1. O‘zbekiston hududida ibtidoiy davr me’morchiligi
2. Ilk qurilish materiallari, konstruksiyalar, turarjoy, shaharsozlik, fortifikatsiya va diniy inshootlar
3. Bronza davridagi ilk shaharsozlik elementlari

Kalit so‘zlar: *kenotaf, chayla, ravoq, qal’a, qo‘rg‘on, mudofaa devorlari, Sopollitepa, Jarqo‘rg‘on*

O‘zbekistonda me’morchilik sohasi miloddan avvalgi III minginchi, ayrim manbada X minginchi yillardan shakllangan. Mazkur davrlarda qal’alar barpo etilishi ham odat tusiga kirgan. Qal’alar sun’iy va tabiiy tepaliklarda barpo etilib, turli xil tabiiy va sun’iy ofatlardan himoya qilish maqsadida qo‘llanilgan. Bugugi kunda qadar taxminan O‘zbekiston hududida 400 ga yaqin qal’alarning harobalari aniqlangan[12].

Ibtidoiy davr me’morligi quyidagi davrlarga ajratib o‘rganiladi:

1. Qadimgi tosh davri (paleolit) – 700-14 ming yil avval;

a) Yuqori ashshel, Shel-700/500-14 ming yil avval;

b) O‘rta ashshel (Mustiye davri)-100/40-40/14 ming yil avval;

v) Kechki davr -40/14 – 14/10 ming yil avval;

2. O‘rta tosh davri (Mezolit) - miloddan 14-5ming yil avval;

3. Yangi tosh davri (Neolit) - miloddan VI-III ming yil avval;

4. Bronza davri - miloddan III – II ming yil avval;

5. Ilk temir davri - miloddan avv. X – IV asrlar;

Turarjoylar tosh davrida g‘orlar, daraxt novdalari va somondan qurilgan uchburchak ko‘rinishidagi chaylalardan tashkil topgan. Xalqning aksariyat qismi ko‘chmanchilikdan o‘troqlikka o‘tgach, tosh, guvala, paxsa, sinchli uylar barpo etila boshlangan. Neolit davri me’morchiligida sopoldan turli idishlar yasashni o‘rgana boshlaganlar.


[12] Аҳмедов Қ.М. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўқув қўлланма. Т.: Ўзбекистон, 1995. Б 6-8.

Ko‘pgina olimlar bir qancha katta bo‘lmagan (50-300 kishi yashagan) qarorgohlar eramizdan oldingi V-IV minginchi yillarda 100-200 kishi yashagan Qoratepa, Ko‘ksur kabi markazlar vujudga kelganligini qayd etadilar. Eramizdan oldingi III mingingchi yillarda Oltintepa va Namozgohtepa qarorgohlarida 500-10000 aholi yashagan va sopolsozlik markazlari vujudga kelgan. Bu davrga kelib ikki qatorli xumdonlar va sopolsozlik charxi paydo bo‘ladi.

Qadimiy sopoldagi (pishirilgan loy parchalari) qirib va o‘yib solingan archasimon va to‘lqinsimon chizgilarda Oltoy, Xitoy, Eron va Mesopotamiyadan topilgan qadimiy naqshinkorliklarga o‘xshashliklar kuzatiladi.

Arxeologik qazishmalar natijalari bo‘yicha qadim zamonlarda Zarafshon daryosi bo‘yida joylashgan Samarqandda paleolit, neolit davrlarida ovchi qabilalari, bronza davrida chorvachilik va dehqonchilik qabilalari yashaganliklari isbotlab berilgan. Odamlar tashqi muhit ta’sirlari va har xil hayvonlar hujumidan o‘zlarini muhofaza qilish maqsadida yerto‘la va chaylalar qurganlar va u joylarda yashaganlar.

O’rta Osiyo hududidagi ilk qurilish materiallari: xomg‘isht, guvala, paxsa, to‘sinli tomlar qadim tosh davrining so‘ngi bosqichi – er.av VI-III ming yillikni o‘z ichiga olgan neolit davridanoq ma’lum bo‘lgan. Mazkur davrda ikki xil – chaylasimon, g‘ishtin va guvalali uylar qurilgan.



Jonboz qal’a. er.av IV-III ming yilliklar



Jonboz qal’a.(hozirgi ko‘rinishi)

Chaylasimon uylarga misol qilib, er.av IV-III ming yilliklar bilan belgilanadigan Qadimgi Xorazm (Kaltaminor aholi punkti yaqini) da ochilgan

“Jonboz-4” deb ataluvchi ovchilar va baliqchilar boshpanasi – chaylasifat turarjoyni keltirish mumkin. Bu imorat qum barxani ustida qurilgan (29*17 m), imorat markazida diametri 1,2 metr bo‘lgan bosh o‘choq joylashganligi aniqlangan. Bu o‘choqlardagi olov muqaddas sanaladi. Tub aholiga xos otashparastlik namunalari o‘sha davrga xos deb taxmin qilinadi. Oila a’zolari taxminan 100-125 kishini tashkil etadi. Bino chekkalarida 100 tacha ro‘zg‘or o‘choqlari borligi aniqlangan. Chaylaning tomini yopishda va ustunlarini yasashda Amudaryo teraklaridan foydalanilgan deb taxmin qilinadi. Bu yerda ko‘plab tosh qurollar, sopol bo‘laklari va boshqa ashyolar topilgan. Katta oilalar birgalikda yashagan bunga o‘xshash uylar O’rta Osiyoda mazkur davrdagi yashash tarzini belgilashda dolzarb hisoblangan.

Ikkinchi, konstruktiv jihatdan mahobatliroq bo‘lgan uylar, to‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi xomg’isht yoki ovalsimon guvaladan taxlangan, bir xonali ko‘rinishda bo‘lgan. Mazkur uylar to‘g‘ri to‘rtburchak planli bo‘lib, devorlarini taxlashga loy-somonli (loy va somon aralashmasidan) qurilish qorishmasidan foydalanilgan. Uning yassi tomi yog‘och to‘sinlar va ularga ko‘ndalang yotqizilgan balkalar yordamida yopilgan. Uy tuynuklarsiz, yagona kirish eshigi va ichida devor oldidagi o‘chog‘i bilan tiklangan. Devorlar sahni loy suvoq qilinib, interyeri tabiiy qizil bo‘yoqlar bilan bo‘yalgan.

O’rta Osiyoda bu davrda qadimgi Sharqning o‘ziga xos ilk jamiyatlari tashkil topa boshlagan. Bu esa davlat shakllanishidan dalolat beradi. Asta sekin diniy dunyoqarash shakllana borib, Oltintepa madaniyati juda katta badiiy xususiyatga ega bo‘lgan. Xuddi shu davrda hozirgi Avg‘oniston yerlaridan O‘rta Osiyoga qalay olib kelinadi va bronza (jez) qotishmasi hosil qilish yo‘llari izlab topiladi hamda uning misdan ko‘ra mustahkamroq ekanligi aniqlanadi. Bronzaning kashf etilishi, dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi rivojlanishga olib keladi.

O’rta Osiyo ning bronza davri me’morchiligi. Miloddan avvalgi 2 ming yillikning oxirlari va 1 ming yillikning boshlari O’rta Osiyo tarixida quldorlik munosabatlarining yuzaga kelishi bilan belgilanadi. Amudaryoning quyi etaklarida, Farg‘ona vodiysida chorvachilik bilan shug‘ullangan qabilalarning qarorgohlari va

qabrgohlari ma’lum. Shu vaqtga qadar tuyalar uy hayvonlari sifatida paydo bo‘lgan bo‘lsa, endilikda otdan ham shu maqsadlarda foydalanila boshlaydi.

Miloddan III-II ming yil avvalgi davriga kelib, Namozgoh-tepa II shaharchasining tarziga ko‘ra ko‘p xonali uylar bir-biriga yaqin joylashib, kichik ko‘chalar va ulardan tashkil topgan mahallalar paydo bo‘la boshlaydi. Bu yerda ham 30 tagacha xonasi bo‘lgan, tomonlari bir-biriga nisbatan 1:2:4 taxminan (40*20*10 sm) proporsiyada bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakli g‘ishtdan loy qorishmasi yordamida tahlangan bino qoldiqlari topilgan. Ushbu davr uchun to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida yirik g‘isht xos bo‘lgan. Devor qalinligi 50-60 sm, xonalar eni 1,7-3,5 m, uzunligi 3-5 m. Xonalardan biri ganch bilan suvoqlangan.

Tomni yopish usuli – yog‘och to‘sin va ravoqsimon tom, soxta ravoqli (pastki g‘isht tepasidan ustkisini surib chiqarish yo‘li bilan tashkil topgan) va kesmalardan tashkil topgan ravoqli tom tiklangan.

Bronza davrida O‘zbekiston hududining janubida (Sopollitepa) murakkab - arxitektura komplekslari vujudga kelgan. Ilk temir davrida to‘g‘ri to‘rtburchak (Qiziltepa, Bandixontepa), aylana (Kuchuktepa; milodan avvalgi III asrda barpo etilgan qal’a-shaharchalar qurilgan. Afrosiyobdan topilgan me’morchilik inshootlarining harobalari, ulardagi san’at namunalari Ahmoniylar san’atiga yaqin sanaladi. Milodgacha bo‘lgan I ming yillikda Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm kabi shaharlar shakllangan. Qal’alar yarim doira shaklidagi minoralar, devor ichi yo‘llari, tiyrandoz o‘qchilar uchun mo‘ljallangan bir qator tuynuklar bilan barpo etilgan. To‘g‘ri burchakli yoki doira shakliga ega konstruksivalar qal’a devorlarini mustahkamlagan.

Surxondaryodagi qadimgi Qiziltepa, Bandixon, Talashkan va boshqa shaharlar buning yorqin namunasidir. Ushbu shaharlarning hammasida qo‘rg‘on va alohida ma’muriy hukumat komplekslari, devor ortida esa xavfli harbiy harakatlar kunlarida shahar aholisini boshpana va himoya bilan ta’minlash mumkin bo‘lgan imoratlar qurilgan. Qishloqlarda alohida qo‘rg‘onlar barpo etilgan[13].

[13] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B. 94-95.

Bronza davrida ilk shaharsozlikka qadam qo‘yilgan bo‘lib, shaharchalar oval tarzda, rejasiz barpo etilgan. Strukturasida radial ko‘chalar shakllangan. Ushbu shaharchalarda hali ularni chegaralovchi devorlar yo‘q edi. Bu yerda mudofaa devorlarining o‘rnini manzilning struktura bo‘yicha joylashgan uylarning orqa devorlari bo‘lgan. Er.av II ming yillik oxirida O’rta Osiyoning janubida ilk shaharsozlik kurtaklari hosil bo‘ldi.

Ulardan eng ahamiyatlisi – Oltintepa sanalib, mudofaa devorlari va darvozaxonasi oldiga bo‘rtib chiqqan kirish qismi bo‘lgan. Ichki strukturasida - uncha keng bo‘lmagan ko‘chalar tarmog‘i, shaharlar o‘rtasida esa bir necha tepaga qarab qisqarib ketgan platformadan iborat bosh diniy inshoot joylashgan. Kompozitsiyasi bo‘yicha u Mesopotamiyaning yirik shahri Urdagi zikkuratni eslatadi.

Qurilish materiallari: qurilish texnikasida progress, asosan yirik to‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi xomg‘isht va paxsa, to‘sinlar yordamida yopilgan tekis tomdir. Manzillar tarxi yoysimon yoki to‘g‘ri to‘rtburchakli shaklda, tashqi mudofaa devorli, ichida esa uncha baland bo‘lmagan turarjoy binolari qurilgan.


O‘zbekiston janubidagi mil. II ming yil avvalgi davrga oid Sopollitepa va Kuchuktepa shu ko‘rinishga egadir.

Surxondaryo viloyatining Muzrabod tumanida topilgan Sopollitepa yodgorligi Sherobod cho‘lini kesib o‘tgan O‘lanbuloqsoy yoqasiga joylashgan jez davriga tegishli arxeologik yodgorlik sanaladi[14]. Mazkur yodgorlik 1968-yil arxeolog L.Albaum rahbarligida o‘rganilgan. 1969-1974-yillarda esa olim A.Asqarov ishtirokida tadqiq etilgan. Uning maydoni taxminan 3 gektarga teng bo‘lib, markaziy qismi 1 gektarcha masofada himoya devorlari bilan o‘ralgan qismi buzib paxta dalalariga aylantirib yuborilgan. Tepaning ustki qismida sopol siniqlari qalashib yotganligi uchun u mahalliy aholi asosida Sopollitepa deb ataladi.


Surxondaryoga olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida, yodgorlikning markaziy qismi murabba (82*82) shaklida barpo etilgan qal’adan iborat. Qal’a

[14] https://uz.wikipedia.org/wiki/Sopollitepa

atroflari guyoki 3 qator mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Aslini olganda qal’ani o‘rab olgan devorlar tuzilmasi ichki va tashqi yo‘laksimon qopqonlardan iborat bo‘lib, qal’a tashqi mudofaa chizig‘ida tomonlarga parallel bo‘lib 8 ta yo‘laksimon qopqonlar o‘rin olgan. Qal’aning ichki himoya chizig‘ining markaziga va har to‘rt tomon burchaklariga bittadan hammasi bo‘lib jami 8 ta yo‘laksimon qopqonlar mavjud. Yo‘laksimon qopqon tuzilmasining joylashish sxemasiga ko‘ra, qal’aga kirish darvozasi ham guyoki 8 ta. Ammo asl darvoza qal’a janubiy qismining markazidan o‘rin olgan, qolgan darvozalar harbiy xavf yuzaga kelganda qopqon vazifasini o‘tagan. Qal’aning ichki himoya tuzilmasida, yo‘laksimon qopqonlar oralig‘ida, har tomonda ikkitadan murabba shaklida barpo etilgan xonalar joylashgan bo‘lib, ularga qal’a ichki tomonidan eshik ochilgan. Aynan ushbu xonalar qal’a ichidagi turarjoy majmualari bo‘ylab joylashgan. Ular shu ko‘chalar orqali 8 ta mahallaga bo‘lingan. Qal’a markazida esa ochiq maydon bo‘lgan. Qal’a darvozasidan boshlangan keng yo‘l va tor ko‘chalar mazkur maydon orqali tutashgan. Ularning hammasi Sopollitepa jamoalarining himoya tuzilmasini tashkil etadi.



Sopollitepa. Mil avv. XVII-XIV asr



Sopollitepa maketi

Sopollitepa qal’a qo‘rg‘onning me’moriy tarxi shahr tipiga yaqin qilib qurilgan shaharchalar ko‘rinishiga o‘xshaydi. Shu kabi himoya tuzilmasi Sopollitepa xavfsizligini yuqori sifatda qo‘riqlagan. Sopollitepa himoya tuzilmasini tashkil etgan uzun yo‘llar dastlab himoya imorati sifatida qo‘llanilib, keyinchalik boshqa maqsadlarga foydalanilgan. Masalan, shimoliy va sharqiy ichki yo‘laklar xilxona

maqsadida, g‘arbiy va janubiy yo‘laklar kulolchilik ustaxonalari maqsadida foydalanilgan. Deyarli barcha mahallada urug‘ jamoalarining xilxonalari bo‘lib, marhumlar himoya devorlari tagiga, turarjoyning poli ostida ko‘milgan. Urug‘ boshliqlarining qabrlari esa, odatda, oila o‘chog‘i ro‘parasida dafn etilgan[15].

Sopollitepada o‘tkazilgan qazishmalarda 150 dan ortiq turarjoylar o‘rganildi. Sopollitepada odamlar qancha payt istiqomat etishganini aniqlash maqsadida yodgorlikning ko‘pgina joylarida shurflar solinadi. Shurf kesmalariga ko‘ra, mudofaa inshootlari va uy-joy majmualari poydevorsiz quriladi. Oilaviy uy-joy majmualari ko‘p xonali bo‘lib, har bir oilaga qarashlik ko‘p xonali uyning biri devorining ostida mo‘rili o‘choqlar, ikkinchisida sandal o‘rni yoki toza kulli qurbongoh chuqurchasi, uchinchidan esa omborxona sifatida foydalanilgan.

Sopollitepada jezdan qirg‘ich va pichoqlar, bolta va teshalar, igna va bigiz, iskan va randa tishlari, ko‘zgu va muhr, surmadon va xilma-xil idish, bilaguzuk va soch turmaklagichlar, sirg‘a va uzuklar, tilla qosh va qosh tergichlar ishlab chiqarilgan. Sopollitepada 158 ta qabr o‘rganilgan.

Sopollitepaliklar diniy e’tiqodiga asosan narigi dunyoda ham yashashni tasavvur etishgan. Qabrdagi buyumlarning zodagon va oddiy aholiga tegishli ekanligi ularning yoshi va jamoada tutgan o‘rni bilan bog‘liq bo‘lgan. Qabrlarga bittadan ayrim hollarda esa 2 tadan skeletlar topilgan. Sopollitepadan topilgan qabrda erkak va ayol ko‘milgan bo‘lib, uning tanasida majburiy yetkazilgan jarohatlar uchramaydi. Demak, ular o‘z ajali bilan hayot bilan vidolashgan.

Sopollitepada aholi taxminan 150-200 yillar istiqomat qilib, suv yetishmovchiligidan, suvga mo‘l bo‘lgan yangi unumdor yerlar izlab, Sherobod daryosining qadimgi o‘zani bo‘stonsoy sohillariga ko‘chib o‘tadilar. Bu voqea mil.av 2-ming yillikning birinchi yarmida sodir bo‘ldi. Sopollitepa dehqonlari yangi yerni o‘zlashtirib, O’rta Osiyoning janibida eng qadimgi ilk shaharni barpo etdi. U shahar O’rta Osiyo tarixida Jarqo‘ton nomi bilan ataldi. Jarqo‘ton misolida o‘zbek davlatchiligining ilk ildizlarini kuzatish mumkin. Jarqo‘ton ibodatxonasini ochilib

[15] https://uz.wikipedia.org/wiki/Sopollitepa

o‘rganilishi ko‘plab yangiliklarni bilishga yordam berdi. Ashyoviy dalillar tahlilini ko‘rib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1) O‘zbekiston Respublikasining janubiy viloyatlarida mil.av 2-ming yillikning birinchi yarmi davomida qadimgi Sharq tamadduniga mos holatda yuksak rivojlangan qadimgi ilk shahar madaniyati tarkib topgan;

2) Sopollitepa o‘zining qadimgi shaharsozlik madaniyatiga xos barcha alomatlari bilan protashahar, ya’ni Avestoga tilga olingan vara inshootini eslatadi. Jarqo‘ton yodgorligi O’rta Osiyo hududida birinchi bor shakllangan tom ma’nodagi qadimgi shahar edi;

3) Qadimgi shaharlarga xos bo‘lgan birinchi alomat - shahar maydoniga arki a’lo va shahriston tarkib topgan bo‘lishi lozim bo‘lsa, Jarqo‘tonda aynan shu narsa sodir bo‘lgan. Yani 100 gektarlik janubiy tomonni 3 gektari arki a’lo va qolgani shahriston maydonini tashkil qiladi;

Ikkinchi alomat – o‘troq dehqonchilik madaniyati, aholisi zich joylashgan maskan himoya devorlari orqali o‘rab olingan bo‘lishidir;

Uchinchi alomat – shahar arki qismida mahobatli binoning ya’ni umumshahar jamoalari boshlig‘i qarorgohining tarkib topishi Jarqo‘tonda o‘z aksini topgan;

To‘rtinchi alomat – shahar maydonida barcha uchun xizmat qiluvchi bosh sajdagoh – diniy mafkura markazi shakllangan bo‘lishi;

Beshinchi alomat – qadimgi shaharda hunarmandchilikning yuksak darajada tarkib topgan bo‘lishi, shahar hayotida nafaqat diniy, balki dunyoviy jihatda tashkil etilgan boshqaruv tizimi asosida qurilgan. Shahar hukmdorining mahobatli koshonasining arki a’loda shakllanishi bunga dalolatdir[16].

O’rta Osiyoning ilk temir davri me’morchiligi (er.av X – IX asrlar). Bu davrda Ossuriya bu yerni bo‘ysundirib olgan. VII asrda Ossuriyaliklarni Midiyaliklar o‘ziga bo‘ysundirgan bo‘lsa, 550-yilga kelib esa O’rta Osiyoni Ahmoniylar bo‘ysundirib olgan. Balx, Marv, Hamadon, Turkmanistondan to Issiqko‘lgacha er.av VI asrdayoq bu yerda zardushtiylik dini bo‘lgan.

[16] Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 46-57.

“Avesto”da yozilgan ideal shahar “Varra” kvartal tarhli bo‘lib, razmeri 4x4, atrofi mudofaa devori bilan o‘ralgan. Ahmoniylar shaharlari shu ko‘rinishga ega bo‘lgan. Bularga misol qilib er.av 5-4 asrlarga oid “Qal’aliqir” nomli xorazmshohlar poytaxtini keltirish mumkin. Bu shaharning 4 ta darvozasi bo‘lgan.

Er.av VI-IV asrda Surxondaryoda “Qizilcha oltin” tipidagi uylar mavjud bo‘lgan. Bu uylarning ko‘pchiligi 30x30 m, o‘rtasidagi hovli 16x16m, hovli atrofida 8 ta uzunchoq xona bo‘lgan. Ichki devorining qalinligi – 1 m, tashqi tomoni esa 3 m. Jami 20-25 odamga mo‘ljallangan bo‘lib, ichida oshxona, ishlab chiqarish ustaxonalari bo‘lgan.

Mil.av X-VII asrda bir qator ish qurollari temirdan yasalib, yirik sug‘orish inshootlari barpo etilganligi izlanishlar orqali aniqlangan. Bu davrlarda quldorlik tizimiga asoslangan ilk davlat kurtaklari paydo bo‘la boshlaydi. Bir-biri bilan yer va mulk talashgan qabilalarning o‘zaro urushlari natijasida mag‘lub bo‘lgan tomon odamlari qul qilib olingan. Bu esa o‘z navbatida arzon ish kuchini yuzaga kelishiga imkon bergan. Natijada ma’lum xalq – “banda” va uning hokimi “Xudo” yuzaga keladi. Bu esa eziluvchi va ezuvchi sinf munosabatlarini yuzaga keltirdi.

Bu davrga kelib sug‘orma dehqonchilik olib borilgan yerlar shimolga qarab kengayadi va ilk davlatchilikning shakllanishidagi dastlabki birlashmalar yuzaga keladi. O‘rta Osiyo shimolida olov muqaddas hisoblanganligi mil.av 1 ming yillikning boshlarida to‘g‘ri keladi va bir necha yuz yildan so‘ng Midiya va Fors davlatining boshqa yerlariga tarqalgan. Otashparastlarning muqaddas kitobi aynan shu vaqtda (mil.av X- IV) yozila boshlanga degan fikrlar bor. Atrek, Gurgon, Qunduz, Murg‘ob, Amudaryo va Zarafshon daryolari havzalarida bir qancha yurtlar yuzaga keldi. Mil.av – VI asrda qadimgi G‘irqoniya (Kasbiy dengizining janubiy-sharqiy qirg‘oqlarida), Parfiya (hozirgi Turkmaniston janubida), Areya (Terjen – Gariruv havzalarida), Marg‘iyona (Bugungi Marv vohasi), Sug‘diyona (Zarafshon vohasi), Baqtrya (Amudaryoning so‘l sohllari) va Drangiyona (hozirgi Avg‘onistonning janubi g‘arbida) madaniyatlar yuzaga kelgani ma’lum.

Ilk temir davri (yer. X- IV asri) qadim Eron va Yunon manbaalarida er. I ming yilligida O’rta Osiyoda quyidagi rivojlangan madaniyatiga ega tarixiy madaniy

hududlar shakllangan: Baqtrya (Amudaryo bo‘ylarida), Marg‘iyona (Murg‘ob bo‘ylab hozirgi Turkmaniston), Parfiya (Kopeddog‘ tog‘ tizmasi bo‘ylab), Parkana (Farg‘ona vodiysi), Choch va Shosh (Chirchiq –Angren vohasi, Toshkent viloyati).

Ushbu davrlarda hududlarning ilk urbanizatsiyasi va haqiqiy shaharlariga o‘xshash manzillar qurila boshladi. Yirik shaharlar to‘g‘ri to‘rtburchak yoki doirasimon shaklda bo‘lib mudofaa devorlari va chuqur zovur bilan o‘ralgan edi. Ko‘plab qurol otish uchun uzunchoq vertikal tuynuklar va yarim silindr shakldagi burjlarga ega edi. Qurilish materiallari avvalgidek xomg‘isht, paxsa to‘sinlar tomlarga ishlatilgan.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston hududida ibtidoiy davr me’morchiligi qurilish tartibi qanaqa bo‘lgan?
2. Chaylasimon uylar qaysi manzilgohda eng ko‘p uchraydi?
3. Yoysimon ravoqlar qaysi davrda yuzaga kelgan?
4. Sopollitepadan nechta qabr topib o‘rganilgan?
5. Qaysi manzilgoh ilk shaharsozlik ko‘rinishini o‘zida mujassam etgan?

3-ma’ruza: Antik davri O‘zbekiston me’morligi

Reja:

1. Antik davr shaharsozlik va me‘morchilikdagi o‘zgarishlar
2. Baqtriya shaharsozligi shakllanishi
3. Xorazm shaharsozligi me‘morchiligi, binolari va ularning badiiy xususiyatlari

Kalit so‘zlar: *feodal ko‘shk, qal’a, kadivar, xandaq, ko‘ngura, Xolchayon, Ayritom, Dalvarzintepa, Kampirtepa, Qo‘yqirilgan qal‘a, Jonbozqal‘a, Tuproqqal‘a*

Miloddan oldingi IV asrda avvaliga Xorazm, so‘ng Sirdaryo yoqalaridagi xalqlar mustaqillikka erishadi. Lekin bu uzoqqa cho‘zilmaydi. IV asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoni fotih Iskandar boshchiligidagi grek-makedoniya qo‘shinlari istilo etadi. Iskandar O‘rta Osiyoning sharqida, Sirdaryo bo‘yida (tahminan hozirgi Xo‘jand shahri o‘rnida) o‘zining chekka istehkomi Aleksandriya – Exsatat (Olis Iskandariya)ni qurdi. Greklar bostirib kelgan davrda Samarqand, Marv, Romish kabi bir qator gullab-yashnagan shaharlar bo‘lgan.

Aleksandr Makedonskiy O’rta Osiyoning bir qismini ishg‘ol etganidan keyin, bu yerlarda yunon madaniyati ta’sirida antik badiiy madaniyat paydo bo‘lgan (miloddan avvalgi III asr - milodiy III asrlar). Kumush sopol idishlarga yunon va mahalliy lavhalar aks ettirilgan bezaklar ishlangan[17].

Eramizdan avvalgi 250-yillarda Parfiya va Kushon davlatlari tashkil topadi. Bu davr me’morchiligida g‘isht o‘lchovlari kvadrat ko‘rinishida bo‘lib, 40x40 sm, qalinligi esa -10 sm qilib ishlangan. Xonalar ichida ravoqli tokchalar, tokcha ichiga haykallar va devoriy suratlar joylashgan. Binoning ayrim joylarida kam hajmda pishiq g‘isht ham qo‘llanilgan.

Milodiy III-IV asrlar O‘rta Osiyoda quldorlik tuzumini tanazzulga yuz tutishi bilan harakterlanadi. Natijada ma’lum bir vaqtga kelib avvalgi hukm asosida markazlashgan shahar hokimi o‘z ta’sirini yo‘qotib, nufuzli dehqonlar atrofiga umumiy mehnat asosida birlashgan kadivar uyushmalari yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbatida feodal munosabatlarning yuzaga kelishiga asos bo‘ladi. Shuning

[17] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B 96.

natijasida bu davr (III-IV asrlar) dagi shaharlar qurilishida avvalgi davrlarga nisbatan o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Natijada O‘rta Osiyo me’morchiligida yangi sotsial hayot yuzaga chiqargan bino - feodal ko‘shklari barpo bo‘ladi.

Feodal ko‘shklarining qadimgi harobalari butun O’rta Osiyo hududida tuproq-tepaliklar sifatida uchraydi. Ular atrofi xandaq bilan o‘rab olinib, ko‘pincha to‘g‘ri to‘rtburchak shakldagi ko‘rinishga ega bo‘lgan. Ularni sinchiklab o‘rganilganida arxeologik jihatdan o‘sha davrdagi hayot tarziga mos ravishda qurilganligini aniqlash mumkin. Chunki bu kabi feodal ko‘shklari biron nufuzli feodal oilasining yashashi hamda mudofaalanishiga moslashganligi ma’lum bo‘ladi. Shuning uchun bu qasrlar mustahkamroq mudofa inshootini tashkil etib, alohida suv bilan ta’minlash majmuasiga va zahira oziq-ovqat jamlash imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Odatda bunday qal’alar atrofida yirik mulk egasining yer-mulki va uning kadivarlari[18] joylashgan. Shunday qilib har bir feodal ma’lum bir mavqeni egallagan va o‘z nufuziga ega bo‘lgan.

Bu davrda eng qadimgi shaharlarga tegishli deb hisoblangan harobalar orasida qiziqarli bir turi aniqlangan. U ham bo‘lsa atrofi ko‘pincha to‘g‘ri burchakli va ba’zan to‘g‘ri to‘rtburchakli bo‘lmagan o‘ziga xos turarjoylar bo‘lib, ular atrofi devorlar bilan o‘rab olingan shaharlardir. Bular jumlasiga Qal’aliqir, Ko‘zaliqir kabi shahar harobalari kiradi. Bunday shaharchalarni o‘sha vaqtda 40x 40x 10 sm o‘lchamli xomg’ishtdan ikki yoki uch qator qilib yonma-yon tiklangan, usti ellips shaklidagi ravoq bilan yopilgan bir necha qator yo‘laklardan iborat hudud tashkil etib, shahar maydoni maxsus devor bilan o‘rab olinganligi aniqlangan. Ma’lum masofada shaharni mudofaa qilish minora[19]lari joylashgan. Shaharga kirish joylari maxsus labirint tarzida qurilgan darvozaxonadan iborat bo‘lib, mudofaa ahamiyatiga ega bo‘lgan, Devor orasidagi yo‘laklar tomida tuynuklar qoldirilgan. Ular mo‘ri hamda yorug‘lik tushish manbai bo‘lib xizmat qilgan. Mana shu devor bilan o‘rab olingan maydon nega bo‘sh qoldirilganligi masalasiga kelsak, uning suv

[18] Kadivar - O‘rta Osiyoda ilk o‘rta asrlarda iqtisodiy jihatdan boy tabaqaga butunlay qaram bo‘lgan shaxs. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kadivar

[19] Minora - gorizontal (eni) o‘lchamiga nisbatan vertikal (tik) o‘lchami ortiq bo‘lgan baland inshoot. https://uz.wikipedia.org/wiki/Minora

oqadigan manbalar sahnidan balandligini hisobga olib S.Tolstov bu yerda shahar aholisining mol-holi saqlangan bo‘lsa kerak deb taxmin qiladi[20].

Shuningdek, qadimgi O‘zbekiston hududida Baqtriya (Surxondaryo viloyati hududi uning tarkibida bo‘lgan). So‘g‘d (Qashqadaryo - Zarafshon va Sirdarvo oraliqlari: hozirgi Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Navoiy, Sirdarvo, Jizzax viloyatlari hududlari), Xorazm (Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimi) va Parkana (Farg‘ona vodiysi) sivilizatsiyasi shakllangan davlatlar sifatida shakllangan.

Grek-Baqtriya va Kushon podsholiklari davrlarida qurilgan saroylar hashamatli va murakkab kompozitsiyaga ega bo‘lgan (markaziy zali yoki hovlisi turli maqsadlarga xizmat qiladigan ko‘p sonli xonalar bilan o‘ralgan.

Qadimgi O’rta Osiyo uchun aholisi ikki jamoa bo‘lib yashagan shaharlar harakterlidir. X asr arab jug‘rofiyachisi – sayyohi Maqdisi Gurgon shahrining Shahriston va Bekobod kabi ikki qismi haqida xabar beradi. Bu ikki mahalla ahli musulmonlar Qurbon hayitida “tuya kallasi uchun” qandaydir ilohiy jang – tortishuv olib borishgan. Shuningdek Marv shahri Madina va Eski bozor, Niso shahri Al-xona va Saribozor (bozorboshi), Abiverd esa Kordori va Sarishahar (shaharboshi) kabi qismlarga bo‘lingan. Balx va Samarqand shaharlariga ham bu narsa xos. Arxeologik qazilmalar olib borilgan G‘ovur qal’a, Ko‘hna uoz shaharchalari ham bundan darak beradi.


Strategik qulay yerda jovlashganligi uchun rivojlanishning dastlabki bosqichlarida Samarqand (yozma ma’lumotlarda So‘g‘d davrida Marokand deb nomlangan) mustahkam devor bilan o‘ralgan. Dastlab u yerda aholi tarqoq joylashgan. Samarqand me’morchiligi miloddan avvalgi davrdayoq rivojlana borgan. Qoldiqlari hozir ham “Devori qiyomat” nomi bilan atalgan voha devorining uzunligi 40 km ni tashkil etgan. O‘rta sharqni egallagan quldorlik tuzumi natijasida Samarqand hududi ham keskin qisqargan.

Iskandar Makedonskiy istilosi Yaqin Sharq va O‘rta Osiyoning ko‘p yerlarini uni sarkardasi Selevk tasarrufiga o‘tkazgan edi. Mil.avv.III asr dastlab Parfiya, so‘ng

[20]Аҳмедов Қ.М. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўқув қўлланма. Т.: Ўзбекистон, 1995. Б. 16-17.

Baqtriya bu tasarrufdan xalos bo‘lishdi. O’rta Osiyoning ba’zi bir yeridagi me’morchilik tarraqiyotiga qisman ellinizm (Gretsiya) madaniyati ta’siri seziladi. Jumladan Amudaryo yoqasidagi Ayritom (Termiz) va Niso (Parfiya poytaxti) shaharchalaridan topilgan me’moriy shakl va elementlar bu fikrga yaqqol misol bo‘ladi. Imoratlar odatdagidek 40x40x10 smli xomg’isht va paxsadan qilingan. Pishiq g‘isht ba’zi hollarda farj qilinadi, ustunlarni ko‘tarishda qo‘llaniladi. Shuningdek ustun tagkursilari marmardan qilingan. Toshlarni yopishda gumbaz, toqi bilan bir qator yog‘och ham ishlatiladi. Loysuvoq ba’zan uning ustidan ohak va mahalliy ganch pardozi yuritilgan. Sopolli bezak elementlari ham qo‘llanilgan.

Kampirtepa – qadimgi shahar harobasi Amudaryoning o‘ng sohilida, Surxondaryo viloyatidagi Sho‘rob qishlog‘idan 0,5 km g‘arbda joylashgan. Kampirtepa 2 qism yani qal’a va undan g‘arb va sharq tomonda joylashgan, atrofi devor bilan o‘ralmagan qismdan iborat. G‘arbdan sharqqa tomon umumiy 750 metr, shimoldan janubga 200-250 metr.



Kampirtepa – qadimgi shahar harobasi rejasi. Mil.av. III asr – mil. III asr



Kampirtepa – qadimgi shahar harobasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Qal’a (maydoni 4 ga) ark va turarjoylardan tashkil topgan. Uning atrofi qalinligi 5 metr keladigan mustahkam mudofaa devori bilan o‘rab olingan, devorga ichki yo‘laklar qilingan, burchaklarida minoralar o‘rnatilgan bo‘lib, xandaq[21] bilan

[21] Xandaq - qadimiy va o‘rta asrlarda shahar, qal’a, qo‘rg‘on va mudofaa istehkomlarini dushman hujumidan ehtiyot qilish maqsadida ularning tashqi devori yonidan gir aylanasiga qazilgan o‘ra, chuqurlik. https://uz.wikipedia.org/wiki/Xandaq

o‘ralgan. Ark qal’aning markaziy qismida joylashgan, janub tomonidan uning bir qismini suv yuvib ketgan. Arkning maydoni 1,3 ga, janubiy-sharqiy burchagida darvozasi bo‘lgan. Ark xomg’ishtdan 5 metrga yaqin devor bilan qurshalgan. Devor atrofi kengligi 10 metrlik xandaq bilan o‘rab olingan. Arkning ichki qismida turli maqsadlar uchun mo‘ljallangan xonalar joylashib, ular o‘zaro yo‘laklar bilan bog‘langan 4 ta yirik blokni tashkil qiladi. Kampirtepaning mustahkamlanmagan qismi asosan dafn inshootlari majmuasi bilan band. Uning shimoli g‘arbiy qismida, 0,5 gektarlik maydonda naus[22] (novus) tipidagi 10 dafn inshooti joylashgan bo‘lib, ular hajmi 33-34-35 X 33-34-35 X 13-14 smlik kvadrat shaklidagi xomg’ishtdan terilgan. Sharqiy qismda yana bir dafn inshooti bo‘lib, uning tarhi to‘rtburchak, shimoldan janubga tomon cho‘zilib, 66,5 metr, kengligi 3-4,2 metr bo‘lib, bir-biridan yo‘laklar bilan ajratilgan uchta binodan iborat. Kampirtepaning mana shu qismidan tarhi aylana shaklda bo‘lgan xumdon topilgan. Kampirtepadagi hayot uchta asosiy davrga bo‘linadi.

Birinchi davr (mil.av.III-II asrlar) Kampirtepaning janubiy qismida, bo‘lajak ark o‘rnida qal’aning vujudga kelishi; Yunon-Baqtriya podsholigi davriga oid turarjoylarning katta qismini Amudaryo suvi yuvib ketgan.

Ikkinchi davr (mil.av. II-I-asrlar) ark o‘rnida hayot qisman jonlana boshlagan.

Uchunchi davr (mil I-II asrlar) Kampirtepaning yuksalgan darvi, mustahkam qal’a bunyod etilishi, uning tizimining shakllanishi.

O’rta Osiyoning milodiy antik davr me’morchiligi. Miloddan oldingi I asrning oxirlarida hokimiyat nufuzli Kushon shohlari qo‘liga o‘tadi va milodiy I-IV asrlarda O‘rta Osiyoning katta qismi markazlashgan Kushon davlati tarkibiga kirgan. Kushonlar davri O’rta Osiyo xususan O‘zbekiston tarixida alohida o‘rin egalladi. G‘oyatda serqirra madaniyatga ega bo‘lgan bu davlat me’morchiligi va tasviriy san’at (asosan haykaltaroshlik) namunalari Surxondaryoda qazib o‘rganilgan Dalvarzintepa va Xolchayon harobalaridan ma’lum. Bu harobalar ostidan bir qancha

[22] Naus- zardushtiylarning ostodonlarini saqlash uchun loy, tosh, g‘ishtdan qilingan inshoot. https://uz.wikipedia.Org /wiki/Novus

imoratlarning qoldiqlari hamda loydan va sopoldan ishlangan har xil haykallar turli ashyolar topilgan.

Dalvarzintepa – Sho‘rchi tumani hududida joylashgan, to‘g‘riburchak shaklda, umumiy maydoni – 30 ga, qadimda to‘rt tomoni devor bilan o‘rab olingan. Devorlar o‘z navbatida to‘g‘riburchakli ko’nguralar bilan o‘rab olingan bo‘lib, ular o‘rtasidagi oraliq 27–30 metrga teng. Mazkur me’morchilik obidasi 1967-yil L.Albaum tomonidan topilib, 1970-yildan boshlab G.Pugachenkova rahbarligidagi arxeologik guruh tomonidan tekshirish ishlarini olib borgan.

1971-yil Dalvarzintepada joylashgan uylarning birida mayda tuvakchada oltindan ishlangan 115 ta ashyolar aniqlangan. Ushbu buyumlar ayollarning turli tuman ko‘rinishdagi bejirim taqinchoqlaridan iborat bo‘lgan. Obidada B.Turg‘unov rahbarligida O‘zbekiston-Yaponiya ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan qazishma ishlari olib borilgan.

1936-1938-yillarda M.Masson rahbarligida Termiz arxeologiya ekspeditsiyasi Eski Termiz shaharini arxeologik nuqtai nazardan o‘rganish jarayonini olib bordi. Dalvarzintepaning “qal’a” qismida qazishma ishlarini olib borish jarayonida shaharning yoshi mil.av. III asr bilan teng ekanligini aniqlandi. 1981-yildan Arxeologiya institutining arxeologiya guruhi arxeologik qazish ishlarini olib bordi. Sh.Raxmanov 1993-yildan eski Termiz mudofaa devori qurilishi tarixini o‘rganishni boshladi. O‘zbekiston-Yaponiya arxeologiya ekspeditsiyasi xodimlari (rahbari Sh.Pidayev) Eski Termizda arxeologik qazish ishlarini olib bordi, olingan natijalar shaharning qurilish davri mil.av.V asrga oid ekanligini ko‘rsatdi.

Shuningdek bu davrda Zartepa yodgorligi me’morchilgi ham o‘ziga xosligi bilan diqqatga sazovordir. Ushbu yodgorlik – Surxondaryo viloyatidagi Angor tumanida joylashgan. Rejaga binoan to‘rt tomoni barobar, umumiy sathi – 16 ga. To‘rt tarafi ikki qatorli devor bilan o‘ralgan bo‘lib, yarim aylanali ko’ngura[23]lar orqali kengaytirilgan, ular orasidagi oraliq – 34 m bo‘lgan.

[23] Ko‘ngura - ko‘shk, qal’a, ark devorlari va qo‘rg‘onlarning taroq tishi shaklida bezatilgan yuqori qismi. Mudofaa devorlarida shinak (o‘q otadigan joy), keyinchalik bezak sifatida qo‘llanilgan. https://uz.wikipedia.o rg/wiki/ Ko%CA %BBngura

Mazkur davr yodgorliklaridan yana biri Fayoztepa Eski Termiz sarhadlarida aniqlangan. L.Albaum rahbarligida arxeologik jamoa yodgorlikda qazishma ishlarini olib borishgan. Natijada budda haykallari, buddistlar to‘planadigan joy o‘rganilgan. Ushbu yodgorliklardagi O‘zbekiston–Yaponiya davlatlari birlashgan arxeologik jamoa qazish ishlarini olib borishgan, aniqlangan ashyolar bir qator Yaponiyada tashkil etilgan ko‘rgazmalarda namoyishga qo‘yilgan. E.Rtveladze tomonidan Surxondaryo viloyati bo‘ylab arxeologik qazishma ishlari olib borilib, 130 dan ortiq yodgorliklar viloyat arxeologik haritasiga qayd etilgan, ularning ko‘p qismi antik davrga tegishli bo‘lgan.

Qadimgi Xorazm hududidan topilgan shahar harobalari o‘zining shahar ko‘rinishidagi strukturasini yaxshi saqlab qolgan. Ular ichida eng mukammal o‘rganilgani va yaxshi saqlanib qolgani Sulton uiz tog‘ etaklaridagi tepaliklarda joylashgan Jonbozqal’a harobalari hisoblanadi (miloddan oldingi IV-I asrlar).

Bu shahar qal’a tarxi 200x170 m o‘lchamdagi to‘rtburchakni tashkil etib, geografik tomonlarga nisbatan anchagina to‘g‘ri joylashtirilgan. Yodgorlik ikki qavatli devordan iborat bo‘lib, pastki qismi 1 m, 30 sm qalinlikdagi paxsa va yuqorilari ingichkaroq qilib 40x40x10 sm li xomg’ishtdan qurilgan. Loy o‘rtasiga somon qipig‘i aralashtirilgan.

Shaharning darvozaxonasi 52x20 m o‘lchamda shimoliy tomondan murakkab inshoot tarzida qurilgan. Bu yerda boshqa shahar harobalarida topilgani kabi burchak mudofaa va istehkom minoralari yo‘q. O‘q otish teshiklari jami 2000 askardan iboratga 400 xonali shahar uchun mo‘ljallangan. Darvozaxona tomonga qaratib ikkita mudofaa burji o‘rnatilgan. Shaharning qoq o‘rtasidan kengligi 30 metrga boradigan ko‘cha kesib o‘tadi va u istehkom to‘rida joylashgan oldi maydoncha, atroflar bir qancha qo‘shimcha xonalar bilan tutash markaziy bino – otashparastlar ibodatxonasi bilan yakunlanadi. Ko‘chaning ikki tomonidan har qaysisi yaxlit bir yashash kvartali – mahallani tashkil etuvchi ikki turarjoy majmua (kompleks)si joylashgan. Bu imoratlar shaharda ikki urug‘ yoki qabila yashashiga mo‘ljallangan bo‘lishi ehtimoli bor. Har bir majmua tarkibiga 150 dan oshiq, agar keyinchalik qum ko‘chkisi ko‘mib yuborganlarini ham hisobga olsa 200 dan ortiq

xona kirgan. Ikki toifa odamlar yashaganligi devorlardan tushgan g‘ishtlardagi maxsus belgi – tamg‘alardan ham bilinadi. Chunonchi topilgan g‘ishtlarda 9 xil tamg‘a aniqlangan bo‘lib, qarama – qarshi tomonlardagi devorlar g‘ishtining tamg‘a nusxasi bir – biridan keskin farq qiladi.

Jonboz qal’a shaharchasi o‘zining shakli, mudofaa sistemasi va imoratlari bilan O’rta Osiyo ko‘hna shaharsozligining tipik timsoli hisoblanadi. Qadimgi me’morchilik tarixini o‘rganishdagi yana bir asosiy hisoblangan manba, bu shaharchaning eng to‘rida 40x25 m sahndagi, balandligi 4,5 metrga boradigan tepalikda joylashgan inshootlardir. Bu inshoot bir-biridan katta-kichikligi bilan farq qiladigan to‘rtta xonadan tashkil topgan. Xonalarning ba’zi birlari otashparastlarning ibodatxonasi – olovxona vazifasini o‘taganligi aniqlangan. Xona markazida muqaddas olov yoqiluvchi joy bo‘lgan va uning atrofiga yirik g‘ishtlardan ishlangan o‘tirg‘ich – supalar yasalgan. Bu xonaga yonbosh joylashgan boshqa xonalar otashparastlik toat ibodati uchun zarur bo‘lgan joylar hisoblanadi[24].

Bu davrning yana bir buyuk shaharsozlik namunasi qadimgi Qo‘yqirilgan qal’a sanalanadi (mil.av. IV-III asrlar). Qo‘yqirilganqal’a – To‘rtko‘l manzilgohida aniqlangan va aylana shaklda barpo etilgan, hajmi 86,5 metr himoya devor bilan o‘ralib, to‘qqizta ko’ngura bilan mustahkamlangan. Ko’nguralar yon tomonga emas, balki devordan anchagina teparoq etib bunyod etilgan.

Umumiy ko‘rinishi halqasimon bo‘lgan bu shaharchaning markaziy qismini dumaloq shakldagi sahn tashkil etadi. Uning atrofida diametri 31 metr bo‘lgan ark deb taxmin qilingan aylana tarzidagi imorat joylashgan. Arkning tashqi devori esa xomg’ishtdan qurilgan, diametri 40 metrga yaqin muntazam 16 burchakdan iborat. Nihoyat bu 16 burchakli imoratdan 15 metr masofada halqa tarzidagi tashqi mudofaa devori joylashgan. Tashqi devorda har 18-26 metr masofada burjlar joylashganligi aniqlangan. Bu devor ham xomg’isht va paxsadan qilinib, qalinligi 1 metrdan oshiqroq va balandligi 7 mertga yaqin bo‘lgan. Qo‘yqirilgan qal’a ko‘pdan beri olimlarning o‘ziga jalb etib kelgan. M.S.Bulatov uni o‘ziga xos observatoriya

[24] Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 1995.- В. 18.

bo‘lganligi mumkinligini taxmin qiladi. Ayrim ma’lumotlarda yodgorlikda astronomik kuzatishlar olib borilgan degan qarashlar keltirilgan. Keyingi tarixiy davrda mazkur joy qabristonga aylangan (loydan yasalgan ossuariylar ko‘plab topilgan). Qo‘yqirilgan qal’a Qadimgi Misr, Gretsiya va ba’zi bir boshqa yerlardagi kabi muqaddas shahar – ehrom vazifasini bajarganligi ehtimoldan xoli emas. Bu yerdan oromiy xatiga asoslangan qadimgi Xorazm yozuvi topilgan.

Mil.av. IV – milodiy III asrlarga oid bo‘lgan shaharlar ko‘chmanchilar bilan chegara hududlarida, daryo bo‘ylarida barpo etilgan bo‘lib, mukammal mudofaa tizimlariga ega. Antik davrda shaharlar mustaqil shahar-davlatlar sifatida mavjud bo‘lib, harbiy chegara va iqtisodiy madaniy markazlar bo‘lgan.

Mazkur davrga tegishli Eski Xovos xarobasi o‘zining qadimiyligi bilan diqqatga sazovordir. Yodgorlik Sirdaryo viloyatining, qolaversa, butun Mirzacho‘l vohasining eng ko‘hna yodgorligidir. Bundan 30 yil oldin hozirda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining xodimi, tajribali olim A.Gritsina Xovos xarobalariga ilk bor mutaxassis sifatida e’tibor bergan edi. Xovos tepaligida arxeologik qazilmalar o‘tkazib, unda qadimiy qatlamlar mavjudligini aniqlagan.

Bu davrda ekspeditsiya oldida yodgorliklarning qadimiy joyini aniqlash, uning karvon yo‘llari, mozor va qo‘rg‘onlarni tadqiq etishi kabi o‘ta muhim vazifalar turardi. Faqat 80- yillarning oxiriga kelib, Xovosning mahobatli xarobalariga navbat keladi.

1988-1989 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining Sirdaryo arxeologik guruxi ilk bor eski Xovos xarobalarida qazilma ishlarini olib borganligi natijasida yodgorlikning eng pastki qatlamlaridan olingan arxeologik manbalar manzilgohining kamida milodgacha va milodiy I asrlarda paydo bo‘lganligini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, eski Xovos kamida ikki ming yillik tarixiga ega ekanligi va butun Sirdaryo viloyati hududidagi shahar xarobasi qoldig‘i ekanligi isbotlangan.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 23 yilligi arafasida taniqli arxeolog olim A.Gritsina rahbarligida beshinchi marotaba ekspeditsiya olib borildi

va bir necha kun ichida tepalikdan anchagina noyob topilmalar: turli sopol idishlar, ro‘zg‘or buyumlar topilib, o‘rganib chiqilgan. Bular tepalik o‘rnidagi qadim shaharda eramizdan oldingi tahminan IV-V asrlarda yashagan odamlarga tegishli buyumlar ekanligini aniqlangan.

Keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar paytida qurilish qoldiqlari va ko‘plab arxeologik topilmalar ochib o‘rganilgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti xodimlari bu jarayonda mingdan ortiq turli qadimiy ashyolar topishga erishganlar. Eramizdan avvalgi III-II asrga oid ma’buda – Anaxita haykalchasi, X-XI asrlarga oid tangalar, XII asrga oid humo qushi tasviri tushirilgan chiroq dastasi, X-XXI asrlarga taalluqli maxsus simob idishchasi, VII-VIII asrlarga oid idishlarda qo‘llanilgan muhrlar, xurmacha-ko‘zalar, naqshli idish-tovoq bo‘laklari, qopqoqlar hamda balandligi kamida bug‘doy solishga mo‘ljallangan 1 metrli xumlar ana shular jumlasidandir. Tarix fanlari nomzodi Aleksey Gritsina rahbarligida Xovos arxeologik ekspeditsiyasi a’zolari ayni jaziramada bir yarim oy davomida ko‘hna Xovos yodgorligida qazish ishlarini olib bordilar. Xonadonlardan biridagi ketma-ket terilgan yirik va baland 4 ta xum alohida e’tiborga molik bo‘lib, ular deyarli butun va aniq davrga oid. Bir xo‘jalikka tegishli. Ularda 100 kilogrammgacha bug‘doy, yog‘ va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari saqlangan[1].

Xo‘jalikdagi yana bir muhim topilma miloddan avvalgi III-II asrlarga oid sandal o‘rni, o‘rtasi chuqur, loy bilan mustahkam suvalgan. Ya’ni, temirchi yo kulol usta oilasi bu yerda ishlash bilan birga istiqomat ham qilgan bo‘lishi mumkin. O‘tgan yil hisobidan bir yarim oy davom etgan ekspeditsiyaning o‘zida topilgan buyumlarni kuzata turib ajdodlarimiz zakovati, yuksak madaniyati va ma’naviyati bilan chindan ham umuminsoniy tamaddunga katta hissa qo‘shganiga amin bo‘lish mumkin.

Atigi bir yarim oylik ekspeditsiya davomida ikkita kichik obe’ktlardan qariyb 500 taga yaqin arxeologik topilma ishlari qazib o‘rganilgan. Bularning samarasida

[1] Turgunova F.N. Sirdaryo viloyati eski Xovos yodgorligida o’lkashunoslik muzeyi. // Muzeylarning yangi konsepsiyasi: muzeylar faoliyatida IT texnologiyalar integratsiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent. 2024 y. 223-226 bet.

A. Gritsina va M. Sodiqovlarning “ Eski Xovos va unga qo‘shni hududlar qadim va o‘rta asrlarda” deb nomlangan kitobi chop etildi. Tarixiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki Ustrushonaning qadim va o‘rta asrlardagi shahar madaniyati masalalari bo‘yicha Negmatov N.N., Kotolenko G.A., Belyaeva T.V., Xmelnskiy S.G., Gritsina A.A., To‘ychiboev B.B, Ustrushona shaharsozligining ilk va rivojlangan o‘rta asrlardagi o‘ziga xos xususiyatlari borasida, Po‘latov O‘.P, Berdimurodov A.E, Suyunov S.S, Sverchkov L.M, Omonjulov T.O o‘lkaning so‘nggi o‘rta asrlar va xonliklar zamonidagi shaharlar tarixi, aholining xo‘jaligi va turmush tarzi muammolari ustida Muxtorov A. M, Pardaev A.X, Erbutaeva U.S, Mirzaeva N.J, Alibekov U, Mirzaliev U. singari mutaxassislar tadqiqot o‘tkazishgan.

A.A.Giritsina, V.I.Nabokov, Ye.F.Buryakov kabi arxeologlar tadqiqot ishlarini olib borishdi. Tadqiqot natijalari ushbu manzilgohning kamida milodgacha I va milodiy I asrlarda paydo bo‘lganligi haqida xulosa chiqarish imkonini berdi.

2003-yilda arxeologik tadqiqotlar eski Xovos tepaligida A.A.Gritsina, I.D.Ivaniskiy yosh arxeolog K.Raximov, M.Sodiqov, B.Azimovlar tomonidan o‘rganildi. 2004-yilda ish davom ettirilib guruh ishiga tajribali mutaxasis G.I. Bogomolov va taniqli arxeolog Baxtigul Abdulgazievalar ham jalb etilgan edi. Guruh ishida arxitektor Tatyana Alikseevna Gritsina ishtirok etib, arxeologik qazilma ishlarini zarur chizmalar bilan ta’minlab turgan.

Eski Xovos tepaligi 10-14 metrgacha qazib o‘rganilgan, ko‘hna tepalikdan boy topilmalar: istehkom qoldiqlari hunarmandchilikka oid topilmalar, Baqtriya va So‘g‘d yodgorliklaridan qolishmaydi.

Qadimgi eski Xovos tepaligidan topilgan arxeologik topilmalar Baqtriya va So‘g‘d topilmalaridan qolishmaydigan kulolchilik buyumlari, yozma ma’lumotlar bo‘lmasada, Xovosning antik davrdayoq shahar sifatida shakllanganligi to‘g‘risida xulosalar keltirib o‘tilgan. Topilgan arxeologik manbalardan shuni ko‘rish mumkinki, eski Xovos kamida ikki ming yillik tarixga ega ekanligini isbotlovchi ashiyoviy dalillar qazishma ishlarida namoyon bo‘lgan. Eramizdan avvalgi III-II asrga oid ma’buda ilk marotaba (ayol qiyofasida) topib o‘rganilgan. O‘zbekistonning shimoliy tumanlaridan Ilohiy ayol ramzi tushirilgan ma’buda

Anaxita yoki Nananing sopoldan ishlangan va tasviri topilgan. Shundan xam ko‘rinib turibdiki, Sirdaryo viloyati Xovos tumanidagi bu tepalik madaniy meros obe’ktlarini saralari qatoridan joy oladi va keyingi yillar davomida o‘rganilib tahlil qilinadi.

Arxeologik tadqiqotlar deyarli har 2-3 yil oralig‘ida o‘tkazilgan bo‘lib, 2016-yilda ekspeditsiya uyushtirilib, Xovos yodgorligini shaxriston qismida qazishma ishlari amalga oshirilgan. Qazishma ishlari A. K.Rahimov tomonidan olib borilgan. Tadqiqot natijasida Xovos arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan qazish ishlari moboynida ko‘plab moddiy-madaniyat namunalari topilgan bo‘lib, an’anaviy tarzda topilmalarning asosiy qismini kulolchilik idishlari tashkil qiladi. Yodgorlikning janubiy tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi bu yerda ya’ni, IX-XI yaruslar oralig‘ida ilk o‘rta asrlarga oid to‘rtta qurilish davri aniqlandi. Shu bilan birga bir qator kulolchilik buyumlari topilib o‘rganilgan va Sirdaryo viloyati madaniyati va tarixi muzeyga taqdim etilgan.

Mazkur davrga tegishli yana bir yodgorliklardan biri Yonboshqal’a – To‘rtko‘l manzilgohidan topilgan bo‘lib, rejaga ko‘ra to‘g‘riburchak ko‘rinishda (200x170 m. 3,4 ga) to‘rt tomoni 2 qatorli devorlar bilan aylantirilgan. Oldiniga paxsadan keyinchalik esa to‘rt tomoni teng xomg’ishtdan tiklangan (40x40x10 sm). Devorlarining ostki qismi qalinligi – 5 m, balandligi 5-10 metrdir. Darvozasi to‘g‘ri burchakli bir qator aylanma yo‘ldan iborat yo‘lakka ega bo‘lib, uning kengligi – 5 metr bo‘lgan. Devorlari va darvozalari devorida ko’nguralar yo‘q, ammo shaxmat usulida joylashgan nayza o‘qi uchli shinaklar mavjud bo‘lib, ular oralig‘idagi masofa maydoni 1,20-1,84 metr, ichki tomonida kengligi 0,18-0,12 sm, tashqi tomonida esa 0,30-0,40 sm. Devorlari burchagida 3 ta shinak bo‘lib, turli tomonga yo‘nalib, ko’ngura vazifasini bajargan. Quldorlik davridagi hayot tarzini o‘rganishda muhim hisoblangan shaharcha Tuproqqal’a (Qadimgi Xorazm milodiy I-IV asr) hisoblanadi. Shimoldan janubga qarab to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida cho‘zilgan shaharning tomonlari 500x350 m. Mustahkam devorlari qadimiy xomg’ishtdan ishlangan va shimoli-g‘arbiy

burchagida 180x180 metrlik sahnda uchta to‘rtburchak minorali shahar arki joylashgan. Ark yonidagi maydonda bir-biri bilan ulangan ijtimoiy harakterga ega bo‘lgan qator imoratlar barpo etilgan. Ulardan biri o‘rtasida ustun joylashgan peshtoqqa ega. Markazda maydonning asosiy binosi – olovxona joylashgan. Undan esa shahar darvozasiga qarab markaziy ko‘cha o‘tgan. Bu ko‘chadan o‘ng va so‘l tomonga ketgan kichik ko‘chalar har biri 200 tagacha xonani birlashtiruvchi 8-10 tacha turarjoy kvartallarini ajratib turadi.

Tuproqqal’aning umumiy maydoni – 17 ga bo‘lib, yodgorlikning barpo etilish tarixi borasida turli qarashlar bor. Yodgorlik mil.av. IV asrda qurilgan deb taxmin qilinadi. Vazamar davrida Tuproqqal’a Xorazmshohlarning yozgi qarorgohi, poytaxt esa Akshaxon qal’asi bo‘lgan. Shahar darvozasi janub tomonda joylashib, to‘g‘riburchakli labirint[26] bilan mustahkamlangan, ko’nguraga ega emas. Darvozadan qarshi tomonda kengligi 10 m ko‘cha o‘tgan bo‘lib, ichki qismini 2 mahallaga ajratilgan uy-joylar zich holatda barpo etilgan. Shaharning shimoliy-g‘arbiy qismida saroy mavjud, uchta ko’ngura bilan mustahkamlangan. Saroyning umumiy maydoni 6,5 ming m^2 ga teng. Saroyda ko‘pgina “Katta zallar” topilgan bo‘lib, ularning devorlarida turli haykal tasvirlari ishlangan, o‘rganilgan buyumlar asosida uy xonalari “Podsho zali”, “Askar zali”, “Bug‘u zali” nomi bilan ataladi[27].

Olimlarning doimo diqqat markazida bo‘lgan Ichanqal’a yodgorligi to‘g‘riburchak shaklda, umumiy maydoni 26 ga teng. O‘tmishda ikki qatorli himoya devor bilan o‘ralgan. U esa o‘z o‘rnida aylana shakldagi ko’nguralar bilan o‘ralgan. Ular o‘rtasidagi oraliq – 30 metrni tashkil etadi. Shaharning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixini o‘rganish maqsadida olim, arxeolog M.Mambetullayev yodgorlikning ko‘pgina joylarida arxeologik qazishmalarini olib bordi, natijada o‘nta barpo etilish davri mavjudligi aniqlandi.

Bu davrga tegishli bo‘lgan ko‘zga ko‘ringan yodgorliklardan yana biri bu Xazorasp sanaladi. Xorazm vohasining janubiy darvozasi hisoblangan eng ko‘hna

[26] Labirint (yun. labyrinthos) — xonalari behad ko‘p, yo‘laklari odamni adashtiruvchi bino. https://uz.wikipedia. Org /wiki/Labirint

[27] http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/242

shaharlardan biri bo‘lgan yodgorlik tekislikda barpo etilgan. Yodgorlik tarhi to‘rt tomoni teng (10,8 ga) bo‘lib, o‘tmishda ikki qatorli devor bilan o‘ralgan. Devorlar orasida kengligi 2,10 metr sanalgan yo‘lak mavjud. Shaharning janubiy-sharqiy burchagida ark barpo etilgan bo‘lib, uning hajmi 40x40 metrdan iborat. Uning bunyod etilish tarixi borasida yagona ilmiy qarash haligacha mavjud emas, bunga arxeologik qazishmalarning eng qadimiy madaniy qatlamgacha olib borilmaganligi sanaladi.

1958–1960-yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi jamoalari, 1997, 2000, 2003-yillarda Xorazm Ma’mun akademiyasining arxeologiya guruhi jamoalari Xazoraspning bir qator joylarida tadqiqot ishlari olib borishganiga qaramasdan mazkur tadqiqotlar tugallanmay qolib ketgan. Yodgorlikda devor va ko’nguralar mavjud bo‘lib, ularning balandligi turli xil, ya’ni 5-14 metrni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, bu davrda me‘morchilik san‘atida avvalgidek asosan xomg’isht asosiy qurilish materiali sifatida ishlatilgan. Shu bilan birga qumtosh, marmar va pishiq g‘isht ishlatila boshlandi, devor pardoziga mahsus qorishmalar, albastrli qoplamalar kirib kela boshladi. Ayniqsa grek me‘morchilik san‘ati ta‘sirida qurilgan saroylar, ibodatxonalar me‘morchilikning rivojlanish jarayonida muhim omillardan biri bo‘ldi.

Savol va topshiriqlar

1. Antik davr me’morchiligining o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
2. Antik davrda shaharsozlik qanday jarayonlarga bog‘liq holda rivojlandi?
3. Qadimgi Xorazm va Janubiy Turkmaniston hududidagi me’morchilik obidalari haqida so‘zlab bering.
4. Baqtriya shaharsozligi: Xolchayon, Ayrtom, Dalvarzintepa, Kampirtepa me’morchiligi farqli va o‘xshash jihatlari nimadan iborat?
5. Xorazmdagi shaharlar tuzilishi qanday ko‘rinishda bo‘lgan?

4-ma’ruza. O‘rta asr O‘zbekiston me’morligi

Reja:

1. O‘zbekistonning ilk feodalizm davri me’morchiligi
2. Samarqand hududining islom me’morchiligidagi ahamiyati
3. Buxoro hududining islom me’morchiligida tutgan o‘rni

Kalit so‘zlar: *kuhandiz, rabod, qo‘rg‘on, ostadon, Buxorxudodlar, Ixshidlar, Somoniylar maqbarasi, Varaxsha, Afrosiyob*

Manbalarda qayd etilishiga ko‘ra ilk o‘rta asrlardagi O‘rta Osiyo shaharlari uch qismdan iborat bo‘lgan. Ular eski shahar arki (kuhandiz[28]) – hukmdor qarorgohi bo‘lsa, ikkinchisi shahriston, uchinchi qism rabod[29] deb atalgan va u shaharning atrofini egallagan[30].

VI asrda Xorazmda va xususan uning poytaxti Ko‘hna Urganchda – Afrigidlar, Buxoroda - buxorxudodlar, Samarqandda – ixshidlar hukm surishgan. Shaharlar atrofida alohida feodal qasrlar – ko‘shklar mavjud bo‘lgan. Ular baland platforma ustiga kvadrat sahnli (60x60 m.) aniq geometrik tarzga ega bo‘lgan ikki qavatli ko‘rinishda bo‘lgan.

VI - VIII asrlarning boshlarida ko‘shk, qo‘rg‘onlar, shaharlarda ibodatxona, saroylar barpo etilgan. Ushbu davrda imoratlarni bezashga alohida e’tibor qaratilgan. Qurilish materiallari asosan xomg’isht bo‘lib, chorsi (kvadrat) shaklda va tomonlari 1:2 mutanosiblikdagi to‘g‘ri to‘rtburchakli shaklda bo‘lgan. Avvalgi an’analarning davomi tarzida paxsa, guvala ham ishlatilgan. Tom yopishda katta xonalarda 4 yog‘och ustunli “chor-hari” sistemasi, hamda g‘isht ustunlarga tayangan ko‘p gumbazli tom konstruksiyalari qo‘llanilgan.

Buxoro, Samarqand kabi shaharlardan tashqari ilk o‘rta asrda O‘rta Osiyoda hamda O’rta Osiyoda yana talaygina shaharlar mavjud bo‘lganki, ular qadimiy yozma manbalar, ilmiy ishlar va arxeologik qazishmalardan ma’lumdir.

Bu shaharlar sirasiga Eski Termiz, Poykent, Varaxsha, Kushaniya, Nur (eski

[28] Kuhandiz — ko‘hna, diz-qal’a, qasr, saroy, ark. Qal’aband maxsus istehkom. Asosan, qal’aning tarkibida saqlangan qadimiy qismi. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kuhandiz

[29] Rabod — O’rta Osiyo o‘rta asr shaharlarining savdo va hunarmandchilik do‘konlari, mahallalari joylashgan qismi. https://uz.wikipedia.org/wiki/Rabod

[30] Xasanova Z.D. O’rta Osiyo me’morchilik san’ati. O‘quv uslubiy majmua. – Samarqand.: 2021, - B 22.

Nur-ota qal’asi), Panjikent, Arbinjon, Rivdod, Ishtixon, Binkent, Yer qo‘rg‘on (Qarshi yaqinida), Xusrav-qal’a (Turkmaniston)da va bugungi kunda Kofir-qal’a, Quldortepa, Tali Barzu, Xayrobod tepa kabi nomlar bilan ataladigan haroba tepaliklarga aylangan qator shaharlar kiradi.

Bu shaharlarda o‘sha davrda qurilgan ark (kuhandiz)lari o‘zining muhtashamligi bilan ajralib turadi. Arklar odatda tuproq va loydan bunyod etilgan tepaliklarda qurilib, atrofi mudofaa inshooti sifatida qo‘llanilgan chuqur chohlar bilan o‘rab olingan tarzda qurilgan. So‘ng mustahkam poydevor ustiga o‘lchamlari 35-60x22-44x8-12 santimetrga ega bo‘lgan chorsi (kvadrat) va 1:2 nisbatdagi uzunchoq xomg’isht hamda lentasimon yoki 60-80 santimetr o‘lchamdagi paxsa bloklaridan qasr binosi qurilgan. Varaxsha, Xusrav qal’a va Afrosiyob qasrlarini o‘rganish davomida inshootlar yon devorlari bir-biriga uzluksiz ulanib ketgan silindrsimon ustunlardan iboratligini ko‘rsatadi. Hozirgi Turkmaniston hamda Qoraqalpog‘iston hududlarida haroba holida saqlanib qolgan qasr qoldiqlari bu me’moriy uslubning o‘sha davrga xosligini ko‘rsatadi.

Turarjoy binolarini o‘rtada qurilgan katta kvadrat tarzidagi xona va atrofi qator uzunchoq va to‘rtburchak xonalar bilan o‘rab olingan komplekslar tashkil etadi. Ularning ba’zilari ensizroq bo‘lsa, ba’zi kvadrat xonalar gumbaz bilan berkitilgan. Kattaroqlari esa xona o‘rtasidagi joyga to‘rt ustun joylashtirilib, yog‘och to‘sinlar bilan yopilgan. Ushbu katta xonalar markazi kichkina to‘rtburchak tarzida ochiq qoldirilgan. Bu esa o‘z navbatida XIX-XX asrdagi Xiva hovlilarining ko‘rinishini eslatadi. V-VIII asrda ham shu katta xonalar mehmonxona va hovli rolini bajarganligi ehtimoldan uzoq emas.

O’rta Osiyo da asosan ikki xil din - otashparastlik hamda buddizm hukmronlik qilgan bo‘lsada, yana boshqa qator diniy mazhablar bo‘lganligi ham ma’lum. Shuning uchun ham turli xil ibodatxonalar barpo etilganligi aniqlangan. Lekin ularning orasida asosiy ko‘pchilikni tashkil etadiganlari otashxonalar va budda ehromlari bo‘lgan. Otashxonalardan chortoq va Hindistonda uchraydigan

turarjoylarga mansub mandala[31] tipidagi kichikroq muqaddas olov mehroblari qurilgan. Budda ibodatxonalarining minorasimon va oldi ayvonga qaragan ichma-ich joylashgan xonalardan iborat turlari bu davrda keng tarqalgan. Bu ibodatxonalar oltindan ishlangan haykallar hamda qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangani haqida juda ko‘plab tarixchilar ma’lumot berganlar. Bundan tashqari arab jug‘rofiyachisi Ibn Havkal o‘z ma’lumotlarida Afrosiyob maydonlarining juda chiroyli ishlangan har xil afsonaviy ko‘rinishdagi haykallar bilan bezatilganligi va Narshaxiyning Buxoroda sanamlar haykallari sotiladigan shahar bozori bo‘lganligi haqida yozib qoldirgan.

Otashparastlarda suv, havo, yer va osmon (quyosh) muqaddas hisoblanganligi tufayli ular murdaning suyaklarini alohida ajratib, maxsus idishlar – ostadonlarga solib alohida xonalarga saqlashgan[32]. Bu xonalar dahma (naus) deyiladi. Yana mug‘xona deb ataluvchi dahmalar ham ma’lum.

Bundan tashqari V-VIII asrlarga oid qator qishloq inshootlari ma’lum. Ularning asosiy qismi xomg’isht, paxsa, yog‘och va ba’zilari tog‘ toshidan qurilgan. Pishiq g‘isht (garchi miloddan oldin ma’lum bo‘lgan bo‘lsa-da) devorlarni tiklashda ishlatilmagan. U faqat ba’zi qasr va otashxonalarning polini qoplashda ishlatilgan. Xona devorlari mayin somonshuvoq va maxsus ganch pardozi bilan sayqallangan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ilk o‘rta asrdagi binolar juda ham hashamatli tarzda bezatilgan. Bunga jumladan Afrosiyob Panjikent, Varaxsha, Bolaliktepa, Yer qo‘rg‘on va boshqa shaharchalardan topilgan devoriy rasmlar guvohlik bersa, ikkinchi tomondan maxsus loydan ishlangan naqshlar va ko‘plab topilgan yog‘och o‘ymakorligi namunalari misol bo‘la oladi. Bu davrda O‘rta Osiyoda ilk feodalizm shakllanib, madaniy hayot barq urib kelayotgan edi. Lekin VII asr oxiri va VIII asr boshlaridagi arablar istilosi taraqqiyot suratiga o‘zining sezilarli ta’sirini o‘tkazdi.

Arablar o‘zlari istilo qilgan hududlardagi aholi ongiga Islom dinini tezroq singdirish maqsadida bo‘yin tovlagan odamlarni islomni inkor etgan

[31] Mandala - sanskrit tilidan kelib chiqqan so‘z bo‘lib “aylana” degan ma’noni anglatadi. Vizual elementlarning muvozanati orqali olamning birligi, uyg‘unligi va cheksizligini ifodalaydi. https://uz.warbletoncouncil.org/mandala

[32] Ossuariy, ostadon (lot. os — suyak) — zardushtiylik diniga mansub xalqlarda marhumning suyagi solingan sopol, tosh yoki ganch idish, suyakdon. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ossuariy

taraqqiyparvarlarni o‘ldirib, otashparastlik (zardushtiy), budda dini, nasroniylik va boshqa diniy mazhablarga xos imoratlarni buzib tashlaydilar, kitoblarni yoqib yuboradilar. Varaxsha, Afrosiyob, Panjikent va boshqa shaharlardagi devoriy rasmlarga har xil nopok narsalarni chaplab, suratlarni buzib, ko‘z va bosh tasvirlani qirib, unga “Alloh”, “Muhammad” kalimalarini o‘yib yozganliklari buning yana bir isbotidir. Shundan so‘ng mahalliy xalq to yangi dinni butkul qabul etib, madaniy hayotni yana qaytadan tiklab, obod shahar va qishloqlarni bunyod etgunicha ko‘plab o‘n yilliklar kechishiga to‘g‘ri keldi. Arab bosqinchilariga qarshi ketma-ket hali Buxoroda, hali Samarqandda, Xorazmda, Naxshab (Qarshi) va boshqa ko‘plab shaharlarda ketma-ket qo‘zg‘olonlar bo‘lib turgan. Bularning ichida eng katta noroziliklar Muqanna va keyinroq Rofye ibn Lays boshchiligidagi xalq harakatlari hisoblanadi. Rofye ibn Lays qo‘zg‘oloni[33] Movarounnahr hayotida tub o‘zgarish sodir bo‘lishiga olib keldi. Chunonchi ketma-ket ko‘tarilib turgan norozilik qo‘zg‘olonlarini arablar o‘zining kuchi bilan bartaraf etolmasliklarini Hali fa ar-Rashidning o‘g‘li Hali fa Ma’mun tushunib yetadi. U Rofye ibn Lays qo‘zg‘olonini bostirish uchun Balx yaqinidan chiqqan va zardushtiylik dinining tarafdorlari bo‘lgan somoniylarga murojaat qiladi. Rofye tez orada Somoniylar bilan sulh to‘zishga majbur bo‘ladi. Qizig‘i shundaki, u Somoniylar halifaligiga madad beradiyu o‘zi islomni qabul qilmaydi. Ammo o‘g‘illari va nevaralariga islom dinini qabul ettiradi. Shunday qilib IX asrning birinchi choragida O‘rta Osiyo somoniylar amirligi tasarrufiga o‘tadi va bu davrda madaniy taraqqiyot asta-sekinlik bilan yuksala borib markazlashgan davlat to‘zilishiga sharoit yuzaga kela boshlaydi.

Qurilish texnikasi takomillashgan inshootlar IX - X asrlarda asosan pishiq g‘ishtdan qurilgan. Mahobatli imoratlarda peshtoq gumbaz konstruksiyalari keng tarqalgan. Islom dini tirik mavjudotni tasvirlashni man etganligi tasviriy san’atning o‘sishiga keng imkon bermagan, ammo naqqoshlik rivoj topa boshlagan. Masjid, maqbara, saroy, madrasalar naqsh bilan bezatila boshlangan.

Ushbu davrdan boshlab 400 yil mobaynida (IX asr boshidan to XIII asr

[33] https://uz.wikipedia.org/wiki/Rofe_ibn_Lays_qo%CA%BBzg%CA%BBoloni

boshigacha), ya’ni mo‘g‘illar istilosi davrigacha, garchi ichki nizolar tez-tez yuz berib turgan bo‘lsa ham, Movarounnahrda fan va madaniyatning yuksalish surati o‘sib, dunyo fan va taraqqiyotiga ma’lum darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan Muhammad Muso al- Xorazmiy (790-847-yilla), Abu Bakr al-Roziy (864-925-yillar) Abu Nasr al-Forobiy (872-950-yillar) va Abu Rayxon Beruniy (973-1048-yillar) hamda boshqa qator olimlar, shoirlar va fozillarni berdi. Shuni hisobga olib olmon olimi Adam Mets bu davrni O‘rta Osiyoning Uyg‘onish davri deb nomlagan[34].

Shaharsozlikda yirik shaharlarning deyarli barchasi uch qismdan iborat bo‘lgan. Bular, har biri qalin mudofaa devorlari bilan o‘ralgan: shaharning eng qadimgi qismi bo‘lmish va Ark deb atalmish qal’asi; qadimgi shaharning sahni-shahriston va shaharning atrofii (tevarak-atrofi) - raboddir. Ushbu davrda O‘zbekiston hududidagi shaharlardan yiriklari - Samarqand, Buxoro, Termiz va boshqalarni keltirish mumkin.

Aleksandr Makedonskiydan keyin Movarounnahrning boshqa shaharlari qatori Samarqand ham Salavkiylar davlati ixtiyoriga o‘tgan. So‘ngra u grek-baqtriyalar podshohligi tarkibida faoliyat ko‘rsatgan. V asrda bu yerni Eftalidlar sulolasi istilo etadi. Keyingi asrda esa Zarafshon vodiysi samarqandlik hukmronlar qo‘liga o‘tgan[35].

VI - VII asrlarga kelib feodal munosabatlarining qayta rivojlanishi bilan Samarqand shahri hayotida yana jonlanish yuz bergan. Arab istilosi davrida me’morchilik va qurilish ishlari ancha susaygan. VII asrning oxiri - VIII asrning boshlarida Hutayba ibn Muslim boshchiligidagi arab qo‘shinlari Samarqandni ham egallab oladilar. Shundan so‘ng Samarqand shahri mahalliy Somoniylar (poytaxti Buxoroda bo‘lgan) so‘ngra Qoraxoniylar ixtiyoriga o‘tadi. Bu davr me’morchiligiga oid Samarqaddagi me’moriy obidalar bizgacha deyarli yetib kelmagan.

IX asrdan boshlab shahar qayta shakllana boshlagan. Hovlilar, do‘konlar, karvonsaroylar, masjidlar qurilishi jadal suratlar bilan rivojlangan. Bu davrda

[34] Мец Адам. Мусульманский Ренессанс. – М.:ВиМ, 1966. – 76 с.
[35] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B. 110.

Samarqand 4 ga bo‘lingan. Samarqandning 12 darvozasi bo‘lgan.

Samarqand shahri qal’a va shahristonining sahni 65 gektar, rabodi bilan esa 200 gektar maydonni egallagan. Rabod qalin paxsa devor bilan o‘ralgan va uning uzunligi 6 km.dan ziyod bo‘lgan.

Samarqand shahrining ko‘rkam yodgorliklaridan biri Afrosiyob shaharchasidir. Ma’lumotlarda u miloddan avvalgi V - VII asrlarda shakllangan deb aytiladi. Miloddan avvalgi VI va milodiy XIII asrlarda topilgan qazilmalar Samarqand shahri to‘g‘risida to‘la moddiy ma’lumotlar beradi. So‘g‘d davlatining qadimiv shaharlari safidan o‘rin olgan Samarqand dastlab Turon podshosining epik qahramoni Afrosiyob nomini olgan. Bu davrda uning maydoni 228,9 ga teng bo‘lgan. Shaharning shakllanishini birinchi bosqichi topilgan shahar devorlari bilan ko‘rgazma qilinadi. Eramizdan avvalgi V - VII asrlardayoq tiklangan, 80 m uzunlikdagi qoldiqlari topilib tozalangan, balandligi 13 m ni tashkil etgan devor mahobatli g‘ishtdan barpo etilgan. Shahar arki atrofida turarjoy kvartallari, ibodatxonalar, suv havzalari va bozor maydonlari murakkab tartibda o‘tkazilgan ko‘cha va yo‘laklar, kanallar bilan chirmashib ketgan. Hozirgi davrda Afrosiyobning VII - XVIII asrlarda qurilgan kvartali ko‘proq o‘rganilgan. Samarqandlik iqtidorli rassomlar tomonidan yaratilgan jahonga ma’lum bo‘lgan devoriy tasvirlar topilgan[36].

Bu kvartalning ba’zi joylari XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi arxeologik qazishmalar vaqtida ochilgan bo‘lsada, 1960-yillarida Afrosiyob bo‘ylab Samarqandni uning shimoliy hududida joylashgan aholi punktlar bilan bog‘lash maqsadida avtomobil yo‘li qurilishi darajasidagi tasodif katta ro‘l o‘ynaydi. Jumladan buldozer yer tekislash ishlarini olib borayotganida yer ostidan bir necha katta rangli devor bo‘laklarini surib chiqaradi. Mutaxassislar bu topilmalarni aniqlaganlaridan so‘ng qurilish ishlari to‘xtatilib, arxeologik qazishmalar keng ko‘lamda avj oldirildi. Natijada bir necha xonalar harobalari ochiladi, ulardan ba’zilarining devorlarida rangli bo‘yoqlar - tempera (tuxum sarig‘iga rangdor

[36] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – B 115-116.

mineral upasi aralashtirib tayyorlanadi) bilan ishlangan devoriy rasmlar topildi.

1965-1968-yillarda yodgorlikning ikkinchi va uchinchi halqasi himoya devorlari orasida topilgan. Devordagi surat ushbu yodgorlikning markaziy qismida joylashgan bir necha xonadan iborat imoratning mehmonxonasidan topilgan[37].

Imorat uncha katta bo‘lmagan maydonchaning g‘arbiy tomonidan topilgan. Kirish qismi yomon holatda saqlanib qolganiga qaramasdan bir qismi bugungi kunga qadar mavjuddir. Uning ayvon qismidagi yo‘l ko‘ndalang joylashgan yo‘lak tarzida dahlizga olib kiradi. Dahliz orqali esa kvadrat tarhli mehmonxonaga o‘tiladi. Mehmonxonaning to‘rt burchagida to‘rt ustunli zal saqlanib qolgan. Ichki devor bilan o‘ralgan o‘tirishga mo‘ljallangan yaxlit supa ishlangan. Devorlar hamda supa xomg’isht va paxsadan bunyod etilgan. Kiraverishda, ro‘parada taxtga o‘xshash o‘rindiq joylashgan, supaning o‘sha qismi bo‘rtib turganligi aniqlangan. Xona devorlaridagi rasmlarda shoh ayonlari, Chag‘oniyon, Tohoriston, Sharqiy Turkiston, Shosh, Chinu Mochin, Hindiston va boshqa mamlakatlardan kelgan elchilar, olib kelingan ot-ulov, sovg‘alar va ov sahnasi ifodalangan[38]. Suratlar nihoyatda nafis ishlangan yuqori did bilan ziynatlanib bo‘yalgan.

Afrosiyobdagi somoniylar qasrining bir qismi hisoblanuvchi binoning old tomoni yog‘och ustunli, peshayvonli bo‘lib, o‘rtada gumbaz bilan yopilgan katta xona va uning ikki yonida yana ikki qo‘shimcha xona bo‘lgan. Asosiy zal ohaktoshli ganchning ichiga tolasimon o‘simliklar qo‘shilgan materialdan juda nafis o‘ymakorlik usulida hashamdor qilib ishlangan.

Bu davr me’morchiligi o‘ziga xos tarzda bosqichma-bosqich rivojlanib boradi. Me’morchilikda o‘ziga xos peshtoqli maqbaralar keng quriladi. Ulardan Arab-Ota maqbarasini bu jihatdan dastlabki namuna deb qarash mumkin. Fasadi shimoliy-sharqqa qaragan maqbara yagona kvadrat xonani (5,60×5,60 m) o‘z ichiga oladi. Tashqi o‘lchami 8×8,70 m. Qurilish materiali pishgan g‘isht bo‘lib, 23×23,5×4 smdan iborat[39]. Ushbu yodgorlikni ko‘pgina olimlar 977-78-yillarda maqbara

[37] Xasanova Z.D. O’rta Osiyo me’morchilik san’ati. O‘quv uslubiy majmua. – Samarqand.: 2021, - B 23.
[38] Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Ташкент.: Фан, 1975. – С. 46.
[39] Пугаченкова Г.А. Искусство Зодчих Узбекистана. Мавзолей Араб-Ата (из истории архитектуры Мавераннахра IX-X вв). – Тошкент: Zamon-Press-Info, 2021. – С 14.

tarzida barpo etilgan deb hisoblashsa, P. Zohidov yodgorlik keyinchalik maqbaraga aylantirilgan, aslida esa somoniylar qasrlaridan birining saqlanib qolgan qismi, deb hisoblagan.



Arab-Ota maqbarasi. X asr



Arab-Ota maqbarasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Buxoro shahrining shahristoni 30-35 gektar, qolgan o‘rtacha va yirik shaharlar esa taxminan 15 gektar bo‘lgan. Shaharlar asosan daryo va kanallar bo‘yida joylashib ular suvi bilan ta’minlangan. Ularning kelajakdagi rivojlanishi ushbu suv havzalari tomonga yo‘nalgan. Ta’kidlash joizki, O‘zbekistoning ko‘plab katta va kichik qadimiy shaharlari, va shu jumladan aytib o‘tilgan Samarqand, Buxoro va boshqalarning rivoji qadimgi qatlamlarning ustida bo‘lganligi uchun, V-VIII asrlar qatlamlari keyingilarining tagida qolib ketgan.

IX asr tarixchisi Muhammad Narshaxiyning yozishicha shu davrda (IV asrgacha) Buxoro vohasi ham intensiv o‘zlashtiriladi. Turkistondan ko‘chib kelgan kishilar dastlabki davrda dehqonchilik uchun noqulay hisoblangan yerlarni o‘zlashtirishadi. Dastlab ko‘chib kelganlar chodirlar va o‘tovlarda yashashadi. Bu joylarda suvning ko‘pligi, ov sharoitining yaxshiligi va daraxtzorlar borligi ularni shu yerda o‘troqlashib mustahkam binolar barpo etib, o‘troq holda hayot kechirish tarziga o‘tishlariga sharoit yaratgan. Jumladan bir qancha: Nur, Harkonrud, Vardonasr Taravja, Safna, Isvona kabi aholi punktlari yuzaga keldi. Ular birlashib

o‘zlariga yagona hokim saylashadi. Qadimgi davr tarixidan yaxshi ma’lum bo‘lgan Abruy shunday hokimlardan biri edi.

IX asrda eng ahamiyatli binolar pishiq g‘ishtdan qurilgan. Bu davrdan 2 ta bino saqlanib qolingan. Avvalgi qurilish materiallari konstruksiyalari saqlanib qolingan holda pishiq g‘isht ishlatila boshladi. Pishiq g‘isht bu davrda nihoyatda mustahkam, mayda o‘lchamli, kvadrat 24x24 sm, yoki bir tomoni 24-28 sm bo‘lgan. Qalinligi 3-5sm bo‘lib, qurilish qorishmasi loydan yoki ganchxok (loy va ganch korishmasi), ba’zida suv o‘tkazmaydigan qorishma – “kir” (tarkibi - o‘simlik kuli, loy va ganch) dan iborat bo‘lgan.

IX-X asrda hali koshinlar bo‘lmagan va fasad-tarzlar pishiq g‘ishtni relyef qilgan holda terib bezatilgan. Binolarda relyef qilib taxlangan g‘isht va kesma terrakota ishlatiladi. Tirik jonzotlar tasviri man etilgani uchun islimiy, o‘simliksimon, girih-geometrik, hattotiy-epigrafik o‘yma arab yozuvi ko‘rinishi dagi bezaklar keng tarqala boshladi. Xonalarni yopishda gumbazlar, to‘sin-usto‘nli konstruksiyalar ishlatilgan. Gumbaz tiklashda gumbaz osti xona burchagida ravoqsimon konstruksiya – bag‘allar[40] ishlatililgan. Shu davrdan boshlab islom diniga xos yangi bino turlari qurila boshlaydi. Bular ichida: masjidlarning uchta asosiy turi: madrasa, sufiylik xonaqohlari, maqbara va minoralar katta o‘rin egallagan.

IX-X asrda xomg’isht va paxsadan qurilgan imoratlarning turli holatda saqlanib qolgan harobalari Marv atroflari, Qadimgi Xorazm yerlarida uchraydi. Lekin pishiq g‘ishtdan ishlangan dastlabki imoratlar qatorida Buxoroda saqlanib qolgan Somoniylar maqbarasini misol keltirish mumkin.


Somoniylar taxminan 125-yil hukm surishgan. 875-999-yilgacha Somoniylar davrida Buxoro shahri poytaxt bo‘lib, ilm-fan va madaniyat rivoj topgan. (Ibn Sino, Beruniy va h.k.) IX asrda eng ahamiyatli binolar pishiq g‘ishtdan qurilgan.

Arab istilosidan keyingi me’morchilik va shahar qo‘rilishi dastlabki ravnaqi Ismoil Somoniy (847-906-yillar) nomi bilan bog‘lanadi. Bu davrda poytaxt shahar

[40] Bag‘al — me’moriy bezak. Gumbaz ostidagi shakl. To’g’ri to’rtburchak, murabba targ’li xonalar bag’al yordamida doira shakliga keltiriladi. https://milliycha.uz/bagal/

- Buxoro atrofida Sahroi Kabirdan Tyan-Shangacha, Basra ko‘rfazidan Hindistongacha va Iroqdagi halifalik markazigacha buyuk markazlashgan davlat yuzaga keldi. Uning valiahdlari Marv, Nishopur, Roy, Omul, Kazvin, Isfaxon, Sheroz, Hirot, Balx kabi shaharlarda o‘z hukmronliklarini yuritardilar.

Bizgacha Somoniylar davridan 2 ta bino saqlanib qolgan. Ismoil Somoniy maqbarasi IX-X asrning boshlarida qurilgan. U butunlay pishgan g‘ishtdan tiklanib, sferik gumbaz bilan yopilgan. Mazkur kubsimon bino har tomondan bir xil ko‘rinib, sentrik, ya’ni markazlashgan kompozitsiyaga ega. Uning tashqi o‘lchamlari - 10x10x10m, maqbara ichidagi yagona zal o‘lchami 7x7 m. Binoning to‘rtala fasadi - tarzlari bir xil bo‘lib, ularning har birining markazida ravoqli kirish yasalgan. Tarzlarni katta mahorat va yuqori sifat bilan relyef ko‘rinishida taxlangan och-sariq rangdagi relyef g‘ishtin bezak bezaydi. Bino arxitekturasida islomgacha bo‘lgan eski an’analar va yangi islomiy me’morchilik an’analari uyg‘unlashgan.



Ismoil Somoniy maqbarasi. IX-X asr



Ismoil Somoniy maqbarasi. (hozirgi ko‘rinish)

Ismoil Somoniy maqbarasi markazlashma inshoot sanalib, asosiy hajmini to‘rt devori ko‘tarilgan sari bilinar-bilinmas yengil qiyshaytirilgan kub va fazoviv gumbaz egallaydi. Maqbaraning hamma fasadlari bir xilda ishlangan. Shuningdek, devorlari ichkari va tashqi tarafdan bezakdor qilib yuqori sifatli pishgan g‘ishtdan bejirim qilib ishlangan.

Dekorativ qilib ishlangan g‘isht terimi imoratga yengillik baxsh etadi. Kirish eshigi proyomlari strelka shaklidagi arka ko‘rinishida ishlangan. Ushbu yechimlar, ayniqsa, strelkali arka va gumbazli tom konstruksiyalari keyingi davrda nafaqat Buxoro me’morchiligida, balki butun O’rta Osiyo me’morchiligida ham ko‘p qo‘llanilgan[41]. Bu davrda uzoq vaqtga chidamli konstruksiyalarning egilish qismlarida ham yaxshi ishlaydigan temir betonga o‘xshagan buyum va konstruksiyalar deyarli mavjud bo‘lmagan. Natijada imoratlarning proyomlari ko‘rsatkichli arka shaklida, tom yopmalari esa gumbaz shaklida g‘isht terimidan mustahkam qilib tiklangan. Boshqa tarafdan esa quruq va issiq iqlimli, quyoshning katta radiatsiyasi yerga tushadigan sharoitda gumbazli yechim samarali hisoblangan. Quyosh nuri gumbazli tomning faqat qaysidir bir bo‘lakchasiga tik tushib, o‘sha qisminigina ko‘p isitadi: shu vaqtda gumbazli yopmaning qolgan qismlariga radiatsiya tik tushmaydi va tom ko‘p isimaydi. Gumbazli yopmaning uchinchi jihati shundan iboratki, bunday sirtdan issiqlik tez ketib tom tezda sovuydi. Shamol esganda esa bu jarayon yana ham jadallashadi. Ismoil Somoniy me’morchilik yodgorligi XI asrdan ortiq vaqt ichida yaxshi holda saqlanib qolgan.

Somoniylar davridan saqlangan ikkinchi bino - Samarqand viloyati Tim qishlog‘ida joylashgan Arab ota maqbarasidir. Mazkur maqbara deyarli kubsimon, peshtoq-gumbazli bino 978-yilda qurilgan. Binoning tashqi o‘lchami 8x8.5 m, zali esa – 5.5 x 5.5 m. Ikkala maqbarada ham pishiq g‘isht mayda o‘lchamli (23x23 eni 3-4 sm) bo‘lib, bunaqa mayda g‘isht kam uchraydi. Binoning asosiy bezaklari peshtoqda mujassam bo‘lib, ular devorga niqob sifatida berilgan. Peshtoqda kesma ganch ham ishlatilgan. Zalni yopuvchi gumbazni xona burchaklarida joylashgan uch ravoqli bag‘al (parus)lar ushlab turadi.

Islom me’morchiligining tadrijiy rivojlanishi maqbaralar arxitekturasida namoyon bo‘lgan. Ya’ni IX-X asr chegarasida maqbara sentrik kompozitsiyaga ega bo‘lgan bo‘lsa, keying yillarda maqbara binosi turining takomillashuvi natijasida, u peshtoq gumbazli kompozitsiyaga ega bo‘ladi. Bu tamoyil O‘zbekistonning kelgusi

[41] https://meros.uz/object/ismoil-somoniy-maqbarasi

islomiy arxitekturasida kuchayib, natijada, ayniqsa Amir Temur davriga o‘tib mahobatli peshtoq-gumbazli kompozitsiyalar vujudga kelishiga zamin yaratadi.

Savol va topshiriqlar

1. Ilk feodalizm davri me’morchiligida yuz bergan o‘zgarishlar nimadan iborat.
2. Afrosiyobning shakllanishi to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
3. Samarqand va Buxoro hududi me’morchiligi o‘xshash va farqli jihatlari qaysi elementlarda o‘z aksini topdi?
4. Somoniylar maqbarasining me’morchilik xususiyatlari haqida so‘zlab bering.
5. Shaharsozlikning o‘ziga xos xususiyatlari ochib bering.

5-ma’ruza. O‘zbekistonning XI - XIII asrlar me’morchiligi

Reja:

1. O‘zbekistonning XI asr me’morchiligining o‘ziga xos xususiyatlari
2. O‘zbekistonning XII-XIII asr me’morchiligi
3. Doyaxotin va Raboti Malik karvonsaroylari tarixi

Kalit so‘zlar: *minora, rotonda, dandana, muqarnas, karvonsaroy, sardoba, dorus-shifo, minora, masjid*

XI-XII asrlar me’morchiligi o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Bir qator jangu jadal va kurashlardan so‘ng 999-1004-yillarda Bug‘roxon Samarqandni va Ilikxon Buxoroni bosib olib somoniylar hokimiyatiga barham berishadi. Bundan foydalangan ko‘chmanchi turklar qabilasi Buxoro janubidagi Jand deb nomlanuvchi joy yaqiniga kelib joylashadi va islom dinini qabul qilishadi. Ularning qabila boshlig‘i Saljuq o‘z odamlarini barchasini yig‘ib somoniylarga yordam ko‘rsatish maqsadida harakat qiladi. Shundan so‘ng uning avlodlari Movarounnahr janubida Hurosonda poytaxti Marvda joylashgan markazlashgan saljuqiylar davlatini barpo etdilar. Saljuqiylardan To‘g‘rulbek 1054-yil hajga bora turib Vizantiyaning (Rumo) bir qismini zabt etdi.

XI-XII asrlar me’morchiligi sohasida bir qator o‘zgarishlar yuz berib, ayniqsa minoralar qurilishi keng tus oldi. Buxoroning eng muhim me’moriy yodgorligi hisoblangan Minorai Kalonning barpo etilish vaqti Qoraxoniylar davriga tog‘ri keladi.

Buxoroda 1127-yilda bunyod etilgan Minorai Kalon me’morchilik san’atining yuksak namunasi sanaladi. Keyinchalik bu yerda Poyi Kalon me’moriy ansambli shakllangan. Minorai Kalon Buxoro shahrining qiyofasini belgilab bergan va hozir ham u Buxoroning belgisidir. Minoraga novob shakl berilgan bo’lib, tanasi konussimon shaklda yuqoriga qarab kichrayib borib muqarnasli qafasa bilan tugaydi. Balandligi 50 m (ba’zi adabiyotlarda 46 m, ba’zi manbalarda 47 m degan ma’lumotlar uchraydi). Devorlarini qalinligi 0,8-0,9 m, poydevor chuqurligi 10 m gacha ketgan. Poypesh qismida inshootning doira diametri 9 m ni tashkil etadi.

Minoradagi 105 pog‘onadan iborat aylanma zina - rotonda[42] orqali uning tepa qismiga chiqiladi. Minoraning tepasida ichidagi zinapoyani yoritish uchun o‘n olti ravoqli darchalar o‘rnatilgan. Ular orqali atrofni kuzatish mumkin bo‘lgan. Uning ustida esa bosqichma-bosqich chiqarilgan karniz ishlangan.

Minoraning o‘zagi ham, bezagi ham chorsu g‘ishtdan (27x27x4-5 sm) terilgan bo‘lib, bezak g‘ishtlar turli shakllarda yo‘nilgan. Qavatma-qavat joylashgan turli xil geometrik shakldagi bejirim halqalar g‘ishtin dandana[43]lar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mavzudagi kufiy vozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqa keyinchalik to‘kilib ketgan. Minorai Kalon qadimiy minoralar orasida alohida o‘ringa egadir. Mazkur noyob inshootdagi shakllarning o‘zaro monandligi, mutanosibligi, geometrik uyg‘unlik, ajoyib ko‘rk va mahobatlilik unga chinakam go‘zallik bag‘ishlaydi. Puxta g‘ishtlarga jilo berilib, mustahkam terilgan.



Minorai Kalon.1127-yil



Minorai Kalon. (hozirgi ko‘rinishi)

Minorai Kalon bunyod etilishida tosh, maxsus qir qotishma, chorsu pishiq

[42] Rotonda-aylana shaklidagi inshoot. Odatda, tomi gumbazli qilib bekiladi, perimetr bo‘yicha kolonnalardan tiklanadi. https:// uz.wiki pedia. org/wiki/Rotonda(inshoot).

[43] Dandana -me’morlikda g‘ishtlarni qirra qilib terib hosil qilinadigan bezak usuli, kungura. https: //uz.wikipe dia. org/wiki/Dandana

g‘ishti, loy, taxta va boshqa bir qator ashyolardan foydalanilgan. Uning balandligi 50 metr, aylanma eni 9 metr. Minoraning salla shaklidagi yuqori qismi g‘isht o‘ymakorligi bilan bezatilib, karniz holiga keltirilgan. O‘qsimon tirgak o‘rtasida Arslonxonning nomi hamda binokor ustaning ismi (usta Baqo) bitilgan. Minora ichida g‘ishtin aylanma zinapoya bo‘lib, mezanaga olib chiqadi.

Kalon minorasi baland bo‘lishiga qaramay o‘tgan IX asr davomida ro‘y bergan ko‘plab yer silkinishlarga bardosh berib kelgan. U keyingi davrda dastlab 1924-yilda (tanasi va muqarnaslari) ta’mirlangan. Yer ostida qolib ketgan qismi 1960-yillarda ta’mirlangan. Ustuvorlik siri inshoot konstruksivasining to‘g‘ri tanlanganligi, poydevor konstruksiyasi hamda g‘isht terimining sifatliligidadir.

Minora Kalon masjid bilan balandlikdagi o‘tish jovi orqali tutashtirilgan. Minora poyida noyob me’moriy ansambllar - Masjidi Kalon, Mir Arab madrasasi hamda XX asrda tiklangan amir Olimxon madrasasi joylashgan. Ular barchasi birgalikda yaxlit Povi Kalon me’moriy ansamblini tashkil etadi. Mir Arab madrasasining orqasida Toqi Zargaron (tillachilar bozori), uning yonida esa Ulug‘bek hamda Abdulazizxon madrasalari joylashgan. Toqi Zargarondan janubga qarab shahar arxitektura yodgorliklarini joylashishi davom etgan. Minorai Kalon inshooti masjid huzuridagi minora sifatida xizmat qilmagan. U kuzatuv minorasi vazifasini bajargan. Chingizxon lashkarlari va rus qo‘shinlari hujumlaridan keyin ushbu inshoot turli yillarda ta’mirlangan va restavratsiya qilingan. Ismoil Somoniy va Minorai Kalon arxitektura inshootlarini bejizga “Sharqning me’moriy durdonalari” deb aytishmagan. Ularning har ikkalasi ham takrorlanmas va noyob me’moriy obidalar sanaladi.

Islom dini Eron va O‘rta Osiyoga tarqalgan davrda mahalliy otashgohlarga xos bo‘lgan, katta bo‘lmagan chortoq kompozitsiyasi ko‘rinishidagi masjidlar qurildi. Bunday uslub ko‘shk qurilishida ham qo‘llanilganligi sababli ingliz tadqiqotchilari uni “kiosk” deb atashgan va bu termin bugungi kunda juda keng ma’nolarda qo‘llanilmoqda. Keyinchalik ushbu imoratlar turi rivojlanib, mehrob qismi alohida bezatiladi va ko‘pincha uning to‘g‘risidan yagona kirish qismi joylashadi. Natijada Buxorodagi Mag‘oki (yashirincha degani) Attori kabi pishiq g‘ishtdan barpo etilib,

usti gumbaz bilan yopilgan XI-XII asrlar masjidi yuzaga keladi. Bular esa o‘z navbatida o‘rta asrda keng tarqalgan xonahoq tipidagi mahalla va qishloq masjidlarining birinchi namunalari edi. Asosi kvadrat shaklidagi gumbazli bino kompozitsiyalar O‘rta Osiyo yerlarida keng tarqaldi va mahalliy sharoitga qarab o‘ziga xos ko‘rinish kashf etdi. Bu davrda peshtoq-gumbazli maqbaralar qurilishi ham rivojlandi. Peshtoqlari esa badiiy bezatilgan masjidlar qurildi, ularda ham yangi uslub va yo‘nalishlar yuzaga keldi. Jumladan: XI asrda qurilgan Mag‘oki Attori masjidi Movarounnahr me’morligida yangi uslubiy izlanishni boshlanishida turgan yodgorliklardan hisoblanadi[44]. U Minorai Kalondan sal keyinroq XII asrda barpo etilgan, XIV asrda esa qayta tiklangan. Kirish eshigi arkasi hamda portal gumbazining shakli ham o‘zgacha ishlangan.



Mag‘oki Attori masjidi. XII asr



Mag‘oki Attori masjidi. (hozirgi ko‘rinishi)

Mag‘oki-Attori masjidi Buxoro markaziy qismidagi Labi Hovuz ansambli yonida barpo etilgan qadimiy masjidlardan sanalib, me’morchilik san’atining tugal na’munalaridan biri hisoblanadi. Asrlar davomida madaniy qatlamlar yig‘ilgani sayin masjid atrofidagi yer sathi ko‘tarilib boravergan. Buning natijasi o‘laroq bugungi kunga kelib masjid shahar sathidan 6 metr pastlikda joylashgan.

Avvallari masjidda Oy (Mox) otashparastlar ibodatxonasi joylashgan. Keyinchalik, arablar istilosidan so‘ng (VII asr) uning o‘rnida ilk masjidlardan

[44] Xasanova Z.D. O’rta Osiyo me’morchilik san’ati. O‘quv uslubiy majmua. – Samarqand.: 2021, - B. 30.

biriga asos solingan. O‘sha paytda ham masjid madaniy qatlamlar o‘sgani natijasida yarmigacha ko‘milgan. Shu sababli unga “Mag‘oq” (“chuqurlikda”) hamda attor bozori yaqinida joylashgani sababli “attori”, ya’ni “Mag‘oki attori” nomi berilgan.

Masjidning ilk holatidan faqat bosh fasad arxitekturaviy elementlari saqlangan. Devorlari kesilgan va kesilmagan, o‘yilgan va o‘yilmagan g‘ishtlardan, ulaming to‘plamidan bezakdor qilib ishlangan. Imoratni bunyod etishda kesilgan terrakotali plitkalar bilan to‘ldirilgan relvefli yechimdan foydalanilgan. Arka konstruksiyasi moviy rang qilib ajratib ĸo‘rsatilgan, inshootga yozuvlar ham tushirilgan. Olti ustunli ko‘p burchakli masjid interyeriga bezak berilmagan. Arxeologik qazishmalar asosida uning tagidan ganch o‘ymakorligi qoldiqlari topilgan. Bu topilma pardoz ishlarida ganchkoriik usuli ishlatilgan degan xulosaga olib kelgan.

XI - XII asrlardan nasx yozuvi me’morchilikda ko‘p qo‘llanila boshlagan. XI - XII asrlarda Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz va boshqa yirik shaharlar hunarmandchilik markazlari sifatida shuhrat qozongan. Somoniylar davrida amaliy-bezak san’ati, avniqsa kulollik, shishasozlik, yog‘och o‘ymakorligi yaxshi suratlar bilan rivojlangan. Mahobatli me’morchilikka katta e’tibor qaratilgan. Turar-jovlar, hunarmandlarning ustaxonalari, saroylar, ma’muriy binolar, savdo rastalari, hammom, masjid, maqbara, minora, madrasalar barpo etilgan. Qurilishda asosan, pishiq g‘ishtdan foydalanilgan. Ba’zan bino devorlari xomg’ishtdan, tomi - gumbazi tashqi tomondan pishiq g‘ishtdan ishlangan. Xomg’ishtdan ishlangan devor pishiq g‘isht bilan qoplangan va mustahkamlangan[45]. XII asrda me’morchilikda o‘yma terrakotadan, sirli g‘ishtdan foydalanilgan. XII - XIII asrlarda yirik shaharlarda shisha ishlash rivojlangan.

XI-XII asrlarda qurilgan maqbaralar ichida chodirsimon gumbaz bilan yopilganlari alohida ajralib turadi. Bu turdagi gumbazlar Pokiston, Hindiston va shu kabi mamlakatlarda “gumbazi turkistoni” deb nomlanadi. Gumbazi turkistoni

[45] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur. – B 99.

bilan yopilgan maqbaralar turkumiga Qadimgi Toroz (hozirgi Jambul) yaqinidagi XI asrda qurilgan Bobaji Xotun va Ko‘hna Urganchdagi Faxriddin Roziy hamda Sulton Tekesh maqbaralarini misol keltirish mumkin. Bu binolar ham pishiq g‘ishtdan qurilgan bo‘lib ichki va sirtqi gumbazlardan iborat bo‘lgan[46].

XII-XIII asr me’morchiligi. O’rta Osiyodagi yirik Anushteginiy - Xorazmshoh davlati 1218-1221-yillari Chingizxon boshliq mo‘g‘ul qo‘shinlari yurishidan parchalanib, gullab turgan bog‘u-rog‘lar, sergavjum bozorlar, qanchadan-qancha shaharlar kulga aylandi. O‘rta Osiyo madaniy taraqqiyoti bir yarim asrdan ziyodroq davr davomida kishanlab qo‘yildi. Shaharlar taraqqiyoti va me‘morchilik sohasining rivoji haqida ma‘lumotlar juda ham oz bo‘lsada keyingi mo‘g‘ul xonlari o‘troqlashib shaharlarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shishgan.

Bu davr feodal munosabatlar nihoyatda rivojlanib, shaharlarning ma’muriy ahamiyati o‘sa borishi bilan birga, ular savdo va hunarmandchilik markaziga aylanib borishi bilan ahamiyatlidir. Shahar arki avvalgidek alohida tashqarida joylashgan istehkom tarzida emas, balki shahar devori ichida joylashadi.


Samarqand (Afrosiyob) hududi 218 gektar yerni tashkil etib, katta mudofaa devoriga ega bo‘lgan. Hozirgi Hazrat Hizr masjidi o‘rnida to‘g‘on joylashganligi aniqlangan. Unga Darg‘om kanalidan suv keltirilib, damba yaqinidagi osma suv o‘tkazgich (akveduk) orqali suv shaharning uch tomoniga tarqalgan. Shahar o‘z vodoprovod sistemasiga ega bo‘lgan. Yangi bino turlari vujudga kelib, shahar ichida savdo markazi, ma’muriy maydon, jom’e masjidlari, madrasalardan tashkil topgan markaz yuzaga keladi. Aholining kasb-koriga va toifaga qarab joylashuvi natijasida mahallalar va ularning markazlari paydo bo‘ladi[47]. O‘rta Osiyoda Islom nafaqat mustahkamlanibgina qolmay, balki ilmiy jihatdan ham taraqqiy eta boshladi. Yangi binolar turlari vujudga keldi. Jumladan masjidlar, minoralar, maqbara, madrasa, karvonsaroy, sardoba[48], xonaqoh, dorus-shifo (kasalxona) kabi yangi turdagi binolar, turarjoylar, hammomlar shu kabi binolar shahar va

[46] Xasanova Z.D. O’rta Osiyo me’morchilik san’ati. O‘quv uslubiy majmua. – Samarqand.: 2021, B.33-35.
[47] Шишкин В. А. Афрасиаб - сокровищница древней культуры. - Т.: Наука, 1966. С 13.
[48] Sardoba — suvni to‘plash va saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sardoba

qishloqlarda hamda boshqa aholi punktlari oralig‘ida ko‘plab qurildi.

Turarjoy binolari qurilishida sinchli konstruksiya keng tarqaldi, pardoz ishlarida somonli loysuvoq qatorida ganchning har xil turlari ishlatilgan. Keyinroq sirlanmagan koshin va sopol plitkalar, XII asrga kelib qisman sirlangan koshin va sirlangan yaxlit o‘ymakorlik pishirilgan loy bo‘laklari - parchin (mayolika) ishlatish usullari kashf etildi. Eng qadimiy obidalardan Qadimiy Xorazmdagi Kavat va Samarqand (Afrosiyob)dagi somoniylar qasrining bir qismini qayd etish mumkin. Bularning har uchchalasi ham xomg’isht va paxsadan bunyod etilgan.

Shuningdek XII asr boshlarida qurilgan minoralar To‘qmoq (Bishkek yaqinida) shahrida, Ko‘hna Urganchda, Termizda saqlanib qolgan. Jarqo‘rg‘on (tuli balandligida bo‘lmasada), Buxoro va Vobkent minoralari yaxshi saqlanib qolgan.



Jarko‘rg‘on minorasi.
1108—1109-yillar



Jarko‘rg‘on minorasi.
(hozirgi ko‘rinishi)

Jarko‘rg‘ondagi minora 1108-1109-yillarda Seraxslik usto Ali ibn Muhammad tomonidan bunyod etilgan. Uning dastlabki balandligi ancha yuqori bo‘lgan deb taxmin etiladi. Hozirgi saqlanib qolgan bachandligi 21,6 m., ostki diametri 6,4 metrdan iborat. Devorlari yarim aylanasimon burtmalar tarzida olinib ular yuqori

qismida ravoqchalar bilan tutashtirilgan. Bu shakl O‘rta Osiyo me’morchiligida ko‘p qadimgi davrlardan boshlab mavjud bo‘lgan[49].

Ushbu yodgorlik Xuroson m’morchilik maktabi an’analari asosida qurilgan. Yonida bir vaqtlar pishiq g‘ishtdan barpo etilgan Jome masjid bo‘lgan ammo bugungi kunda saqlanib qolmagan. Minora sakkiz qirrali poydevor ustiga g‘ishtdan mavj shaklida terilgan 16 plitavor qobirg‘adan iborat. 20 metr balandlikda g‘ishtin panjarali ravoqlar ishlanib, uning ustida kufiy yozuvli belbog‘ hoshiya mavjud. Belbog‘ ustida yana qirralar davom ettirilgan, lekin minora tepasi saqlanib qolmagan. Minoraning hozirgi balandligi 21,6 m, asosi (diametri - 5,4 m)ning kitobasida m’mor nomi Ali ibn Muhammad Saraxsiy va barpo etilgan sanasi yozilgan (V.A.Shishkin tomonidan o‘qilgan).

XII asrda qoraxoniylarning Buxorodagi noibi Sadr Burxoniddin Abdulaziz II davrida qurilgan Vobkent minorasi o‘zining nafis me’moriy yechimi bilan alohida ajralib turadi. Manbalarda aytilishicha, u buyuk ajdodimiz, Buxorodagi Yetti pirning dastlabkisi sanalgan Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyning tashabbusi va mablag‘i evaziga barpo etilgan.

O‘n ikki qirrali supa asosga o‘rnatilgan g‘o‘la (quyi qismining diametri 6,19 m, yuqori qismi niki - 2,81 m) shaklida rangdor, pishiq g‘ishtlardan bunyod etilgan. Bir paytlar yonida mavjud bo‘lgan masjid tomonidan kirib, yuqoriga aylanma zinapoya orqali chiqilgan. Bo‘rtma naqshli 10 belbog‘ bilan qismlarga ajratilgan, har bir qismi bir-biriga o‘xshamaydigan qilib g‘isht terib naqshlangan, quyisidagi naqshlar orasida qurilgan yili va qurdirgan shaxs (Sadr Burhoniddin Abdulaziz II) ning nomi kufiy uslubida yozilgan. Minoraning uchi kengaytirilib, qafasa ishlangan (diametri 3,66 m), g‘isht terib ishlangan 10 ravoq orasida 10 darcha hosil qilingan, darchalarning quyisi g‘isht panjara bilan to‘silgan. Minoraning tashqi ko‘rinishi ko‘p jihatdan Minorai kalonga o‘xshaydi, lekin muqarnaslari ancha sodda. Minora supasi tuproq ostida qolgan, qurilgan paytida uning balandligi 2,3 m bo‘lganini arxeologik tadqiqotlar ko‘rsatadi. Minoraning umumiy balandligi esa 40,3 m[50].

[49] https://azkurs.org/ix-x-asrlarda-movarounnahr-sanati-va-memorchilik-reja.html
[50] https://uz.wikipedia.org/wiki/Vobkent_minorasi



Vobkent minorasi.
1198-1199-yillar



Vobkent minorasi.
(hozirgi ko‘rinishi)

Minoraning o‘n ravoqli darchalaridan azon aytilgan, tunda esa chiroq yoqib qo‘yilgan. Boshqacha aytganda, minora olis o‘lkalardan kelayotgan savdo karvonlari uchun mayoq vazifasini o‘tagan. U shaharsozlik an’analarini davom ettirishda ham asqotgan. Barcha yo‘llar minoraga eltadi, degan ibora bejiz aytilmagan.

Movarounnahrda XII asrda rabot va karvon-saroylarni ko‘pchiligi yo‘qolib ketgan bo‘lib, ko‘plab Toshrabot, Qushrabot, Oqrabot singari joy va nomlargina saqlanib qolgan. Vayrona holida bizgacha yetib kelgan karvonsaroylari orasida Karmanadan 25 km cha janubroqdagi Buxoro yo‘lida joylashgan Raboti Malik inshootlari katta ahamiyatga egadir.

Raboti Malik karvonsaroyi 1078-1079-yillarda taxminlarga ko‘ra Qoraxoniy Shams ul-Mulk tomonidan barpo etilgan. Bu inshoot ham xomg’isht (28x28x6,5 sm)dan bunyod etilib, 24x24x4 sm o‘lchamli pishiq g‘isht bilan bezak berilgan. Hozirgi kunda faqatgina peshtoqi saqlanib qolgan bu imoratning tarxi 86x86 m o‘lchamli kvadrat shaklida bo‘lgan. Devorlarining balandligi 12 m. ekanligi uning ikki oshiyonalik bo‘lganligidan dalolat beradi. Bino ikki qismdan iborat bo‘lgan.

Peshtoqdan kirgach ko‘ndalang joylashgan hovliga chiqilgan, uning to‘rttala tomoni xonalar bilan o‘rab olinganligi aniqlangan.

XI-XIII asr O’rta Osiyo me’morchiligi va shaharsozligida, binolar yangi turlarining vujudga kelishi, yangi-ko‘rilish materiallari va konstruksiyalari, bezatish ziynatlashning o‘ziga xosligi va boshqa jihatlari bilan yaqqol ajralib turadi hamda shu davrni o‘rganish borasida katta ahamiyat kasb etadi.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekistonning XI asr me’morchiligi o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
2. XI - XII asrlardan me’morchilikda qaysi yozuv turlari ko‘p ishlatila boshlagan?
3. XII asr me’morchiligida qaysi bino turlari barpo etilgan?
4. Doyaxotin hamda Raboti Malik karvonsaroylari to‘g‘risida so‘zlab bering.
5. Gumbazi turkistoni bilan yopilgan maqbaralar turkumiga qaysi maqbaralar kiradi?

6-ma’ruza. O‘zbekistonning XIV - XV asrlar me’morchiligi

Reja:
1. Amir Temur davri me’morchilik sohasidagi tub burulishlar
2. Me’morchilikda bog‘, saroy, masjidlar qurilishi
3. M.Ulug‘bek davri me’morchiligi

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, Temuriylar davlati, Mirzo Ulug‘bek, me’morchilik, naqqoshlik, arxitektura, maqbara, burj, istehkom, kundal, ravoq, peshtoq, go‘rxona*

O‘zbekiston hududida asrlar bo‘yi turli me’morchilik san’ati obidalari bunyod etilgan va afsuski, jang-u jadallarda bir qanchasi zararlanib barbod bo‘lgan. XIV asrdan esa me’morchilik sohasida yana rivojlanish jarayonlari boshlangan. Me’morchilikda yangi uslub vujudga kelgan, buning yorqin namunasini Bavonqulixon maqbarasi me’morchiligi orqali ko‘rish mumkin. Ushbu davrning me’morchilik yodgorliklari Shohi Zinda majmuasida saqlanib qolgan bo‘lib, davr me’morchilik sohasining rivojlanishiga Amir Temur va undan keyin uning avlodlari o‘zlarining buyuk hissalarini qo‘shganlar[51].

Amir Temur va temuriylar hukmdorligida rivoj topgan madaniyat faqat O‘zbekistonninggina emas, balki butun jahon madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Temuriylar davlatining kuch-qudrati ayniqsa me’morchilikda yaqqol ko‘rindi. “Qudratimizni ko‘rmoq istasang – biz qurgan binolarimizga boq!” degan Shahrisabz shahridagi Oqsaroy peshtoqida bitilgan yozuv Temur davlatining siyosiy vazifasini ham anglatardi. Amir Temur hukmronligida me’morchilikda Movarounnahr shaharlari qurilishida istehkomlar, shoh ko‘chalar, me’moriy majmualar qurilishiga katta e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, bu davrda me’morchilik bilan birgalikda naqqoshlik san’ati ham rivojlangan. Xo‘ja Ahmad, Turkan og‘o, Tug‘luq Tekin, Qussam ibn Abbos, Ali Nasafiy, Amirzoda kabi maqbaralar yog‘och o‘ymakorlik hamda koshinkorlik usullari bilan bezatilgan. XIV asr oxirlarida Samarqandda o‘ziga xos me’morchilik uslubi shakllangan. Shahrisabz qal’adan devori har 50-60 m da burj bilan

[51] Salayev T.A. Amir temur va temuriylar davri me’morchilik obidalari // Science and innovation international scientific journal. –2022. – №2. – B. 75.

mustahkamlangan shaharga aylantirilgan. Mudofaani yanada kuchaytirish maqsadida devorning tashqi tarafi xandaq bilan o‘ralgan. Oqsaroy, Ko‘k gumbaz, Gumbazi Sayidon, Shamsiddin Kulol maqbarasi, Hazrati Imom masjidi hamda Jahongir maqbarasi, Dor ut-tilovat, Dor us-saodat va boshqalar mahobatli ko‘rinishi bilan hamon diqqatga sazovordir[52].

A.Temur saltanat poytaxti Samarqandni bezatishga alohida e’tibor berdi. U ishni eng avvalo mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng 150 yil mobaynida vayron va qarovsiz yotgan shaharning mudofaa devorlarini tiklashdan boshlaydi. Bu davrda qurilish sohasida qadimdan xom va pishiq g‘isht, ganch, ganchxok, yog‘och, qamish, tosh kabi mahalliy ashyolardan foydalanishgan. Sinchkor imoratlar uy-joy qurilishining asosini tashkil etgan. Ganchkorlik keng qo‘llanilgan. Bo‘rtma ganch bezakning eng nafis turi – kundal ustidan, odatda, zarhal berilgan. Naqqoshlikda, asosan, mahalliy ma’dan buyoqlari ishlatilgan. Naqqoshlik bino ichkarisidagi nozik va nafis bezaklarda kengroq o‘rin egallagan. Bino tashqarisidagi bezaklarda oddiy sopol, sirkor sopol-parchin va koshin keng qo‘llanilgan. Bino poydevorida tosh parchalari ishlatilgan. Ikki-uch qavatli uy qurilishida sinch keng qo‘llanilgan. Ko‘chma va yig‘ma binolar asosida me’moriy konstruksiyalarning yangi imkoniyatlari sinovdan o‘tkazilib, so‘ngra keng qo‘llanishga tavsiya etilardi. Shu kabi konstruksiyali yig‘ma masjidlar ham barpo etilgan. Amir Temurning bunday yig‘ma masjidini hayrat bilan tomosha qilgan Klavixo: “Bu yuksak imoratga zinopaya orqali chiqiladi . Uning tevarak – atrofi yog‘och dahliz va oynavand ayvon bilan o‘ralgan edi . Boshdan – oyoq zarhal va havorang bo‘yoqlar bilan naqshlangan. Masjid shunday qurilgan ediki, zarur hollarda uni bo‘laklarga ajratib, taxlab qo‘yish ham mumkin. Bu – podsho ibodat qiladigan machit bo‘lib, uni (Amir Temur) safarda o‘zi bilan birga olib yurgan” – deydi[53].

1370-yil mart oyida Keshdan Balxga yurish qilib, Amir Temur Amir Husayn qo‘shinlarini yengadi, uning xotinlaridan biri - Movarounnahrning chingiziylaridan

[52] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur. – B 100.
[53] Raxmonova N.N. Amir Temur davlati Rui Gonsales de Klavixo nigohida // International Conference on Developments in Education. – Hosted from Bursa, Turkey. 2022. – B. 79.

bo‘lgan sobiq hukmdor Qozonxonning qizi - Saroymulkxonim (Bibixonim) ga uylanadi. Amir Temur tomonidan sevimli xotini Saroymulkxonimga atalib qurdirilgan Bibixonim masjidi O’rta Osiyo me’morchilik san’atining klassik namunasi, mahobatli arxitektura inshootidir.

Uning barpo etilsih joyini 1399-yil 1-mayda Amir Temurning o‘zi tanlagan. Arxitekturaviy ansambl hovlili inshoot bo‘lib, hovlining g‘arbida bosh masjid salobat to‘kib turadi. Shimol va janubida kichik masjidlar qurilgan.

Hovlisining sahni 63.8x76,0 m bo‘lib, to‘rt tarafdan ravoq va peshtoqlar bilan o‘ralgan. Uning umumiy sahni 167 x 109 m, burchaklarida baland minoralar bo‘lgan. Bibixonim masjidining poydevori harsang toshdan, devorlari pishgan g‘ishldan ishlangan (qalinligi 4,4 -5 m). Masjid hovlisining to‘rida mehrobli va baland peshtoqli bino, uning ikki yonida binoning kichik nusxasi, poyida masjidning ikkiga bo‘lingan peshtoqi va shimoliy g‘arbida alohida saqlanib qolingan minora mavjud. Inshoot ustunlarining umumiy soni 480 ta (oralig‘i 3,5 m) bo‘lib, tag kursli, tanasi o‘yma naqshli, tepasida rangli koshinlar ishlangan hamda muqarnaslar bilan bezak berilgan. Har biri darvozaga ega bo‘lgan to‘rtta peshavvoni bor. Bibixonim masjidiga kiraverishda peshtoq bor.



Bibixonim masjidi. 1399-1404-yillar



Bibixonim masjidi. (hozirgi ko‘rinishi)

1897-yilda uning tepa qismi zilzila paytida qulagan (qolgan qismining balandligi 33 m, kengligi 46 m). Peshtoqi mahobatli ishlangan bo‘lib, uning o‘rtasida kengligi 18.8 metrli ravoq mavjud. Peshtoq atrofidagi minoralar

peshtoqdan baland qilib qurilgan. Peshtoqning ichki tomoniga kichikroq ikkinchi ravoq joylashgan. Unda o‘yma marmar hoshiyali darvoza bo‘lgan. Bibixonim masjidining asosiy mehrobli qismi Amir Temur davri me’morchilik uslublari haqida umumiy tasavvur uyg‘otadi. Me’moriy yodgorlikning asosiy binosining old tomonida peshtoq, markazida ravoq, burchaklarida ikkita ko‘p qirrali minora mavjud. Peshtoq orqasida joylashgan xona nisbatan oddiy, ammo mahobatli geometrik shakllar bilan bezatilgan[54]. Asos tomonlari 14,6 m bo‘lgan binoning ustida xona devorlari bo‘ylab o‘tuvchi ravoqlardan iborat sakkiz qirrali prizma bo‘lgan. Gumbazning doirali asosiga tutashtirilgan barabanning sirtiga qur’on oyatlari bitilib, uning yuzasi feruza koshinli pardozlangan gumbaz bilan bekitilgan. Kirish tomonlari ham bosh peshtoq singari turli rangdagi koshinlar bilan qoplab chiqilgan. Unda foydalanilgan sopol g‘ishtchalar votiq, sirlangan rangli g‘ishtchalar esa tik qilib terilgan. Tiniq g‘ishtchalardan terilgan asosiy naqsh shakllarining oralig‘i zangori g‘ishtchalar, oq toshlar bilan to‘ldirilgan chiqilgan. Bino bezagining tarkibiy qismi sodda ishlangan geometrik shakllar va pechakka o‘xshash bir-biriga chirmashib ketgan yozuvlardan iborat. Zina orqali yuqoriga kungura ravoqli maydonchaga chiqilib, undan minoraga o‘tilgan. Bino peshtoqining sirtiga nafis koshinlar, rangbarang, qalqon shaklidagi naqshlar bilan bezak berilgan. Mehrobli imoratning baland minoralari sathi to‘rtburchakli kichik pannolarga bo‘lingan. Bino pannolari geometrik shakl va turli ranglardagi o‘simliksimon naqshlar bilan bezatilgan. Bino peshtoqi devorining sirti kesma koshin bilan bezatilgan. Koshinkor bezakning har bir bo‘lagi, gullarning o‘zaklari, kosachalari, poyalari, g‘unchalari va barglari maxsus zamin - koshinlar parchasidan alohida kesib olingan, sopolchalar oraliq qoldirilmay bir-biriga mos tarzda joylashtirilgan. Bibixonim masjididagi turfa xil naqshlar Amir Temur davri xalq ustalarining nozik didi va yuksak mahoratidan nishondir.

Shohizinda qabristoni (“Shohizinda” – “tirik shoh” ma’nosini beradi)dagi maqbaralarning eng qadimiysi – Qusam ibn Abbos maqbarasi sanaladi. Qusam ibn

[54] https://uz.wikipedia.org/wiki/Bibixonim_jome_masjidi

Abbos payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning amakivachchasi bo‘lgan Abbosning avlodi edi, Qusam ibn Abbos islomni targ‘ib qilgan buyuk peshvolardandir. U shu maqsadda 676-yilda arab istilochilari bilan birga Samarqand shahriga keladi. Afsonalarda aytilishicha, shu yerda nomoz o‘qib turgan vaqtlarida kofirlar uni joniga suiqasd qilgan ekan. Amir Temur Qusam ibn Abbos qabrining ustiga yangi dahma o‘rnatgan bo‘lib, u o‘rnatgan dahma butun O‘rta Osiyoning qadimgi kulollari ishlarining eng yuksak namunalaridandir. “Shohizinda” ansambli hududida Temur va temuriylar tomonidan barpo etilgan maqbaralarning soni 20 dan oshiq. Ushbu ansamblda Amir Temurning xotinlari boshchiligida bunyod etilgan maqbaralar va boshqa inshootlar ham diqqatga sazovordir[55].



Samarqanddagi Shohi Zinda maqbarasi. XIV-XV asr.



Samarqanddagi Shohi Zinda maqbarasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Shohi Zinda ansambli XI-XIX asrlarda barpo etilgan. Inshootlarning ko‘pchiligi XIV asrga tegishlidir. Arxitektura ansamblining yakunlovchi kirish peshtoq darvozaxonasi keyingi davrda tiklangan. Peshtoqqa bu ulkan binoga Amir Temur Ko‘ragoniy o‘g‘li, Shohrux xon o‘g‘li, Ulug‘bek Ko‘ragoniy o‘g‘li Abdulazizxon tomonidan asos solingan deb yozilgan. U Ulug‘bek tomonidan 1434-1435-yillarda o‘g‘li Abdulazizga atab qurdirilgan. Zinalardan chiqib, tor ko‘cha

[55] Salayev T.A. Amir temur va temuriylar davri me’morchilik obidalari // Science and innovation international scientific journal. – 2022. – №2. – B. 76.

bo‘ylab yurganda kishi uzoq tarix bilan ko‘rishganday bo‘ladi. Kirishdan uzoqlashgan sari inshootlar qadimlasha boradi. Zinaning chap tomonida XV asr ayvonlaridan birida ikki gumbazli Qozizoda Rumiy (Ulug‘bek davrining matematigi va astronomi) va uning yaqinlariga atalgan maqbara joylashgan. O‘ttiz olti poyali zinadan ko‘tarilgach, galereyaga duch kelinadi. Bu yerning chap va o‘ng tomonlarida Temurning qarindoshlari, shu jumladan uning xotini Tuman oqa va singlisi Shirin beka oqa maqbaralari joylashgan. Galereya gumbazli arkadan iborat aylana hovlicha bilan tugaydi. Gumbazli arka ostida Shoxi Zinda vodgodigi – Qus sam ibn Abbosning maqbarasiga eltuvchi yo‘lakning naqshinkor eshigi o‘rnatilgan. Arablar Samarqandga kirganliklaridan keyin u muqaddas joy deb e’lon qilingan. Rivoyat qilishlaricha, bu yerda yashagan Qussam ibn Abbos bir vaqt ziyoratini tugatgach, yelkasidan o‘z boshini olib, qo‘ltiq ostiga qo‘yadi va tor tirqish orqali g‘orga yashirinadi. U hozir ham g‘orda yashavotgan emish (shoh zinda) degan afsonalar xalq orasida yuradi. Ana shu rivovatdan bu yerning nomi kelib chiqqan. U maqbara naqshli yog‘och panjara bilan o‘ralgan, arab yozuvidagi naqshlar bilan pardozlangan. Shohi Zinda XIV - XV asrlarning sayqallangan dekorli, koshinkorli novob muzeyidir. Bu yerda me’morchilikning yarim o‘yilgan terrakota, yig‘ilgan mozaikaning yo‘nilgan g‘ishtlardan tayvorlangan go‘zal namunalarini topish mumkin. Nozikligi va go‘zalligi bo‘yicha biror obidaning me’moriy san’ati unga bas kelolmaydi.

Temur va temuriylar davrida Samarqand o‘zini o‘nglab olib, shahar rivojlanish iIgarilab ketgan. Bu davrda ko‘p tarmoqlar singari me’morchilik va binokorlik ishlari ham gullab yashnagan. Samarqand nihoyatda obod va ko‘kalamzor shaharga avlanadi. Amir Temur o‘zining tug‘ilgan yurti Shahrisabzni shaharga aylantirgan, u yerda 1380-yilda Oqsaroy qasrini, keyinchalik to‘satdan vafot yetgan o‘g‘li Jahongir maqbarasini qurdirgan. Shahrisabzdagi Oqsaroyni xorazimlik ustalarga qurdirgan. Binoni bunyod etish qariyb 10 yilga cho‘zilgan. Uning qurilishi 1403-yillardan keyinroq bitgan. Oqsaroy peshtoqining ikki chekkasi va saroyning bir qismi saqlanib qolgan. 230 yil muqaddam qulab tushgan peshtoqning eni 22.5 m, balandligi 40 m bo‘lgan. Toqi ustidagi ravoqlari bilan uning

umumiy balandligi 50 m dan oshgan. Qolgan qismining hozirgi balandligi 38 metrni tashkil etadi. Mahobatlilik va jozibador g‘ishtlarining umumiy ko‘rinishiga old va shimoliy devor sirtini sirkor parchinlar orqali bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Gumbazning ichi, atroflari hamda, burchaklardagi minoralarga koshin – g‘ishtlardan qalqon shaklidagi geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Bu naqshlar silliqlangan g‘isht va feruza rangli sirkor parchindan yozilgan kufiy xatlar fonida ko‘k yo‘g‘on belboqqa o‘xshash kompozitsiyani tashkil etgan. Devorlardagi turli-tuman ranglarning jilosi, koshinkor lavhalar, tarixiy, falsafiy va diniy mavzudagi kufiy, sulh yozuvlari, islimiy, geometrik va o‘simliksimon naqshlarning o‘zaro uyg‘unligi binoga novob va sehrli mazmun baxsh etgan. Rangining oy yorug‘ida jilolanib - oqarib ko‘rinishidan bino Oqsaroy deb nomlangan.

A.Temur davrida bir qator maqbaralar qurilib, ulardan eng ko‘zga ko‘ringanlaridan biri Chashma Ayub maqbarasi sanaladi. Chashma Ayub maqbarasi Amir Temur farmoyishi bilan 1379-yilda qurilgan. U hozirgi Somoniyiar parki hududida, bog‘ning shimoliy tomonida joylashgan.



Chashma Ayub maqbarasi. 1379-yil



Chashma Ayub maqbarasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Maqbaraning eng qadimgi qismi kvadrat tarhdagi (4.5x4,5 m) go’rxona[56] bo‘lib, ziyoratchilar uchun o‘z vaqtida ikki yonida ikkita eshigi ham bo‘lgan. Old tomoniga toqli bino (4.5x4,5 m) tutashtirilgan, u maqbaraga peshtoq bo‘lib xizmat

[56] Go’rxona — maqbara tagidagi o’lik ko’mish uchun mo’ljallangan maxsus xona, yerto’la. https://milliycha.uz /ru/ gorxona/

qilgan. Go‘rxona qo‘sh gumbaz, peshtoq va kichik gumbaz bilan qoplangan, uning ostida Chashma Ayub nomli payg‘ambarga atalgan muqaddas quduq bor, binoning nomi ham shundan kelib chiqqan. Keyinchalik maqbaraga taqab gumbazli zal, burchaklarida minorali dahliz qurilgan. Maqbara g‘arbdan sharqqa tomon cho‘zilgan, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida (19 x 26 m) bo‘lib, binoning qadimgi qismi ichkarida qolgan. To‘rt binodan iborat maqbaraning har binosi gumbaz bilan qoplangan, ular bir-biriga o‘xshamaydi. Inshoot devorlar bilan o‘ralgan va Xorazm me’morchiligi an’anasi - konussimon gumbaz bilan yopilgan bir necha xonalardan iborat bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida ishlangan.

A.Temur hukmronligida barpo etilgan va shuhrat qozongan tarixiy yodgorliklardan biri bu – Go‘ri Amir maqbarasidir. Ushbu ulug‘ imoratning barpo etilishining o‘z tarixi bor. A.Temur nabirasi Muhammad Sultonni (Jahongirning og‘li) juda sevar edi. Muhammad Sulton 1403-yilda, 27 yoshida shamollab vafot etadi. Uni Samarqandga olib kelib dafn marosimi o‘tkazadilar .



Go‘ri Amir maqbarasi. 1405-yil



Go‘ri Amir maqbarasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Amir Temur 1404-yilning kuzida safardan qaytganidan so‘ng nabirasi Muhammad Sulton xotirasiga atab maqbara barpo etishga farmon beradi. Mazkur farmonda maqbarani o‘n kun davomida bunyod etib tugallashga buyruq berilgandi. Darhaqiqat, maqbara o‘n kunda butunlay qurib bitkaziladi. Maqbara devorlaridagi rang-barang koshinlar orasida uni bunyod etgan usta Muhammad ibn Mahmud Isfaxoniyning nomi ham yozib qoldirilgan. 1405-yilda Amir Temur vafotidan so‘ng,

uning o‘zi ham shu yerga, nevarasining yoniga dafn etiladi va maqbara “Go‘ri Amir maqbarasi” deb nom oladi. Shundan keyin bu bino temuriylar sulolasining xilxonasiga aylanadi. Unda Muhammad Sulton Mirzo, Amir Temurdan tashqari Sohibqironning o‘g‘illari Umarshayx Shohruh va Mironshoh, nabirasi Mirzo Ulug‘bek va Temurning piri Sayyid Barakaning ham sag‘analari qo‘yilgan[57].

Go‘ri Amir maqbarasiga (XIV asr oxiri - XV asr boshlari) tantanavor peshtoqli dargohdan chorsi hovliga o‘tiladi. To‘g‘rida ulug‘vor gumbazli maqbara, kunchiqarda – Muhammad Sulton madrasasining qoldiqlari, kunbotarda esa xonaqoh bo‘lgan. Maqbara ziyoratxona asosi chorsi-chortoq, ustiga baland piltavor gumbaz bog‘langan. O‘rtada Amir Temur, uning o‘g‘illari Shohruh, Mironshoh, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug‘bek va boshqalarning qabr toshlari joylashgan, har bir qabrtosh o‘ymakor bitiklar bilan bezatilgan. Sohibqironning bosh tomonida uning piri Mir Sayyid Baraka qabri joylashgan. 1948-yilda A. A. Semyonov Amir Temurning qabridagi yozuvlarni birinchi marta to‘la-to‘kis o‘qib, ilmiy tarjima qilganda nefrit taxtachaga to‘q ko‘k nefrit toshning keltirilishi haqidagi ma’lumotlar yozilganligi ma’lum bo‘ldi. Semyonovning bu ishi Amir Temur nomi bilan bog‘liq tosh yozuvlar yodgorliklarini o‘rganishga qo‘shgan katta hissasi bo‘ldi.

Maqbaraning tashqi tomonini ishlashda ustalar gumbazga katta ahamiyat berganlar. Gumbaz ostki qismining diametri 15 m, balandligi 12,5 m bo‘lib, 64 qovurg‘ali qilib ishlangan. Gumbazning usti sir berilgan zangori rangli koshinlar bilan qoplangan. Maqbaraga gumbazli sharqiy peshtoqdan kiriladi. Ziyoratxona nihoyatda bezakdor. Devorlar bo‘ylab turli xil naqshli bezaklar mavjud. Gumbaz osti bezaklarida bo‘rtma naqshlar - kundal keng qo‘llanilgan. Zarhal pardoz va zamindagi zangori naqshlar, muqarnaslar, girihlar ziyoratxona ichiga alohida mahobat bag‘ishlaydi. Dargoh peshtoqi ravog‘ining ichidagi koshinkor bitikda “Al-banno me’mor Muhammad ibn Mahmud Isfaxoniy” nomi saqlanib qolgan.

Temurivlar davriga mansub Buxorodagi me’moriy yodgorliklar qatoriga Savfiddin Boharziy va Buyan Qulixon maqbaralari ham kiradi.

[57] Salayev T.A. Amir temur va temuriylar davri me’morchilik obidalari // Science and innovation international scientific journal. – 2022. – №2. – B. 77.

Savfiddin Boharziy Chingizxon qo‘shinlari tarafidan zarar yetkazilgan xalqning sevimli masjid va madrasalarini saqlashga katta hissa qo‘shgan shaxsdir. 1261-yilda Savfiddin Boharziyning o‘limidan so‘ng diniy idora uning nomini muqaddas deb e’lon qilgan. Shundan so‘ng Fatxobod qishloqchasida uning qabri ustida xonaqoh qurilgan. XIII - XIV asrlarda Savfiddin Boharziy – “jahon shayhi” qabri ustiga maqbara qurilgan. Maqbaraning yirik peshtoqi keyinchalik qayta tiklangan.



Savfiddin Boharziy maqbarasi. XIII-XIV asrlar



Savfiddin Boharziy maqbarasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Shaklining ulkanligi, konstruksiyalarining kattaligi bilan Savfiddin Boharziy yodgorligi e’tiborga sazovordir. Buxoro me’morchiligining rivojlanish bosqichini belgilab bergan ushbu bino X -asrda barpo etilgan Somoniylar maqbarasi bilan solishtirish imkoniyatini beradi.

Savfiddin Boharziy maqbarasi ichida dahmaxona hamda ziyoratxona joylashgan. Ushbu maqbaraning rejasi bir muncha murakkablashgan. Xonalar ustidagi ikki gumbazning qurilishi maqbara binosi shakli va kesimini aniqlab berishga xizmat qilgan. Bino devorlari ichki va tashqi taraflarida naqshlar qo‘llanilmaganligi uning farqli jihatlaridan biridir.

Shayx Sayfiddin Boharziy, uning ikki o‘g‘li Jamoliddin Muhammad va Mazhariddin Mutahhar, shuningdek, nevarasi Abu Mufaxir Yahyo, evaralari Xovand Burhoniddin, Ruhiddin Shayx Dovudlar ushbu maqbaraga dafn etilgan.

A.Temur Buxoroga tashrif buyurganda Shayx qabrini albatta ziyorat qilgan. Uning farmoni bilan maqbara obod qilinib, ziyoratxona va sharqiy peshtoq bunyod etilgan. Shayx qabri ustidagi yog‘och sag‘ananing yasalish uslubi, zarhal bezaklari Amir Temur davri yog‘och o‘ymakorligi san’atining noyob yodgorligi hisoblanadi. Sag‘anada tug‘ilgan va vafot etgan sana, Qur’ondan oyatlar, Shayxni madh etuvchi madhiyalar, rangbarang naqshlar o‘zaro uyg‘unlashgan[58].

Sayfiddin Boharziy maqbarasiga vaqt o‘z ta’sirini ko‘rsatgan, devorlar asta-sekin yemirila boshlagan. 1976-yilgi zilzila o‘z ta’sirini kuchliroq gumbazlarga ko‘rsatgan, ular sezilarli darajada shikastlangan. Biroq buxorolik restavratorlar ushbu inshootni asray olganlar. Ushbu maqbaraning yaqinida mo‘g‘ul xoni - Buyan Qulixon maqbarasi joylashgan. Maqbara binosi mo‘jaz va serhasham. Bosh fasadda peshtoq ajralib turadi. Interyerni pardozlash ishlarida terrakota ko‘proq ishlatilgan. Bayonqulixon maqbarasi Amir Temur davri me’morligining ilk namunalaridan hisoblanadi[59].

Temuriylar hukmronligida bunyod etilgan saroylar ikki xil ko‘rinishda bo‘lgan:

1. Ma’muriy-siyosiy (qal’a yoki shahar ichida barpo etilgan);

2. Shahar tashqarisidagi bog‘larda barpo etilgan qarorgohlar (qabul marosimlari, majlislar o’tkazilgan va hordiq chiqarilgan)[60].

Amir Temur bog’lari haqidagi ilk ma’lumotlar o’tmish tarixchilari, shoirlari, sayyohlari manbalarida ko‘p uchraydi. Temur bog’lari tuzilish jihatiga binoan ikki turga ajratib o‘rganilgan:

1) chorbog’lar - geometrik (to’rtburchak, to’g’ri to’rtburchak) shaklda bo’lib, har tomoni taxminan 1 kilometr masofaga cho’zilgan. Sahnidan o’tgan ariqlar ularni teng to‘rt qismga ajratib turgan. Tomonlaridagi baland paxsa devorlarning har burchagida minora joylashgan. Markaziy qismida saroy mavjud. Ushbu bog’larning darvozalari shahar tarafga qaratib bunyod etilgan;

[58] https://uz.wikipedia.org/wiki/Sayfiddin_Boharziy_maqbarasi
[59] https://uz.advisor.travel/poi/Bayonqulixon-maqbarasi-24178
[60] Qodirov B. Amir Temur madaniyat va ilm-fan homiysi. “Ijodiy parvoz” gazetasi, 4 (60)-son, aprel, 2018. B.1.

2) tuzilishi jihatdan geometrik shaklga ega bo'lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag'rida qurilgan bog'lar. Ushbu bog'lar hukmdor shikor (ov) qilishi maqsadida qurilgan bo'lib, asosiy qismi tabiiy, qo'l tekkizilmagan holda saqlangan. Ularning kichik bir qismigagina dam olish maqsadida saroy, ko'shk va chodirlar barpo etilgan, hovuzlar qazilib, favvoralar o'rnatilgan. Bu turdagi bog'larning o'simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo'lgan[61].

Amir Temur davrida bog‘ tuzish san'ati o‘zgacha ko‘rinish kasb etdi. Shaxsan Sohibqiron bu sohaga alohida e'tibor berib, ko‘plab bog‘lar yaratgani ma'lum. Ispan elchisi Klavixo safar kundaliklarida mazkur bog‘lar me'morchiligi xususida muhim ma'lumotlar keltirgan.

Ulardan biri "Bog‘i – Davlatobod" deb nomlanib, Samarqand janubidagi bu bog‘da to‘xtagan ispan elchilari bir necha kun davomida bog‘ni kuzatish imkoniga ega bo‘lishgan. Bog‘ atrofi paxsa devor bilan o‘ralgan. Bog‘da anvoyi mevali daraxtlar, oltita hovuz bo‘lib bog‘ o‘rtasidan anhor oqib o‘tgan. Hovuzlar baland, sersoya daraxtlar qatoridan yo‘lak orqali bir-birlari bilan tutashtirilgan. Bog‘da tuproqdan ko‘tarilgan, usti yog‘och panjaralar bilan o‘ralgan, tekis baland tepalik mavjud. Unda ajoyib qasr qad ko‘targan. Qasrga tilloyu, lojuvard va rangli koshinlar bilan to‘kis va mukammal sayqal berilgan. Qasr joylashgan mazkur tepalik atrofi suvga limmo-lim to‘la xandaq bilan o‘ralgan. Xandaqda uzluksiz suv oqib turgan. Tepa ustidagi saroyning ikki tomonida unga o‘tiladigan ikkita ko‘prik qurilgan. Ko‘priklarda ikkita eshik bor. Eshikdan kirilgach, tepalikka zinapoyadan ko‘tariladi. Davlatobod bog‘ining qoldiklari arxeologik yodgorlik sifatida Darrom anhori yoqasida saqlanib qolgan.

A.Temur Samarqand shahrining g‘arbiy qismida sevimli xotini Tuman og‘a (Xayrunniso) ga atab 1378-yilda Bog‘i Behishtni bunyod ettiradi. Qo‘lyozmalarda bu bog‘ "Bog‘i Jannat" nomi bilan yuritiladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning ma'lumotiga ko‘ra, bog‘ orasidagi tomonlari xandaq bilan himoya qilingan sun'iy tepalik ustida Tabriz oq marmaridan barpo etilgan hashamatli saroy joylashgan.

[61] https://milliycha.uz/amir-temur-boglari/

Saroyga bir necha ko‘tarma ko‘priklar orqali o‘tilgan. Saroyning bir tomonida hayvonot bog‘i ham mavjud.

1397-yilda esa Amir Temur xotinlaridan biri - To‘qalxonimga atab Bog‘i Dilkushoni barpo ettirgan. Ushbu bog‘ Samarqandning 5 km sharqiy qismida Panjakent yo‘lining o‘ng tomonida joylashgan bo‘lib, barcha tomoni 900 metr uzunlikdagi baland paxsa devor bilan o‘ralgan. Shuningdek, bog‘ning to‘rt darvozasi, markaziy qismida hashamatli saroy mavjud. Ushbu saroy uch qavatli qurilib, har qavatida favvora otilib turgan. Uning devorlariga A. Temur olib borgan urushlardan lavhalar tasvirlangan. A.Temur Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixoni ushbu bog‘da qabul qilgan. Bu bog‘ o‘rnida hozir Dilkusho qishlog‘i joylashgan.

Samarqandda ushbu bog‘lardan tashqari yana bir qator bog‘lar mavjud. Jumladan, Bog‘i Bo‘ldu, Bog‘i Zog‘on, Bog‘i Naqshi Jahon, Bog‘i Amirzoda Shohrux, Bog‘cha, Bog‘i Dilafro‘z, Bog‘i Sheron, Gulbog‘, Lolazor, Bedana qo‘ru g‘i, Chumchuqlik, G‘ozxona. A. Temurning bog‘ bunyod etish an’anasini temuriy lardan Shohrux, Ulug‘bek, Bobur va boshqalar ham davom ettirishgan[62].

Amir Temur bunyod ettirgan biri-biridan go‘zal mukammal, jozibador bog‘-rog‘lar ularning ko‘shku-saroylari ko‘pincha aholi dam olib, aylanishi uchun ochiq bo‘lgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, bu bog‘lar ta’rifi afsonalarga aylangan.

1405-yilning fevral oyida Amir Temur vafot etgandan keyin ichki ziddiyatlar va janglar qaytadan kuchayadi. Besh yillik urushlar natijasida Movarounnahrni Amir Temurning o’g’li - Shohruh qo’lga kiritadi. Biroq u o’z qarorgohini Hirot deb e’lon qiladi. Movarounnahrni mulk sifatida o‘z o‘g‘li – Ulug‘bekka topshiradi. Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) 1409-yildan boshlab o‘zining fojiali vafotiga qadar 40 yil davomida (ba’zi manbalarda 1411-yildan boshlab 36 yil davomida deyilgan) mamlakatni boshqaradi.

Temuriylar davrining ikkinchi bosqichida me’morchilikda qo‘sh gumbazlar barpo etish odat tusiga kirgan. U davr arxitekturasi shakllarning boyishi, dekorativ

[62] https://uz.wikipedia.org/wiki/Amir_Temur_bog%CA%BBlari

elementlarning ko‘payishi, rangning ko‘p ishlatilishi va devorlarga, ayniqsa inshootlar fasadlariga nihovatda chiroyli va rango-rang pardoz berilishi, serjilo ishlanishi bilan ham harakterlidir. Buyuk alloma Mirzo Ulug‘bek davrida madrasalar, jamoat va fanga taalluqli bo‘lgan binolar, inshootlar qurilishi, ayniqsa keng rivojlangan. Markaziy xonalarga katta va baland gumbazlar o‘rnatilgan. Temuriylar davrida yaratilgan saroy va maqbaralar shular jumlasidandir.

Temuriylar davrida qurilgan maqbaralar shakllanish kompozitsiyasi jihatidan ikki turga bo‘lib o‘rganiladi: bir xonali va ko‘p xonali.

O‘z navbatida bir xonali maqbaralar ham ikki turga bo‘lingan. Birinchisi chortoq ko‘rinishidagi binolar bo‘lib, bu usul islom tarqalguncha otashparastlar ehromlari - otashkadalar qurilishida keng qo‘llanilgan.

Ikkinchi turni tashkil etadigan ko‘p xonali maqbaralar ko‘pincha guruh qilib emas, balki alohida-alohida imoratlar sifatida tiklangan. Misol tariqasida Samarhanddagi Oq saroy, Shohi Zinda kompleksidagi O‘lja enaga, Ishratxona, Go‘ri Amir, Toshkentdagi Yunusxon, Buxorodagi Chashmai Ayub va boshqalar kiradi.

Mazkur davrda Ulug‘bek Samarqandni dunvoning ilm-fan, madaniyat va san’ati yuksak darajada rivoj topgan shaharga aylantirgan. Buyuk adabiyotshunos va taniqli olim Alisher Navoiy ham bu yerda 3 yildan ortiq vaqt ichida yashagan va o‘qigan. Fan va madanivatni rivojlantirish yo‘lida Ulug‘bek tomonidan Samarqandda, Buxoro va G‘ijduvonda, jami uchta madrasa barpo etilgan. Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi (1417-1420-yillar tantanali kirish qismi – peshtoqdan, ichki yopiq hovli va uning atrofi bo‘ylab joylashtirilgan xonalardan iborat.

Ulardan eng yirigi 1417-20-yillarda Samarqandda qurilgani sanaladi. Tomonlari 81x56 metrni tashkil etuvchi bu inshootning bosh peshtoqining kengligi 16,5 metrga teng. To‘rt burchagida har biri uch yarusli to‘rtta minora mavjud, hozir ularning faqat birinchi yarusi (ikkitasida u ham to‘liq emas) saqlanib qolgan. Peshtoq markaziy qismida joylashmay balki peshtoqning ikki yon devoriga yondosh yeridan boshlanadigan kirish tirsaksimon yo‘lak orqali bino hovlisiga olib chiqadi.

Hovli atrofida 28 ta hujra ikki qavatli tarzda joylashgan va hujralarning har biri o‘z navbatida 2 bo‘limli qilib qurilgan. Pastki qismi kunduzi o‘tirish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, yuqori qismi yotoqxona vazifasini o‘tagan. Madrasa hovlisida tomonlarining to‘rt markaziy qismida to‘rtta mahobatli ravoqli ayvoni bor. Ravoqlardan biri bosh peshtoq orqasida joylashganidan tashqari, qolgan uchtasi yozgi darsxona vazifasini o‘tagan. Qishgi darsxonalar esa bosh peshtoqning ikkala tomonida joylashgan, hovli to‘rida madrasa toliblari va ayonlariga xizmat ko‘rsatadigan kattagina masjid joylashgan[63].



Ulug‘bek madrasasi. Samarqand. 1417-1420-yillar




Ulug‘bek madrasasi. Samarqand. (hozirgi ko‘rinishi)

Buxoro shahridagi madrasa Mirzo Ulug‘bek barpo ettirgan uch madrasaning eng qadimiysidir. Ushbu madrasa to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda, old eshigi serhasham peshtoqli ishlangan. Kiraverish – yo‘lak (miyonxona) ning bir tomonida darsxona, ikkinchi tomonida masjid jovlashgan. Miyonxonaning ikkinchi qavatida kutubxona faoliyat ko‘rsatgan. Madrasa hovlisida yana ikkita peshtoq bo‘lib, ularning har ikkala tomonida minoralar qurilgan. Peshtoqlar pastidan yuqorisigacha bejirim g‘ishtchalar, guldor koshinlardan ishlangan hoshiyador naqshlar bilan bezatilgan. Madrasaning fasadi shakli vazmin va tik, proporsiyasi e’tiborni tortadigan, konstruksiyasi va bezagi o‘ziga mosdir. Koshin bezaklari uch davrga oid: qo‘ng‘ir-ko‘k va tilla rang fonga ishlangan oq va havo rang bezaklar Ulug‘bek davriga borib

[63] Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 1995.- Б. 51-52.

taqaladi; ba’zi joylari oq va moviy rangli yorqin bezaklar XVI asrga; qora fonga ishlangan havo rang guldor mozaika XVII asrga tegishlidir. Madrasaning ichki va tashqi bezaklari rangini vo‘qotmagan. Ular tez-tez ta’mirlanib turilgan, naqshlarida vulduzsimon shakllar ko‘p tasvirlangan. Ayvon ustunlari zarhallangan bo‘lib, Masjidi Kalon ustunlariga o‘xshaydi. Madrasa eshiklariga “Bilim olish har bir musulmon va muslimaning burchidir” degan so‘zlar bitilgan. Keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra madrasaning 80 ta xonasi bo‘lgan.



Ulug‘bek madrasasi. Buxoro. 1417-yil



Ulug‘bek madrasasi. Buxoro. (hozirgi ko‘rinishi)

Ulug‘bek tomonidan qurilgan uchinchi madrasa G‘ijduvonda 1433-yilda barpo etilgan bo‘lib, bir qavatdan iborat. Ushbu madrasa XII asrda shakllana boshlagan Xo‘ja Abdulqoliq G‘ijduvoniy xazirasi oldida “qo‘sh” uslubida bunyod etilgan. Imorat peshtoqi o‘ziga xos shaklda salobatli qilib qurilgan. Peshtoq orqali gumbaz bilan yopilgan chortoqqa chiqiladi. Chortoqdan to‘griga qarab yurilsa hovliga, o‘ng tomonga yurilsa masjidga, chapga yurilsa maktab-darsxonaga kiriladi. Masjid gumbazlari to‘rt toqi ustiga o‘rnatilganligi ham pishiq konstruksiya, ham jozibador ichki ko‘rinishga erishishga xizmat qilgan. Hovli to‘rida yozgi darsxona, ikki yon tomonda 8 ta hujra mavjud.

1428-1429-yillarda Samarqandda Ulug‘bek rasadxonasi qurilgan. Rasadxona binosi vo‘qolib ketgan bo‘lib, uni ko‘p izlanish va mehnatlar evazida arxeolog V.Vyatkin 1908-yilda topgan. Doira shaklidagi u tarixiy inshootning diametri 46 m

ni, balandligi 30,4 m ni tashkil etgan. Binoning asosini burchak o‘lchagich (tik aylana) tashkil etadi. Uning radiusi 40.2 metr, yoy uzunligi 63 metrga tengdir. Inshootning asosiy asbobi – Sektant meridian bo‘ylab o‘ta aniqlikda o‘rnatilgan.



Ulug‘bek rasadxonasi.
1428-1429-yillar



Ulug‘bek rasadxonasi.
(hozirgi ko‘rinishi)

Rasadxona barpo etilishiga Ulug‘bekning shaxsan o‘zi, u bo‘lmagan vaqtlarda Qozizoda Rimiy, G‘iyosiddin Jamshid va Ali Qushchilar rahbarlik qilishadi. Imoratning ustki qismiga koshin va sirli parchinlar bilan bezak berilgan. Rasadxona etagida Mirzo Ulug‘bek bobosi Amir Temur an’anasiga ko‘ra ikkita bog‘ barpo ettiradi. Ulardan biri Bog‘i maydon, ikkinchisi Chinnixona nomi bilan ataladi. Bog‘i maydon orasida bunyod etilgan bino ikki qavatli bo‘lib, devor va ustunlariga marmardan sayqal berilgan. Chinnixonadagi imoratlarning biri toshdan, ikkinchisi chinnidan qurilgan.

Ulug’bek davrida Samarqandning Registon maydoni shakllandi, “Masjidi Muqatta’”, 210 gumbazli Ko’kaldosh jom’e masjidi qurildi. Shohi Zindada ba’zi maqbaralar, Shahrisabzda Ko‘kgumbaz masjidi, “Chilustun” va “Chinnixona” saroylari uning davrida barpo etildi. XV asrning ikkinchi yarmida Samarqandda Xo‘ja Ahror madrasasi, Ishratxona, Oqsaroy maqbaralari qurildi[64].

[64] Salayev T.A. Amir temur va temuriylar davri me’morchilik obidalari // Science and innovation international scientific journal. – 2022. – №2. – B. 78.

XIV-XV asr me’morchilik inshootlarini o‘ziga xos yangi ma’lum maqsadga qaratilgan yechimlar asosida barpo etish bilan birga, ularni bezatishda ham yangi usullar qo‘llaniladi. Imoratlarning peshtoqlari va xonalarning ichki devorlari turli xil rangdagi parchinlar, oq yoki zangori rang ustiga zarhal berilgan islimiy naqshlar, ba’zan esa epigrafik yozuvlar bilan bezatiladi. Amir Temur va temuriylar davri O’rta Osiyo me’morchiligida katta o‘rin egalladi. Mahalliy ustalar o‘zga yurtdan kelganlar bilan hamkorlikda yuksak bunyodkorlik namunalarini namoyish etdilar

Savol va topshiriqlar?

1. Amir Temur Samarqand shahrida qaysi me’moriy yodgorliklarni qurdirgan?

2. A.Temur davridagi me’morchilik ishlariga o‘z munosabatingizni bildiring.

3. Temuriylar davrida nechchi xil uslubda saroylar barpo etilgan?

4. Ulug‘bek davrida qaysi arxitekturaviy inshootlar barpo etilgan?

5. Temuriylar davridagi barpo etilgan bog‘lar to‘g‘risida so‘zlab bering.

7-ma’ruza. O‘zbekistonning XVI asr me’morchiligi

Reja:
1. XVI asr me’morchiligidagi asosiy o‘zgarishlar
2. Toq, tim va hammomlar me’morchiligi
3. Me’morchilikda madrasa, majmualar qurilish tarixi

Kalit so‘zlar: *karvonsaroy, ko‘prik, sardoba, hammom, toq, tim, guldasta, miyonsaroy Mir Arab, Toqi Sarrafon, Toqi Telpakfuro‘shon, Toqi Zargaron*

XV-XVI asrlarda Samarqandni qisqa muddatlarda Temuriylar avlodi Zahiriddin Muhammad Bobur bosib olganligi tarixdan ma’lum. Bu qisqa davr ichida Samarqandda arxitekturaviy inshoot barpo etilganligi to‘g‘risida ma’lumotlar saqlanib qolmagan[65].

XVI asr boshida o‘troq va ko‘chmanchi qabilalardan tarkib topgan yangi sulola - Shayboniyxonlar Buxoroni ishg‘ol qilganlar. XVI asrning ikkinchi yarmida poytaxt Samarqand bo‘lib qolsada, Buxoro Qoraxoniylar davlatining siyosiy markaziga aylangan. Bu davrga kelib shahar devorini yana qayta qurish zaruriyati tug’ilgan. Shaharda hunarmandchilik va savdo rivojlangan. Buxoro ko‘p davlatlar bilan savdo va diplomatik aloqalarni o‘rnatgan. 1557-yilda erkin savdoga ruxsat so‘rash uchun Buxoro vakillari Rossiyaga yuborilgan.

XVI asrda Buxoro me’morchiligi va binokorligi gullab yashnagan. Shaharning bosh rejasi o‘zgarib, shahar qayta qurilgan. Bugunga qadar saqlanib kelinayotgan madaniy meros obvektlari. inshootlari tiklangan. Noyob arxitekturaviy yodgorliklarning barpo etilishi Buxoroning o‘ziga xos me’morchilik maktabi borligidan va o‘sha davrda bu maktabning naqadar rivojlanib ketganligidan guvohlik beradi. Ana shu rivojlangan davrning noyob arxitektura yodgorliklaridan biri Masjidi Kalondir.

Masjidi Kalon joyida dastlab 1121-yilda Juma masjidi bunyod etilgan. Vaqt o‘tishi bilan u inshoot vayronaga aylangan. 1514-yilga kelib, bu inshoot Masjidi Kalon sifatida qayta qurilgan. 1997-yilda Buxoroning 2500 yillik yubileyi munosabati bilan Masjidi Kalon obdon restavratsiya qilindi. Masjidi Kalonning

[65] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur. – B 102-114.

o‘lchami va bino bezakdorligi u qadar yuqori hisoblanmasa-da, rejaviy masshtabligi jihatidan Samarqanddagi va Hirotdagi masjidlardan qolishmaydi. Bu bino qadimiyligi va mahobatliligi tomonidan Samarqanddagi Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Masjidi Kalonning bosh fasadi sharq tomonga qaragan. Yirik va mozaika bilan bezak berilgan masjid peshtoqi bir oz balandda joylashgan. Masjid hovlisiga bir necha pog‘onadan iborat zina orqali kiriladi. Hovlining ikki tarafida ikkita moviy gumbaz mavjud. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklga ega bo‘lgan bu hovlining atrofi 228 gumbazdan iborat galareya bilan o‘ralgan. Binoning ichi tantanali va sirlidir. U o‘zida ko‘plab arxitektura topilmalarini saqlab qolgan.

Tarixdan ma’lumki, ko‘p yuz yilliklar davomida Buxoroda islom dinini o‘rganuvchi ahli toliblar tarbiyalangan. XVI asrda o‘ndan ortiq madrasalar barpo etilgan bo‘lib, ulardan biri Mir Arab madrasasidir.



Mir Arab madrasasi. XVI asr



Mir Arab madrasasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Mir Arab madrasasi jahonga tanilgan va musulmon dunyosining yirik diniy oliy maktablaridan hisoblanadi. U madrasa inson tafakkurining mahsuli bo‘lgan ajoyib arxitektura yodgorligidir. Mir Arab madrasasining peshtoqi Masjidi Kalonning portali bilan yagona o‘qda joylashgan. Biroq madrasa bir oz balandroqda bunyod etilgan. Manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, u joy bir oz past bo‘lgan. Shuning uchun bino asosi tuproq bilan to‘ldirilib ko‘tarilgan. Rivoyat qilishlaricha, o‘sha davrdagi Buxoro podshosi uch ming nafar erkak va avollami qul sifatida

pullagan. Bundan tushgan mablag‘ni u Abdulla Yamaniy degan mashhur kishiga madrasa barpo etish uchun bergan[66].

Rejalashtirilgan madrasa barpo etilishi uchun an’anaviy hajm-rejaviv yechim qabul qilingan. Fasadning o‘rtasida birinchi bo‘lib ko‘zga tashlanadigan katta peshtoq mavjud. Ichki hovli burchaklari kesilgan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘lib, uning atrofida ikki qavatli ayvonli hujralar barpo etilgan. Bosh fasad bo‘ylab peshtoqning o‘ng va chap qanotida ikkita gumbazli zal joylashgan. Bosh fasad burchaklarida vazmin kichik minora – “guldasta”[67] tiklangan. Ba’zi bir yechimlar bo‘yicha masjid loyihasi mumtoz yechimlardan ajralib turadi. Kiraverishda o‘ng qo‘lda darsxona, chap qo‘lda go‘rxona bor. Dahmalar tantanavor tarzda bunyod etilgan, zal parusli konstruksiyalar bilan yopilgan. Boshqa madrasalar qurilishidan vana farqi shundaki, bu madrasadagi yashash xonalarining rejasi bir muncha takomillashgan. Hujralar gumbazli dahliz va xonalardan tashkil topgan. Yashash xonasida tokchalar yasalgan. Shu bilan birga xonalari sal qorong‘i, torroq qilib qurilgan. Mazkur madrasada voshligida o‘qigan, buxorolik taniqli tojik adibi Sadriddin Ayniv o‘zining Buxoro kitobida xonalarni izohlab, - “Odam ham, havo ham, yorug‘lik ham birgina eshikdan кiradi, o‘chog‘ning tutuni ham o‘sha yerdan chiqadi, dahlizdagi o‘choqda ovqat pishiriladi, o‘tin qo‘yiladi, vuz-qo‘l yuviladi”, degan misralarni keltiradi. Madrasaning arxitekturaviy bezagi Samarqandda qurilgan so‘nggi inshootlarning jilosiga mos keladi. Fasadda o‘ymakorlik mozaikaning terilishi, naqshlarida nafis, rangli bezak berilishi, yozuvlarning ko‘pligi o‘z tabiatiga ko‘ra serjilo tasvir varatadi. Hovlidagi bo‘ylama va ko‘ndalang devorlab bo‘ylab joylashgan portallar ham go‘zallik namunasi sifatida xizmat qiladi Me’morchilik va shaharsozlikda Mir Arab madrasasini Masjidi Kalon va Minorai Kalondan alohida holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu uchala inshoot birgalikda markaziy mahobatli kompozitsivani tashkil etgan.

[66] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur. – B 184.
[67] Guldasta - tashqi devorlar tutashgan burchakda tirgak sifatida devorga qo‘shib tiklangan ustunsimon qurilma, kichik minoradir. https://uz.Wiki pedia.org/wiki/ Gul dasta

Shuningdek, bu davr me’morchiligida toq, tim va hammomlar arxitekturasi o‘ziga xos o‘rin egallagan. Toqlar bosh magistral yo‘llarning chorrahalarida barpo etilgan. Ularning konstruksiyasi oddiy bo‘lmagan. Toqlar hozirgi vaqtda birinchi (“Toqi Sarrafon”), ikkinchi (“Toqi Telpakfuro‘shon”) va uchinchi (“Toqi Zargaron”) gumbazlar deb ham yuritiladi. Toqi Zargaronning arkali bosh gumbazi kvadrat asos ustidagi sakkizlik konstruksiyasining ustida o‘rnatilgan. U chorrahada nafaqat yo‘l harakatini tartibga solgan, shuningdek, ichki qismida chuqurlik bo‘yicha 36 ta murakkab bo‘lmagan ishlab chiqarish inventarlari joylashgan ustaxona va tilla do‘konlar ish yuritgan. Bu esa novob va nodir me’moriy yechimdir.



Toqi Zargaron. XVI asr



Toqi Zargaron. (hozirgi ko‘rinishi)

“Toqi Zargaron” shahriston bozorining taxminan bosh chorrahasiga mos keladi. U o‘zining nomini bugungacha saqlah kelgan. Ushbu inshoot qatnov yo‘lining ustida bunyod etilgan, qadimgi shahristonning markazida bo‘lgan. “Toqi Zargaron”dan janubga boraverishda chap qo‘lda Abdulloxon timi, undan keyin ro‘parasida “Toqi Telpakfuro‘shon” joylashgan. Abdulloxon timi (usti berk savdo rastasi) 1577-yilda bunyod etilgan. Tim kvadrat shaklda bo‘lib, devorlariga ikki tomondan ravoqli tokchalar joylashgan. O‘rtadagi miyonsaroy[68] baland gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz ostidagi ravoqli teshiklar yorug‘ tushishi uchun mo‘ljallangan.

[68]Miyonsaroy – 1) markaziy xona, o‘rta xona, vestibyul; 2) masjid, madrasalarga kiraverishdagi xona. https:// uz.wikipedia.org/wiki/Miyonsaroy

O‘tmishda bu timda shoyi va jun gazlama bilan savdo-sotiq qilingan. Inshoot faqat kun yorug‘igida faoliyat ko‘rsatgan. Kunduzlari xonalarni yoritishni yaxshilash maqsadida gumbaz va qator gumbazchalar tepasidagi baraban shaklida arkali fonar va fonarchalar o‘rnatilgan. Bosh gumbaz sakkizlik konstruksiyasi ustida o‘rnatilgan. Bosh gumbaz osti maydoni usti kichik gumbazlar yordamida vopilgan galarevalar bilan birlashib, yaxlit yopiq bozorni tashkil etgan. Yopiq bozorning ichi doim salqin va nisbatan qorong‘i bo‘lgan.

“Toqi Telpakfuro‘shon” (bosh kiyimlar bilan savdo-sotiq qilinadigan bozor) arxitektura yodgorligi uzun bo‘lmagan ko‘cha ustidagi gumbazlari, arkali bosh gumbazi bilan e’tiborga loyiq takrorlanmas inshootdir.

“Toqi Sarrafon” gumbazi (pul almashtirish bozori) qadimiy Shohrud arig‘i ustida bunyod etilgan. O‘tgan 400 yildan ortiq vaqt ichida gumbazli ushbu “Toqi Sarrafon” qariyb 2 m qalinlikdagi tuproq bilan ko‘milgan bo‘lgan. Arxeolog V.M. Filimonov rahbarligida o‘tkazilgan yer qazish ishlaridan keyin bu savdo bozori inshootining ajoyib qirralari ochilgan. Uning rejaviy va konstruktiv yechimlari o‘ziga xos qilib ishlangandir. Inshootning shimoliy-g‘arb tomonidan ariqqa tushadigan yog‘ochli konstruksiyasi va tushish jovida, ariq bo‘yida katta bo‘lmagan hovuz borligi aniqlangan. Izlanishlar natijalari bu bozor hududida IX asr - Somoniylar davrida aholi yashaganligini ko‘rsatgan. XIII asrning birinchi yarmida bu verda yong‘in sodir bo‘lganligini ko‘rsatuvchi daliiiy ashyolar topilgan, yong‘in Chingizxon bilan bog‘liq degan ma’lumotlar bor. XIV - XV asrlarga kelib bu yerda pishgan g‘ishtdan yirik inshoot barpo etilgandir.

“Toqi Sarrafon”dan sharq tomonga yurilsa o‘ng qo‘lda qadimiy hammom, to‘g‘riga yurilsa Labi hovuz chiqadi. Labi hovuz ansamblidan sharq tomonda uzoqroqda yana bir nodir me’moriy obida - Chor minor madrasasi joylashgan. Buxorodagi tim, toq, chorsu deb atalgan savdo rastalari me’moriy jihatdan ratsional ishlangan bo‘lib, bezak berilmasa ham salobatliligi va ichki qulayliligi bilan alohida ajralib turadi. Tabiiy yorug‘lik tushishi uchun mo‘ljallangan muhandislik yechimlari binolarni yoritish va mikroiqlimni me’yoriga keltirish imkoniyatlarini yaratgan.



Toqi Sarrafon. XVI asr



Toqi Sarrafon. (hozirgi ko‘rinishi)

XVI asr arxitekturaviy inshootlari qurilish muddatining qisqaligi, qurilish ishlari narxining pastligi va avvalgi davr inshootlariga nisbatan kam salobatli bo‘lganligi bilan ajralib turadi.

Hammomlar. Shahar me’morchilik va binokorlik tarixini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, hammomlar odatda bozorlar oldida qurilgan. Hozirgi vaqtda ham birinchi va ikkinchi toqlar yonidagi hammomlardan amalda foydalanilmoqda. Hammomlar ko‘chadan salobatli ko‘rinmasada, ichki rejaviy va hajmiy yechimlari e’tiborni o‘ziga tortadi. Hammomlarga bevosita ko‘chadan kiriladi. Arxitekturasi bir - biriga juda o‘xshash bo‘lgan hammomlarning yechinish, choy ichib hordiq chiqarish uchun yog‘och ustunli ulkan zallari bo‘lgan. Zaldan zinapoyalar orqali pastga tushilib, hammomning asosiy xonalariga kiriladi. Hammomning o‘rtasida usti gumbaz bilan yopilgan katta zali (massaj joyi) joylashgan. Katta zal atrofida yuvinish xonalari joylashtirilgan bo‘lib, ular kichik gumbazlar bilan yopilgan. Xonalarda g‘isht, tosh terib ishlangan hovuzak (bak) larda issiq va qaynoq suv saqlanadi, xonalar ostidan issiq havo bilan isitilib turiladi. Xonalardan xonalarga o‘tgan sayin issiqlik osha boradi. XVI asrda qurilgan bu hammomlarning yechimi Buxoroning an’anaviy fuqarolik binolari sifatida katta qiziqish uyg‘otgan. Unda o‘rta asr sharqining hammomlariga o‘xshash boy tuzilish yo‘q, biroq injener-texnik yechim nuqtai nazaridan zamonaning yutuqlari aks ettirilgan.

XVI asr me’morchiligida madrasalar qurilishi davom ettiriladi. Ulardan me’moriy yechimi bilan ajralib turuvchi maqbara bu Govkushon madrasasidir. 1562-1566-yillarda Buxoroning ikkinchi gumbazi – “Toqi Telpakfuro‘shon” bozori yaqinida barpo etilgan madrasa besh burchakli tarhga, hujralari to‘g‘ri bo‘lmagan geometrik shaklda ishlangan. Govkushon madrasasi va masjidning orasidan Shohrud arig‘i o‘tgan. Ammo ushbu ariq 1930-yillarda ko‘milib ketgan. Uning barpo etilishida har xil o‘lchamdagi xom va pishgan g‘isht, yog‘och, loy, tosh, tunuka va shu kabi ashyolar qo‘llanilgan. Fasadni tiklashda proporsiyaga amal qilingan, biroq ko‘chaga qaragan ayvonlarning o‘lchamiari har xil o’ziga xos yechimda ishlangan. Peshtoqning yonidagi ayvonlar kichik o‘rtadagi avvonlar katta va chekkadagi ayvonlarning o‘lchami o‘rtacha qilingan.

Govkushon madrasasining sharqiy tomoni ikki qavatli, yon va orqa taraflarida bir qavatli hujralar va mezana mavjud. Peshtoqning g‘arb tomonidagi ravoq ustidagi qanosi o‘simliksimon sirkori naqshlar bilan, kitoba qismi esa sulh xati bilan bezalganligini ko‘rish mumkin. Madrasaga kiraverishda, o‘ngda xonaqoh-masjid (darsxona) joylashgan. O‘rtadagi hovli (25×35 m) to‘rt tomondan hujralar bilan o‘ralgan. Xo‘ja masjidi quyidagilardan iborat: kirish peshtoqi, hovli atrofi g‘ishtin ravoqli ayvonlar, xonaqoh va minora. Ushbu minora(19,5 m)ga masjid tomidagi ravoqli ko‘prik orqali chiqilgan bo‘lib, u turli shakldagi g‘ishtlardan terilgan. Naqshlar yuqoriga tomon noziklashib borganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa fonusning ravoqli darchalari bilan birga minoraga nafislik bag‘ishlagan. Sharq an’analarini o‘zida mujassamlashtirgan, Govkushon madrasasi naqshdor, “Chor” uslubida ishlangan[69].

Buxorodagi madrasalar asosan xon, amaldor, badavlat kishilar va ziyoli shaxslarning tashabbusi bilan barpo etilib, nomi o’sha shaxslar ismi, ba’zan madrasa joylashgan mahalla, guzar nomi bilan atalgan. Shuningdek, bu davrda qo‘shmadrasalar ham barpo etilgan.

[69] https://meros.uz/object/xoja-govkushon-ansambli

Shulardan biri Modarixon va Abdullaxon madrasasidir. Modarixon madrasasi devori 16-asr Buxoro me’morligiga xos bo‘lib, devorning ikki chekkasi pishiq g‘isht bilan, o‘rtasi esa siniq g‘ishtlar bilan to‘ldirilgan. Madrasa binosi 1997-1998-yillarda qayta ta’mirlangan. Modarixon madrasa 1566-1567-yillarda Abdullaxon tomonidan onasi sharafiga qurib bitkazilgan.



Modarixon madrasasi. XVI-asr



Modarixon madrasasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Modarixon madrasasi Buxorodagi Abdullaxon madrasasi qarshisida joylashgan. Ikkalasi qo‘shmadrasa majmuasini tashkil qiladi. Abdullaxon madrasasi bezaklar ishlatilgan holda Sharq an’analarini o’zida mujassamlashtirgan, gumbazli uslubda qurilgan. Bir-biriga qarama-qarshi ikki madrasaning birgalikdagi ko’rinishi “qo’sh” uslub namunasi sanaladi. Abdullaxon madrasasi darvozasi girih shaklli mayda yog’och parchalaridan terilgan bo‘lib, bu xotamkori uslubidir. Madrasa o’z ro’parasidagi Modarixon madrasasiga qarab biroz egilgan holatda qurilgan hamda uning o’ziga xos tomonlaridan biri bu tuzilishining odatdagi madrasalardan farq qilishidadir. Modarixon madrasasi o’ziga xos onaga bo’lgan hurmat ramzi sifatida Abdullaxonning onasiga atab qurilgan.

Ba’zi sabablarga ko‘ra ushbu madrasa e’tibordan chetda qarovsiz qolib, tashlandiq yerga aylangan. Abdullaxon hamda Modarixon madrasalari Buxorodagi boshqa me’moriy obidalar bilan bir qatorda 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan qayta ta’mirlangan.

Buxoroning shimoli-g‘arb tomonida shahardan 10 km uzoqlikda Bahouddin Naqshbandiy madaniy meros obyekti barpo etilgan. Shayx Bahouddin Naqshband mozori yonidagi hazira – ansambl (Buxoro viloyati, XVI-asr) Bahouddin majmuasini hisoblanadi. Abdulazizxon buyrug‘iga binoan mozor tartibga solinib, hazira barpo etiladi hamda 1544 – 45-yillarda majmuaning eng katta binosi – xonaqoh barpo etiladi. Bahouddin majmuasi dahmalar, maqbara, 2 masjid, hovuz, quduq, madrasa, minora va Abdulazizxon xonaqohi kabi obyektlardan tashkil topgan. Ushbu Majmua kichik gumbazli chortoq darvozaxonadan boshlanadi. Darvozadan o‘tilgach, o‘ng tarafda kichkina masjid, chap tarafda ziyoratchilar uchun turli binolar bo‘lgan. Ulardan so‘ng yo‘l davomida chap tarafda xonlar mozori – Dahmai shohon joylashgan.

Dahmai shohon to‘g‘ri to‘rtburchak tarhli, balandligi 2.5 metr, usti kulrang marmar bilan qoplangan. Ushbu marmarlarga tokchalar, sharafalar, ustunchalar, sarv surati va turli bezaklar o‘yilgan bo‘lib, naqshlar ba’zan yozuvlar bilan aralash holda ishlangan. Bu yerda marmar o‘ymakorligi, xattotlik san’atining ajoyib namunalarini uchratish mumkin. Dahmai shohon yo‘lagidan o‘tib borilsa nafis bezatilgan peshtoqqa boriladi. Peshtoqning eshigidan o‘tganda o‘ng tomonda gumbazli maqbara mavjud. Chapda – kiraverishda olti ustunli oldi ayvonli Muzaffarxon masjidi joylashgan. Masjid yoniga ikki ustunli Hakim qushbegi masjidi tushgan. Uning janub tarafida naqshdor, shimolida esa aksincha, naqshsiz ayvonlar qurilgan. Bahouddin dahmasining atrofi chiroyli marmar panjara bilan o‘ralgan bo‘lib, marmar qoplangan kattagina murabba tarhli supadir. Bahouddin dahmasi bilan hovuz oralig‘ida quduq mavjuddir. Quduqning yonidagi shiypondan o‘tmishda tashrif buyurgan ziyoratchilarga turli ko‘rinisgdagi idishlarda “muqaddas” suv ulashilgan[70].

Ushbu davrda sardobalar qurilishi ham davom ettrilgan. Ulrdan biri O‘zbekistonning Sirdaryo viloyati Sardoba tumani Gumbaz qishlog‘ida Yog‘ochli

[70] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur. – B 209-211.

sardoba nomi bilan ataluvchi sardoba sanaladi. Me’moriy yodgorlik Mirzacho‘lda joylashgan 3 ta sardobadan biri va viloyatda shu turdagi yagona inshootdir.

Yog‘ochli sardoba o‘rta asrlarda “Xudoysera” deb ham atalgan. Hozirda unga nisbatan “Og‘och” nomi ham qo‘llaniladi. Sardoba XVI asrda o‘zbek hukmdori Abdullaxon (1557-1598) davrida bunyod etilgan bo‘lib, uning Amir Temur (1370-1405) davrida qurilishi bilan bog‘liq rivoyat bizgacha yetib kelgan.

Tarixiy yodgorlik O‘zbekiston moddiy va madaniy merosining ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan hamda davlat muhofazasiga olingan. U Sirdaryo viloyatidagi 4 ta ekoturizm obyektlaridan biri hamdir. Sardobaning atrofida sizoq suvlar ko‘tarilib ketishi oqibatida hovuz suvi hozirda istemolga yaroqsiz holatga kelib qolgan.

Yog‘ochli sardoba tarixiy yodgorligi tomonlari 75 metrdan kvadrat holida to‘silgan va umumiy maydoni 5625 kvadrat metrni tashkil qiladi. Ikki yon tomoni va orqa qismi 3 mertlik balandlikdagi beton to‘siqlar bilan o‘ralgan, oldi qismi cho‘yan bezakli to‘siqlar bilan o‘ralgan. O‘ralgan umumiy maydonning o‘rtasida Yog‘ochli sardoba tarixiy yodgorligi joylashgan. Tarixiy yodgorlik diametri 27 metr aylana holda qurilgan, balandligi 8 metr va oldi kirish qismiga 5 metr uzunlikda, 3 metr balandlikda ayvon qurilgan.

Sardobaga kirish qismi inshootning shimolida joylashgan. Kirish darvozasining eni 3 metr, balandligi 2,8 metr. Kirish arksimon bo‘lib, undan g‘ishtli zinapoyalar orqali sardoba ichkarisiga kiriladi.

XVI asr me’morchiligi Buxoro, Samarqand bilan bir qatorda Toshkentda ham bir qator madrasalar qurilgan. Ulardan biri Ko‘kaIdosh madrasasidir. XVI asrda Toshkent shahrining Chorsu maydonida Toshkent hokimining vaziri Ko‘kaldosh tomonidan qurdirilgan madrasaning gumbazlari va peshtoqlari bilan bo‘yi 20 metrga yetadigan ikki qavatli madrasa tepalikda qurilgani uchun uzoqdan ko‘rinib turgan. Madrasa 1868-yilgi zilzilada qattiq zarar ko‘rgan, 1902-1903-yillarda qayta tiklangan. Biroq asosiy peshtoq va gumbazi tuzatilmay qolgan. Peshtoqning yon tomonlari to gumbaz asosigacha va devorning kungurador qismi oddiy g‘isht bilan tekis qilib ishlab chiqilgan. Peshtoqning yon tomonlarida ham yarim doira

shaklidagi ravoqlar, burchaklarida guldastalar qurilgan. Biroq bular barchasi zilzilada tamomila qulab tushgan. Madrasa to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda bo‘lib, tomonlari 45x65 m dir. Qurilish rejasi XVI asrdagi shu tipdagi binolardan deyarli farq qilmaydi.

Uning chorsi hovlisi bo‘lib, atrofida hujralar va yozlik ayvonlari bor. Hovlining P simon yo‘llari qishki darsxonalarni masjid bilan ulaydi. Darvozadan kiraverishda chapda masjid, o‘ngda darsxona joylashgan. Ular xochsimon qilib qurilgan, tomi o‘zaro kesishadigan ravoq shaklida gumbaz qilib ishlangan. Madrasaning poydevori va devorlari kattaligi 27x27x5,5 sm li pishgan g‘isht dan ishlangan. Devor g‘ishtlari oddiy usulda terilgan, choklari ganch qorishmasi bilan pardozlangan. Madrasani bezashda me’morlar asosan old tomoniga e’tibor qilganlar. Sirkor parchin va geometrik naqshlar bilan bezatilgan hashamatli kirish peshtoqida ikki qavatli ravoq ishlangan. Peshtoqning ikki tomonida feruza rangli parchinlar bilan qoplangan baland gumbazlar bo‘lgan. Saqlanib qolingan ba’zi naqsh parchalari binoning ichi ham yuksak did bilan bezatilganligidan darak beradi.

XVI asrda me’morchilik sohasi yanada takomillashib, ko’plab jamoat binolari va inshootlar (karvonsaroy, ko‘prik, sardoba, hammom, tim va boshqa savdo rastalari) qurila boshlangan, Mahobatli binolarning tarhi, qiyofasiga o’zgartirishlar kiritilgan. Buxoro shahri qalin va baland (10 m gacha) devor bilan o‘ralib, unda shahar darvozalari o’rnatilgan. Yirik binolarda (Mir Arab madrasasi, Xo’ja Zayniddin masjid xonaqosi) xalq me’morligi an’analaridan foydalanilgan, mahobatli binolar shahar tashqarisida ham qurila boshlangan (Chorbakr).

Savol va topshiriqlar

1. XVI asr me’morchiligida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?
2. Toq va timlar qurilishida nimalarga ahamiyat berilgan?
3. XVI asrda barpo etilgan madrasalar to‘g‘risida so‘zlab bering.
4. Me’morchilikda hammomlar barpo etilishiga nima sabab bo‘ldi?
5. Toqi Sarrafon, Toqi Telpakfuro‘shon, Toqi Zargaron qurilish tarixini so‘zlab bering.

8-ma’ruza. O‘zbekistonning XVII asr me’morchiligi

Reja:

1. Ashtarxoniylar sulolasi me’morchiligi
2. Labi Hovuz ansamlining Buxoro me’morchiligida tutgan o‘rni
3. Samarqand me’morchiligida madrasa-masjidlar qurilishi

Kalit so‘zlar: *jome masjid, panjara, saroy, ayvon, madrasa, hujra, mehrob, madrasa-masjid, kundal, Labi Hovuz, Tillakori, Sherdor*

Shayboniyxon vafotidan keyin parchalana boshlagan yirik saltanat yangi Ashtarxoniylar sulolasiga yo‘l ochib berdi. Mazkur sulola saltanat tepasiga kelgach 1601-yildan 1753-yilgacha hukmronlik qildi.

Mazkur davr me’morchiligida shaharsozlikning o‘ziga xosligi avvalgi asrda boshlangan yirik me‘moriy majmualarni yaratish borasidagi jarayonlar yanada kehgaytirildi. Bu asrda Buxoroda Poyi Kalon, Labi Hovuz, Samarqandda Registon me‘moriy majmuasi o‘zining mukammal ko‘rinishini oldi. Buxoro, Shahrisabzda gumbaz-ravoqli yopiq bozorlar qurilishi keng tus oldi. Mazkur davrga kelib me‘morchilik san‘atida bezakka yanada e‘tibor orta boshladi. XVI asr ikkinchi yarmidan susaya boshlagan bu san‘at yana jonlandi. Interyer bezagida kundal uslubi (texnikasida) ishlangan naqshlar, yog‘och o‘ymakorligida ishlangan eshik va panjaralar, sergul namoyonlar davr me‘morligini ajratib turadi.

Ushbu davrda Buxoroda katta qurilishlar davom ettirildi. Shunday yodgorliklardan biri 1652-yili qurilgan Abdulazizxon madrasasi sanaladi. Xalq orasida Abdulazizxon madrasasining qurilishi bilan bog‘liq quyidagi rivoyat mashhurdir. Rivoyatga ko‘ra, Abdulazizxon olti marta Makka-yu Madinaga hajga jo‘nabdi. Safar chog‘ida bir kuni kechasi uning tushiga nuroniy bir chol kiribdi. Nuroniy chol Abdulazizxonga qarab: “Sen safardan qaytganingdan keyin o‘z vataningda shunday bir me’moriy obida qurginki, bu obida yurtingdagi boshqa obidalarga sira ham o‘xshamasin. Qurdiradigan me’moriy obidangda boqiy va foniy dunyo o‘z ifodasini topsin. Asrlar osha xalq undan bahramand bo‘lib, seni yodga olsin“, - debdi. Abdulazizxon safardan qaytganidan keyin Buxorodagi barcha ko‘zga

koʻringan ustalarni chaqirib, meʼmoriy obida qurishni va bu obidaning devorlaridagi bezaklar bir-biridan farq qilishi kerakligini, shu bilan birgalikda, devorlardan birida oʻzining siymosi ham aks ettirilishini aytibdi va “Aytgan shartlarim oʻz vaqtida bajarilmasa, boshlaringizni tanangizdan judo qilaman”, - debdi.

Biroq, oʻsha davrda odam rasmini chizish taʼqiqlangan edi. Ammo shunga qaramasdan usta-meʼmorlar bor hunarlarini ishga solib, Abdulazizxon aytgan madrasani qurishga kirishibdilar. Bu meʼmoriy obida asta-sekinlik bilan yerdan qad koʻtara boshlabdi. Oradan bir necha vaqt oʻtgandan soʻng meʼmoriy obidaning maʼlum bir qismi qurib bitkazilibdi.

Abdulazizxon oʻzi qurdirayotgan obidaning bir qismi qad rostlaganini eshitib, bu joyga tashrif buyuribdi. Ustalar madrasani Abdulazizxon aytganidan ham ziyoda qilib qurishgan ekan. Abdulazizxon madrasasiga kirib, ustalarning ishini koʻzdan kechirib, oʻng tomondagi xonaqoh tarafga qarab yuribdi. U xonaqohning janubiy devoriga ilon va chayonlar surati ishlangan boʻlib, bu foniy dunyoning mashaqqatlari haqida maʼlumot berarkan. Shimoliy qismida tasvirlangan chizgilar esa bu foniy dunyoning azob-uqubatlariga bardosh beradigan odamlarga boqiy dunyo jannat eshiklari ochiqligidan dalolat berarkan. Xonaqohning gʻarbiy devoriga ishlangan 2 ta ayiq surati mansab va boylik yaratgan tomonidan odamlarni sinab koʻrish uchun berilishini anglatsa, devorning sharqiy qismida boylik va mansabga berilib, xudoni unutmaslik haqida oyatlar bitilgan ekan.

Abdulazizxon ustalarning mahoratini koʻrib, bir tomondan quvonibdi, ikkinchi tomondan esa oʻzining surati ishlanmaganligidan jahli chiqibdi va meʼmorga qarab: “Nega mening suratimni chizmading, endi boshingni tanangdan judo qilaman!”, — debdi. Shunda meʼmor Abdulazizxonni xonaqoh eshigidan tashqariga olib chiqibdi va devorning gʻarbiy qismida chizilgan mehrob ichidagi bir dasta gul tasviriga sinchikovlik bilan qarashni soʻrabdi. Abdulazizxon qarasaki, bir dasta gulda uning siymosi gavdalanib turgan emish. Abdulazizxon yana bir marotaba ustaning mahoratiga qoyil qolibdi.

Shundan soʻng Abdulazizxon toj-u taxtdan butunlay voz kechib, toat-ibodatga berilibdi. U hukmronlikdan voz kechganidan keyin madrasaning qolgan qismi

bitkazilmay qolib ketibdi. Lekin shunday bo‘lsa ham bu madrasa Buxoroning ko‘rkiga-ko‘rk qo‘shib, hozir ham qad rostlab turibdi. Bu madrasani tomosha qilishga kelgan har bir kishi bu dunyodagi boqiy hayotning mohiyatini turfa chizgilarda ifodalangan usta me’morlarning betakror mahoratiga tan beradi[71].



Abdulazizxon madrasasi. 1652-yil



Abdulazizxon madrasasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Madrasa tuzilishi oddiy va hujralari ikki oshyonli qilib barpo etilgan. Chorsi hovlining har tarafi o‘rtasida peshtoqli ayvon joylashgan. Madrasa katta peshtoqi nozik va nodir koshinkori naqshlar bilan bezatilgan. Shu bilan birga islimiy naqshlar qatorida afsonaviy jonivorlar tasviri ham uchraydi. Madrasa hujralari, ayniqsa, janubiy ayvon peshtoqiga har xil naqshlar bilan bezak berilgan bo‘lib, gumbaz shiftining ganchli muqarnaslari orasida islimiy naqshlar va zarhal bezagi bor. Hujra devorlarida tabiat manzaralari va imoratlar tasviri ham uchraydi. Naqshlar, asosan, moviy rang bo‘yoqlar bilan chizilgan. Asosiy o‘lchami: atrof aylanasi - 50x67 metr, hovli - 28x35 metr.

Abdulazizxon madrasasi sirtdan qaraganda Ulug‘bek madrasasiga o‘xshaydi: ushbu madrasa kompozitsiyasi ham uzunchoqroq bo‘lib, old tomonining markazida ravoqli peshtoq, burchaklarida burj - guldastalar ishlangan. Ikki qavatli yon qanotlar, kiraverishdagi xonalar va hovli chor atrofidagi ikki qavatli qator ravoqlar tizmasi

[71] Jo‘rayev M., Saidova R. Buxoro afsonalari. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. B. 43-44.

ham o‘xshab ketadi[72]. Ammo, Abdulazizxon madrasasi yirikroq va murakkabroq loyihalashtirilgan. Devorllarning tashqi ko‘rinishini yozgi masjidning bir oz tashqariga bo‘rtib chiqqan qirrali devorlari buzgan. Ulug‘bek madrasasida esa uning o‘rnida ensiz peshtoq ravoq bo‘lgan. Yon tomonlarining markaziy qismidagi ikki qavatli hujralar biroz tashqariga bo‘rttirib chiqarilgan va hovli kompozitsiyasi bilan peshtoq yordamida uyg‘unlashtirilgan. Abdulazizxon madrasasining hovlisi 4 ayvon va koshinlangan burchaklardan iborat. Burchaklardagi beshqirrali yo‘laklardan shu burchaklardagi bir qancha katta-kichik hujralarga o‘tilgan. Aql idrok bilan qilingan ish natijasida qurilish maydonining har bir kvadrat metridan to‘la foydalanilgan va XIV-XV asrlarga xos g‘isht terish uslubiga yangilik kiritilgan.

Shu bilan bir qatorda XVII asr me’morlari tomonidan yopishda hech qanday yangi konstruktiv uslublar topishmagan: aksincha, masjid, darsxona tepasi XV-XVI asrlardagi uslublardan ancha bo‘sh bo‘lgan gumbazlar sistemasi bilan yopilgan. Abdulazizxon madrasasining ahamiyatli jihatlaridan biri ushbu madrasa serhasham bezalib, bezaklarning rang-barang uslublaridan foydalanilgan. Xuddi Ulug‘bek madrasasi kabi uning old tomoni hamda hovlidagi ayvon va ravoqlarga koshinli naqshlar ishlangan. Bu koshinli g‘ishtlar juda rang-barangdir: sirsiz sopol g‘ishtlar ustiga ko‘k, zangori, oq parchinlar qoplangan. Lekin ular yangicha usulda, choksiz taxtachalar holida yerga - taxminga terilgan va ganch qorishmasi yordamida keyin devorga yopishtirilgan.

O‘yma sirli sopoldan ishlangan koshin bezaklar mavzusi ham o‘zgargan. Dastlab rasm bo‘lgan mavhum o‘simliklar nusxasi o‘rniga mavzusida xayoliy jonivorlar tasvirlangan manzara qismlari paydo bo‘ladi. Bu XVII asr yodgorliklariga xosdir (Samarqanddagi Sherdor madrasasi peshtoqidagi yo‘lbars va Buxorodagi Nodir Devonbegi madrasasidagi afsonaviy qushlar tasviri). Bu madrasaning bosh peshtoqidagi koshin namoyonlarida ilon bo‘yinli afsonaviy qushlar va 2-qavatdagi timpanlarda quyoshga qarab uchyotgan afsonaviy qushlar - odam boshli semurg‘larning tasvirlari ishlangan.

[72] Mankovskaya L. Y. Qo‘sh madrasa. Toshkent: O‘zbekiston, 1977. B. 20.

Naqqoshlar rang-barang koshin qoplamalarining badiiy ta’sirchanligini yanada oshirish yo‘llarini izlashgan. Buni peshtoq chekkasida ilon bo‘yinli va boshi qushnikiga o‘xshash uzun dastali ko‘k guldon, koshin bezak ichidan ajralib ko‘zga yaqqol tashlanib turgan tasvirdan ko‘rish mumkin. Avvalgidek ravoq timpanlarini sirli sopolli bezaklar qoplagan. Hovlidagi ayvon chekkalariga yozilgan yozuvlar - Qur’on oyatlari naqshlarga aralashtirilib, ajoyib ko‘rinish hosil etgan. Bezaklar bir xil o‘lchamli (25x25 sm) sirli sopol taxtachalarga tushirilgan va kuydirilib, keyin devorlarga har xil kompozitsiya asosida yopishtirilgan.

Abdulazizxon madrasasida xonalarning ichki bezagiga alohida e’tibor berilgan. Darsxona, qishki va yozgi masjid, 2-qavatdagi kutubxona devorlari ko‘k rang zaminli zarhal bezak - xushmanzara kundal usulida tushirilgan bo‘rtma naqshlar bilan bezatilganligi uchun xuddi ustiga zarbop yopilgandek bo‘lib, boshdan-oyoq yarqirab turardi. Bunda me’morchilikning har bir qismiga, muqarnaslarning eng mayda nusxalariga ham aniq qilib mustaqil kompozitsiya: yulduzsimon va boshqa shakldagi har bir bezaklar ishlangan. Darsxona devorlarida xitoy chinnisidagi bezaklarga o‘xshatib ishlangan naqshlarni - oq zamin ustiga ko‘k rang bilan berilgan ajoyib manzaralarni, daraxtlar orasiga qo‘yilgan so‘ri, bulut va suv oqimlari tasvirlarini ko‘rish mumkin.

Madrasadagi hashamatli bezak ishlari to‘la yakunlanmagan. Peshtoq yonlaridagi muqarnasli qubbalar devorida yog‘och qoldiqlari bor, aslida bu yog‘ochlar qurilish tugaganidan so‘ng kesib tashlanadi. Old tomonining bir qanoti va hovlining g‘arbiy tomoni koshinsiz.

Mana shu hashamatli yodgorlikni bunyod qilgan me’mor va ustalarning nomlari ham ularning o‘zi yaratgan bezaklar ichida zamonlar osha bugungi kunga qadar yetib kelgan. Ular saroy me’mori Muhammad Solih, masjid naqshlarini ishlagan koshinkor usta Xo‘ja Muhammad Amin o‘g‘li Mimhoqon, xattot Mavlono Muhammad Amindir. Ularning hammasi buxorolik bo‘lib, yuksak darajada ravnaq topgan o‘ziga xos mahalliy badiiy maktab vakillaridir.

Madrasa bugungi kunga qadar asl holida yetib kelmagan. Buning sababi g‘isht terishning o‘ziga xos uslublari (devorlar 3 qat bo‘lib, orasi g‘isht va loy bilan

to‘ldirilgan) va tomdan tushgan hamda bino atrofida yig‘iladigan yog‘in-sochin suvlarining yo‘qotishni to‘g‘ri hal etilmaganligidadir[73].

Yodgorlik me’morchilik bo‘yicha mutaxassislar tomonidan to‘la va mukammal o‘rganilib, ta’mir ishlari uchun kerak bo‘lgan masalalar ko‘p yillar davomida hal etilgan. Arxitekturaviy, konstruktiv va arxeologik tekshirish natijasida arxitektura shakli va bezaklarini ta’mir qilish, qayta tiklash ishlarining loyihasi yaratilgan.

Abdulazizxon madrasasi feodal tuzumi davrining so‘nggi mahobatli me’morchilik namunalaridan biridir. Inshootning fasadi an’anaviy baland peshtoq, sakkiz burchakli gumbaz va ayvonlardan iborat. Keng to‘rt ayvonli madrasa hovlisi atrofida ikki qavatli peshayvonli xonalar mavjud. Inshootning kirish qismida miyonxona, ikkita darsxona, ichkarida chuqurlikda masjid, qolgan joylarda hujralar joylashtirilgan.

Fasad an’anaviy yechimda, uning burchaklari parus shaklida bunyod etilgan. Peshtoqda sakkiz qirrali konstruksiya ustida gumbaz o‘rnatilgan. Inshootning interyeri chiroyli pardozlangan. Madrasa bezaklari yuksak san’at darajasida mahorat bilan ishlangan. Fasad mayda gulli qilib, mozaikadan ishlangan. Katta peshtoq nafis va nodir koshin naqshlar bilan ziynatlangan. Islimiy naqshlar qatorida afsonaviy jonivorlar ham tasvirlangan. Inshootning devor va shiftlari yozuvlarga boy bo‘lib, devorlarida tabiat manzaralari va imoratlar tasviri ham uchraydi. Naqshlar, asosan moviv rang bo‘yoqlar bilan ishlangan. Bu inshootni Buxoro mahobatli arxitekturasining yetuk namunalaridan hisoblashadi.

XVII asrda barpo etilgan Buxorodagi mahobatli me‘moriy ansabllardan biri Labi Hovuz hisoblanadi. Hovuzning eni 36 m, bo‘yi 45,5 chuqurligi 5 metrdan iborat. Hovuz devorlari sinchlar bilan mustahkamlanib, shag‘al va tuproq bilan to‘ldirilgan va shibbalangan. Shuningdek, marmardan nishablar ham ishlangan. Hovuzning o‘zini ansamblni birlashtiruvchi elementi sifatida qurilishi O‘rta Osiyo shahar me’morchiligining yutug‘idir. Asr o‘rtalarida Labi Hovuz jonli savdo maydoni sanalgan. Buning asosiy sababi, bosh savdo ko‘chasining savdo

[73] Mankovskaya L. Y. Qo‘sh madrasa. Toshkent: O‘zbekiston, 1977. B. 31

gumbazlariga yaqin joylashganligi va Buxorodagi qurilishlarning nihoyatda zichligidir.

XVII asr me’morchiligida jome masjidlari saroy ko‘rinishida bezakdor qilib qurilgan. Guzar-mahalla masjidlari qishlik va yozlik - katta ayvonli qilib bunyod etilgan. Madrasalar peshtoqli, keng darsxonali, minorali qilingan. Hovlilari to’rt tomondan ayvon va hujralar bilan o’ralgan. Ko’p toq-gumbazli savdo rastalari va timlari, sardobalar bunyod etilgan. Binolarning tashqi bezaklarida jozibadorlik ancha susaygan, lekin binolarning interyerlari ilgarigidek serhasham qilib bezatilgan. XVII asr boshlarida O’rta Osiyoda avj olgan o’zaro feodal nizo va urushlar, Eronning Xivaga qilgan hujumi va boshqalar arxitektura va binokorlikka ham salbiy ta’sir ko’rsatgan. Ko‘pgina musavvirlar bu yerlardan Hindistonga, Boburiylar saroyiga ketishga majbur bo‘lganlar[74].

XVII asrning birinchi yarmida Yalangto‘sh Bahodir Samarqandda hokim bo‘ladi. Yalangto‘sh Bahodir mahobatli imoratlar bunyod etishda boshqa beklar bilan raqobat qilib, vayrona holatidagi Ulug‘bek xonaqohi o‘rniga Sherdor madrasasini, Mirzoyi karvonsaroy o‘rniga Tillakori madrasa - masjidini barpo ettirgan. Tillakori va Sherdor madrasalari yirik o‘lchamlilik, pardoz ishlarining nafisliligi bilan ajralib turadi.

Tillakori madrasasi 1646-1647-yillarda madrasa va jome masjidiga mo‘ljallanib qurilgan. U ansambldagi Ulug‘bek va Sherdor madrasalari bilan uyg‘unlashtirib qurilgan. Hovlining g‘arb tomonidagi masjidga peshtoq orqali kiriladi. Masjid xonasi ikki yonidagi ravoqli gumbazlar galereyasi tufayli keng ko‘rinish kasb etadi. Xona to‘ridagi marmar qoplamali mehrob, o‘ng tarafida marmar zinapoyali minbar mavjud. Xonaga o‘z paytida zarhal naqshlar bilan jozibador bezak berilgan.

Yalangto‘sh Bahodir umrining so‘ngi 1646-1660-yillar oralig‘ida Registon maydonining so‘nggi madrasasi Tillakori madrasasini barpo ettirgan. Bu vaqtga kelib, Samarqandning har ikki Jomiy masjidi harob holga tushib qolgan edi. Ustalar

[74] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur. – B 102.

oldida bir binoning o‘zida ham madrasa va juma masjidini mujassamlashtirishdek murakkab vazifa turardi. Tillakorining bunyod etilishi bilan Registon maydonining ajoyib bir ansambli mukammal shaklga kiradi. Ushbu qurilish me’mori maydondagi hamma binolarning yaxlit bir butun bo‘lishini yaratish uchun Tillakori madrasasi arxitekturasini mavjud binolarga uyg‘unlashtiradi. Binolarni bunyod etishda bu davrda qo‘llanilgan me’moriy qoida-qonunlardan chekinishga to‘g‘ri kelgan. Chor atrofi tutashdek taasurot qoldirish maqsadida madrasaning fasadini juda uzun qilishga to‘g‘ri kelgan. Albatta masalani shunday hal qilish g‘oyasini mahoratli me’morgina taklif etgani ko‘rinib turibdi.



Tillakori madrasasi. 1660-yil



Tillakori madrasasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Madrasa masjidning umumiy kompozitsiyasida masjid markazi o‘rin egallashi lozim edi. Ammo me’mor simmetrik maydonda yana bir markaz bo‘lishini lozim topmagan, bu esa me’morning yana bir muvaffaqqiyatidan dalolat beradi. Tillakori madrasasi fasad qismining me’morchiligi ikkita bir xil madrasaga munosib fon bo‘lib tushgan. Masjid asosiy o‘qdan chetda, bir qavatli hujralar bilan o‘ralgan katta hovlining g‘arb tomonida joylashgan. Asosiy fasadning ikki qavatli qilib ishlanganligi ulkan va hashamatli Ulug‘bek va Sherdor madrasalarini muvozanatga keltiradi.

Asosiy peshtoq maydonga qaralgan bo‘lib, uning besh qirrali ravog‘idagi ikkita eshikdan bir qavatli hujralar bilan o‘ralgan hovliga kiriladi. Hovlining ichki kompozitsiyasida simmetriya bo‘lishi uchun har bir fasadning qoq o‘rtasida shinam

peshtoq qilingan, kiraverishda chap tomonda g‘arbiy fasad bo‘ylab katta masjid bor, asosiy eshikdan masjidning katta xonasiga kiriladi. Ikki yon tomondagi ravoqli gumbazlar gallereyasi tufayli katta xona sahni ancha keng. Masjidning to‘rida odatdagiday marmar mehrob bo‘lib, uning o‘ng tarafida esa marmar zinali baland minbar joylashgan. O‘ng tarafdagi o‘n birta zinadan iborat minbarda Imomlar minbarga chiqib, namoz amallarini bajarishgan.

Me’morlar o‘z vaqtida uni assimetrik reja asosida qurishgan. Ular madrasaning uch tomonidan hujralarni, hovlining g‘arb tomonida esa – qishki masjid binosini joylashtirgan, bunda asosan ikki qavatli fasadning simmetriyasi saqlab qolingan. Madrasa hovlisi diniy yig‘ilishlar uchun mo‘ljallangan edi. Qishki masjid to‘g‘ri burchakli ustunlarga o‘rnatilgan ko‘k gumbazli galereya shaklida, uning markazida mehrobi bo‘lgan asosiy va mahobatli bino joylashgan. Devorlari, darchalari va interyer qubbalari pastdan to shiftgacha Temuriylar davriga xos bo‘lgan “kundal” uslubida tushurilgan gulli naqshlardan iborat. Bu yozuvlarga tilla suvi yugirtirilganligi uchun ham madrasa “Tillakori” (tilla bilan ishlangan) deb atalgan.

Registonning qolgan ikki madrasasidan bu madrasa ikki qator peshayvoni mavjudligi, burchaklarida minoralar yo‘qligi bilan ajralib turadi. Minoralar o‘rnini moviy gumbazchalar bilan yopilgan kichik bo‘yli burjlar egallagan[75].

Tillakori madrasasini qurilishi o‘n yilga yaqinlashganida Yalangtush Bahodir olamdan o‘tdi. Boshlangan qurilishning nihoyasiga yetkazish e’tiborsiz qoldi. Madrasa qurilishi oxirigacha yetkazilmasdan, ikkinchi qavat bilan gumbaz berkitilmay qoldi.

Tillakori madrasasining bezaklari Sherdorinikidan birmuncha farq qiladi. Sirlangan g‘ishtlardan solingan naqshlar biroz mayda ishlangan. Tillakori madrasasi qadimiy Samarqand mumtoz arxitekturasining ajoyib bosqichini yakunlaydi. Bu yodgorlikning badiiy qiymati uning o‘zi tufayligina emas, balki binoni barpo etish bilan Samarqandning Registon maydonidagi ajoyib mahobatli ansambl o‘zining nihoyasiga yetkanligidadir.

[75] Юсупов М.С. 50-лет Самаркандского музея (1896–1946 гг.). – Самарканд, 1948. – 58 б.

Sherdor madrasasi 1619-1636-yillarda Ulug‘bekning buzilgan xonaqosi o‘rnida, Ulug‘bek madrasasining qarshisida bunyod etildi. Uning fasadi Ulug‘bek madrasasi fasadi bilan asosan bir xil. Bu binolarning tuzilishi bir biriga o‘xshash lekin bir xil emas. Sherdor madrasasi satxi 70x57 metr ya’ni to‘g‘ri to‘rt burchakli bino bo‘lib, uning to‘rt ayvonli kvadrat shaklidagi hovlisi ikki qavatli hujralar bilan o‘rab olingan.



Sherdor madrasasi. 1619-1636-yillar



Sherdor madrasasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Hujralar soni 52-ta, hovlining burchaklarida darsxonalar joylashgan, lekin bu yerda masjid yo‘q, janubiy-g‘arbiy darsxona esa ziyoratxona hisoblanadi. Unga tashqi tomondan Imom Ja’far mozori tutashib ketgan. Sherdor madrasasi fasadidagi minoralar ham Ulug‘bek madrasasiga o‘xshash tik, biroq orqa tomondagi fasadlar burchagi guldasta minoralar bilan o‘ralgan. XVII asrga kelib, sathida madaniy qatlamlarning to‘planishi tufayli XV asrdagi dastlabki sathidan ikki metr baland ko‘tarilgan. Buning natijasida birmuncha pasaygan Ulug‘bek madrasasining kompozitsiyasi qisqargan. Sherdor madrasasi ham Ulug‘bek madrasasining qisqargan kompozitsiyasidek qilib barpo etilgan. Madrasa fasadining kompozitsiyasi tik minoralardan va ulkan peshtoqlardan iborat bo‘lgan. Bu binolarning arxitektura jihatidan bezashda sirlangan g‘ishtlar, o‘yma naqshlar, marmar taxtalardan foydalanilgan. Bularning hammasi yuksak did va texnik tomondan yuqori darajada ishlangan.

Naqshlar butun arxitektura yuzalarini qoplagan. Peshtoqining bezagi ayniqsa ajoyibdir. Ulkan bosh kirish peshtoqida qizg‘ish zarhal sher oq ohuni quvib ketmoqda. Sher orqasida odam yuzli bodomqovoq quyosh yarim doira shaklida tasvirlangan. Butun kompozitsiyasi zangori fonda bo‘lib, feruza va zarhal bo‘yoqlar berib ishlangan hamda bir-biriga chirmashib ketgan novdalar, ochilib yotgan oq gullardan iborat. Ushbu ajoyib rasm tufayli u Sherdor nomini olgan.

Klassik musulmon astronomiyasida quyoshning Asad burjida, ya’ni Sher ro‘parasida bo‘lishi sa’d zamon, ya’ni baxtiyor zamonga ishoratdir. Bundan ushbu binoni qurilishi ham iyul oyida bo‘lganligini anglasa bo‘ladi. Asad Sher islomda yilni beshinchi oyi ya’ni hozirgi iyul oyiga to‘g‘ri keladi.

Madrasa hovlisining dekorativ bezatilishi ham uning fasadi singari boy va hilma-xildir. Bu yerdagi guldonlar va katta guldastalar bilan ishlangan mozaik panno hamda ayvon ravoqlaridagi koshinlar bejirim ishlangan. Madrasa devorlariga shoir mavlono Sherxo‘ja she’rlari ham yozilgan. Ularda Yalangto‘sh Bahodir ko‘klarga ko‘tarilib maqtaladi. Madrasa devorlariga bitilgan yozuvlarda uni yaratgan istedodli me’morlar: me’mor Abdul Jabbor, o‘ymakor naqqosh Xasan Samarqandiy nomlari ham keltirilgan. “Ushbu inshoot me’mor Abdul Jabbor san’ati bilan barpo etildi” degan so‘zlar peshtoqning ichki arkida qora ustidan oq harflar bilan yozilgan.

Me’mor Abdul Jabbor Sherdor madrasasini O‘rta Osiyo me’morchiligiga xos uslubda yaratdi. Bu binoning rejasi Ulug‘bek madrasasiga o‘xshash bo‘lib, lekin undagi katta darsxona va masjid bo‘lmagan. Hovli o‘lchovi katta bo‘lib, sahni 37 x 37 metrni tashkil etgan.

1630-yillarda Nodir Muhammad Devonbegi tomonidan qurdirilgan Nodir Devonbegi madrasasi ham bezakka boydir. Uning peshtoqiga ishlangan afsonaviy qushlar tasviri ham uni boshqa madrasalardan ajratib turadi. Peshtoqi hamda uning ikki yonida “guldasta” va yonlarida uzunasiga ketgan ikki qavat hujralar joylashgan. Peshtoq dekori odatdagi oddiy – an’anaviy naqsh bo‘lmay, balki ustalar o‘sha davr uchun katta yangilik hisoblangan tirik mavjudot tasvirini tushirganlar. Tasvirda

oyoqlari bilan afsonaviy hayvonni mahkam qisib olib, quyoshga qarab intilayotgan afsonaviy qush – Semurg‘ ifodalangan.

Portalning qolgan qismlari o‘simlik naqshlari bilan bezatilgan bo‘lib, shuningdek, burama tanalik gullar va boshqa naqsh elementlari ham tushirilgan. Pannoda qizil ranglar ishlatilmay, asosan sovuq havorang, yashil, sariq ranglardan foydalanilgan. Ayrim manbalarda buni ob-havoning issiqligi uchun shunday yechimga kelgan degan ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek ustalar portalni badiiy bezak ishlarida an’anaviy yozuvlar, Qur’on suralaridan ham foydalanib lavhalar tushirganlar.

Ushbu davr me‘morchiligida oldingi davrlarda mavjud bo‘lgan me‘morchilik an‘analari davom ettirilib, me‘morlar bu an‘analarni yanada rivojlantirdilar. Bu xususiyat ravoq va gumbaz imkoniyatlaridan keng foydalanilib bir-biri bilan kesishadigan yo‘lak va katta zallar yaratishda hamda muqarnasli o‘ymakorlik san‘atini rivojlantirishlarida namoyon bo‘ldi.

Savol va topshiriqlar

1. Ashtarxoniylar sulolasi davri shaharsozligining o‘ziga xosligi nimadan iborat?
2. Abdulazizxon madrasasi nima sababdan bugungi kunga qadar asl holatda yetib kelmagan?
3. XVII asr o‘rtalarida Labi Hovuz nima vazifani bajargan?
4. Yalangto‘sh Bahodir hukmronlik davrida me’morchilikda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
5. Tillakori va Ulug‘bek me’moriy yodgorliklarining o‘xshash va farqli jihatlarini so‘zlab bering?

9-ma’ruza. O‘zbekistonning XVIII asr - XIX asrning birinchi yarmidagi me’morchilik

Reja:

1. O‘zbekiston XVIII asr me’morchiligi va amaliy san’at uyg‘unligi
2. Buxoro, Xiva**,** Qo‘qon xonliklari me’morchiligi takomillashuvi
3. XIX asr birinchi yarmi me’morchiligida sanoat korxonalari, ma’muriy binolar qurilishi

Kalit so‘zlar: *naqqoshlik, o‘ymakorlik koshin, ganch, mahalla, guzar, zarrinxona, sharafa, Xudoyorxon o‘rdasi, Buxoro arki, Bolohovuz masjidi, Toshhovli*

XVIII asr boshlari me’morchiligida sezilarli rivojlanish ro‘y bermagan bo‘lsada, XVIII asr oxirlaridan boshlab me’morchilik va amaliy-bezak san’ati yana rivojlana boshlagan[76].

Samarqand XVIII asrning birinchi yarmida Ashtarxoniylar, 1740-1747-yillarda Nodirshoh qo‘lida bo‘lgan. 1758-1868-yillarda esa Samarqand Buxoro amirligiga itoat qiladi. Me’moriy obidalarni ta’mirlash ishlariga avvalgiga nisbatan bir muncha ko‘proq e’tibor berilib, o‘sha davrning taniqli olimlari, muhandislari, me’morlar va xalq ustalari bu ishlarga jalb etilgan.

XIX asr boshlarida siyosiy jihatdan mustahkamlangan O’rta Osiyo yerlarida Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari tashkil topgan. Shu davrdan boshlab, mahobatli va ommaviy binolar barpo etish yana rivojlana boshlangan.

Buxoroning eng ko‘hna yodgorliklaridan biri bu Buxoro Arki hisoblanadi. Ark dastavval milloddan avvalgi 1-asrda barpo etilgan bo‘lib, arablar istilosiga qadar arkda shahar hokimlari - buxorxudotlar istiqomat qilgan. IX-X-asrlarda Somoniylar davrida Ark qayta qurilib, devor va burjlar bilan mustahkamlangan. XI-XII-asrlar Qoraxoniylar davrida va XIII-asr mo‘g‘ullar bosqinchiligi vaqtida bir necha bor vayron qilingan. Hozirgi qiyofasi asosan Shayboniylar sulolasi davrida shakllangan.

1990-yilda arxeologlar tomonidan olib borilgan qazishma ishlari natijasida Amir mehmonxonasi hisoblangan xonaqoh va uning atrofidagi hujralarning poydevorlari, hovli ichkarisidagi supa hamda sandallar ochib o‘rganildi.

[76] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur. – B 103.

Buxoroning 2500-yilligi munosabati bilan ark ichkarisidagi taxt joylashgan hovli ta’mirlanib, asl holiga keltirildi. Shuningdek, ark devorlari yangilangan holda “Go‘riyon” darvozasi qayta tiklandi. Yer sathidan 2,5–3 metr chuqurlikda gumbazsimon yer osti yo‘li borligi aniqlandi. Arkda Buxoro davlat me’moriy-badiiy muzey qo‘riqxonasi joylashgan.

Balandligi 20 metrcha bo‘lgan tepalik ustiga barpo etilgan arkning maydoni 4 ga, tarhi ko‘pburchaklidir. Turli davrlarda devorlari tosh, pishiq va xomg‘isht, paxsalar bilan mustahkamlangan. O‘pirilib tushgan joylari dastlab xomgishtdan, keyinchalik pishiq g‘ishtdan ta’mirlangan.

Pandus orqali g‘arbdagi ulkan darvozadan (XVI-asr) ichkariga kiriladi (sharq tomonida ham avval darvoza bo‘lgan). Darvozaxona peshtoqining ikki yon tomonidagi “guldasta” va ular oralig‘idagi 3 qavatli bino yaxshi saqlanib qolgan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dalon yo‘lakning chap devorida 12 va o‘ng devorida 13 taxmon tokcha qilingan. Guldasta (burj)lar tagida zax va dim yerto‘lalar bo‘lgan.



Buxoro Arki.
Mil avv. I asr-XVIII asr oxiri



Buxoro Arki.
(hozirgi ko‘rinishi)

Dalonning o‘ng tomonidagi o‘rta tokchasida afsonaviy qahramon Siyovush ruhiga Navro‘z bayramida chiroqlar yoqilgan. Amir sayisxona (otxona)siga ham shu yerdagi zinadan kirilgan. Dalondan chiqaverishda to‘pchi boshi (saroy qo‘riqchilari boshlig‘i)ning mahkamasi, shu yerdagi ayvon tagida yerto‘la mavjud bo‘lgan (bu binolar hozirda buzilib ketgan). XVIII asr oxirlarida g‘arbiy devor burchagida

peshayvonli jome masjid qurilgan. Masjid derazalari panjarali, devorlarining ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur’on oyatlari tushirilgan. Peshayvon shiftiga murakkab girihdar bilan bezak berilgan[77].

Ark darvozasining chap tomonida lashkarboshi mehmonxonasi, shimolida esa qurol yarog‘lar tuzatiladigan ustaxona va aslahaxona (qo‘rxona) joylashgan. Arkning shimoliy-sharqidagi “Childuxtaron” maqbarasi, janubiy-g‘arbda “Battol G‘oziy xonaqohi”, xos hammom qoldiqlari saqlangan.

Buxoroda shuningdek, yangi turdagi inshootlar, shu jumladan Chor-Minor barpo etilgan. U o‘zining to‘rt ko‘rkam gumbazi bilan boshqa obidalardan ajralib turadi.



Chor Minor madrasasi. 1807-yil



Chor Minor madrasasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Chor Minor madrasasi turkman Halifa Niyozqul tomonidan 1807-yilda barpo etilgan. To‘g‘ri to‘rtburchakli hovli atrofida bir qavatli ustun ayvonli xonalar jmavjud. Janubiy-g‘arbiy tomonidagi burchakda sinchli masjid qavatli bo‘lib, pastki qavati madrasaga kirish uchun yo‘lak vazifasini bajarsa, tepadagi ikkinchi qavat

[77] https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxoro_arki

kutubxona bo‘lgan. Madrasaga kirish qismi noyob me’moriy yechimda ishlangan. Markazda arka gumbazli imorat, uning to‘rt burchagida moviy gumbazli to‘rt minora bunyod etilgan. Minoralarning yuqori qismi geometrik shaklda koshin bilan naqshlangan va tepasi gumbazcha shaklda yakunlanib, koshin bilan qoplangan. Chor Minor sodda arxitekturasi hamda ajoyib kompozitsivasi bilan XIX asr me’morchiligida betakror ko‘rinishga egadir.

Xiva me’morchiligi namunalaridan biri bo‘lgan XVIII asrda barpo etilgan ko‘p ustunli Juma masjidi alohida ajralib turadi. Uning konstruktiv yechimi Arabistonning qadimgi masjidlari bilan hamohang ekanligidan dalolat beradi. Juma masjid ilk bor X-XI asrlarda qurilgan. Juma masjiding dastlabki binosi buzilib ketgan va o‘rniga 1788-yilda xuddi shu usulda undan kattaroq yangi masjid qurilgan. Masjidning minorasi ham yangidan tiklangan.

Juma masjidi tekis tomli, bir qavatli imoratdir. Uni o‘ziga xos o‘yma naqshli ustunlar qo‘riqxonasi deyishadi. Bino tomini 218 ta naqshinkor ustun ko‘tarib turadi. X - XI asrlarda qo‘yilgan naqshkor ustunlardan hozirgi vaqtda 25 tasi saqlangan. Masjidning avvalgi ustunlari Xorazmdagi turli binolardan yig‘ilib kelingan. Hamma ustunlar muayyan kompozitsiya asosida joylashtirilgan.

Bu inshootning nodir tomoni uning ustunli yechimidadir. Ustunlar pastdan yuqoriga qarab qadahsimon shaklda yo‘g‘onlashib boradi. Ustun o‘rtasi kufiy usulda yozuv bilan naqshlanib, pastki qismi juda qalin, ustki qismi nisbatan siyrak o‘yma naqshlar bilan bezatilgan. Eng qadimgi ustunlarga uchburchak shaklidagi chuqur relyefli, o‘simliksimon naqshlar solingan. XII asr ustunlarida avvalgilarining shakl mutanosibligi takrorlangan, biroq naqshlar birmuncha qayta ishlangan. Ulardagi kufiy yozuvlari barg va gul naqshlari bilan chirmashtirib yuborilgan. Juma masjid ustunlarida Xorazm xalq o‘ymakorligining boy ijodiy imkoniyatlari mujassamlashgan[78].

Bu davr binolari ichida yana karvonsaroylar, tim, hammom kabi bir qator boshqa ehtiyojlar uchun mo‘ljallangan imoratlar ham qurilgan. Jumladan,

[78] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur. – B.231.

Allaqulixon Ichan qal’aning sharqiy qismida 1832-1833-yillarda karvonsaroy va 1835-38-yillarda tim barpo ettirgan edi.

Karvonsaroy oldi peshtoqli, ikki burchagida guldasta va ularning o‘rtasida ko‘chaga qaragan rasta vazifasini bajaruvchi ikki qavatli hujralar bilan janubga qaratib bunyod etilgan. Tashqi tomonlari 69x58 metr bo‘lgan ushbu imorat 45,3x42,4 metrli hovli atrofiga ikki qavat qilib barpo etilgan hujralardan iborat. Darvozaxona ikki gumbazli miyonsaroy tarzida qurilgan. Hujralar soni jami 104 bo‘lib, birinchi qavatdagilari omborxona uchun, yuqoridagilari esa yashash uchun mo‘ljallangan. Ot-ulovdan yuk tushirish va ortishga qulay bo‘lishi uchun hovli sahni hujralarga nisbatan pastroq qilib qurilgan. Hujralar balxi gumbazli, miyonsaroy ustiga esa soxta qanos[79]ga o‘rnatilgan qubbali gumbaz mavjud. Devorlar bezakdan holi tarzda somon-shuvoq qilingan. Karvonsaroyning shimoliy devoridan yon devor sifatida foydalanib tim barpo etilgan. Karvonsaroy darvozasi oldida atrofiga to‘rtta qubba bor. Bitta asosga o‘rnatilgan katta gumbaz ishlangan yo‘lak bo‘lib, undan sharqqa - Dishon qal’aga qarab ustiga ikki qator gumbaz ishlangan yo‘lakka o‘tiladi. G‘arb tomoni ham shunday qurilgan. Timning ikki tomoni peshtoq bilan tugallanadi.

Feodal davrining so’nggi namunaviy shahar qurilishi hisoblangan Xivada ko‘plab saroy, madrasa, masjidlar qurilgan. Xivadagi Toshhovli qurilish uslubiga ko‘ra o‘ziga xos tomonlari bilan ajralib turgan.

Olloqulixon saroyi hisoblanadigan Toshhovli Xivadagi eng ko‘zga ko‘ringan me’moriy yodgorliklardan biri sanaladi. Saroy 1830-38-yillarda Olloqulixon tomonidan qurdirilgan. Toshhovli binosi barpo etilishida xalq ustalari Nurmuhammad, usta Toji va usta Qalandar Xivakiy boshchilik qilgan . Toshhovli uch hovli va 111 ta xonadan iborat: Arz hovli (darvozasi g‘arbga), ishrat hovli (darvozasi janubga), haram (darvozasi g‘arbga qaragan). Saroy Xorazm mahalliy turarjoy me’morligiga xos uslubda, shahar tashqarisidagi qo‘rg‘on hovli ko‘rinishida bo‘lganligi uchun Toshhovli deb nomlangan. Atrofi baland devor (qalinligi 1,2- 1,5 m) bilan o‘ralgan. Devor tepasi kungurali, darvoza yonlari guldastali qurilgan. 1830-

[79] Qanos — me’moriy qism; peshtoq ravog‘ining tepasidagi tumorsimon juft shakl. https://uztext.com/53266-text.html

32-yillarda dastavval haram bunyod etilgan. Bino tarhi 80×42 m, hovlisi 49×15 metr. Saroy janubiy qismida xon va uning to‘rt xotiniga mo‘ljallangan beshta alohida-alohida ayvon joylashgan bo‘lib, ulardan xonalarga dahlizlar orqali kiriladi.






Toshhovli. Hozirgi ko‘rinishi

1832-34-yillarda haramning janubiy-sharqiy qismida qabulxona (ishrat hovli tarhi 43×36,5 m) barpo etilgan. Oradan uch yil o‘tgandan keyin 1837-38-yillarda esa janubiy-g‘arbiy burchagida arz hovli (tarhi 35 × 40 m) qurilgan. Hovlilarning har birida alohida xizmatchilar xonasi, xo‘jalik xonalari, otxona joylashgan. Hovlilarda ayvonlar o‘ziga xos uslubda bunyod etilgan. Haramning janubida ikki qavatli bino oldiga baland qilib bir ustunli ayvon ishlangan. Arz hovli va ishrat hovlidagi imoratning faqat ikkinchi qavatida bir ustunli, panjara to‘siqli ayvon mavjud. Hovli markazidagi doira shaklli supaga chodir o‘rnatilib, mehmonlar kutilgan. Toshhovlining tashqi tarzi bezakdan holi tarzda yaxlit devorli qilib ishlangan.

Hovli atrofidagi ayvon va xonalar milliy me’morlik an’analari asosida bezatilgan. Devordagi ustun go‘shalar o‘rtasiga namoyonlar ishlanib, choksiz ko‘k va oq koshin qoplab, girih parchinlardan naqsh hosil qilib terilgan. Ishrat hovli va arz hovli devorlari namoyonlarga ajratilib, ko‘k, oq va havo rang koshindan gilam nusxa mujassamot yaratilgan. Ayvon devorlaridagi girih va islimiy naqshlar orasidagi doira shakllar ichida arabiy yozuvlar uchraydi. Marmar poyustun va o‘ymakori yog‘och ustunlardagi doira shakllarda Ogahiyning Xiva xonlari tarixiga oid she’rlari saqlangan.

Qo‘qon va Toshkent arklari “o‘rda” deb atalgan. Toshkentdagi o‘rda buzib tashlanganligi tufayli u to‘g‘rida juda oz ma’lumot saqlanib qolgan. Ammo Qo‘qondagi Xudoyorxon nomi bilan ma’lum bo‘lgan o‘rda bugungi kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan.



Xudoyorxon o‘rdasi. 1865-1870-yillar

Xudoyorxon o‘rdasi XIX asrda qurilgan bo‘lib, yaxlit imorat shaklida birlashgan bir nechta katta va kichik hovlilarni o‘zida mujassamlashtirgan. Uning umumiy sathi 4 gektardan iborat. 1876-yilda rus mutaxassislari tomonidan loyihalashtirilgan chizma va tasvirlarda O‘rda asosiy binoning peshtoqi oldidagi maydoni to‘rtburchakli katta tashqi hovli ko‘rinishda o‘rab olinganligini ko‘rish mumkin. Saroyga tashqi hovlidagi darvoza orqali kirilib, asosiy bino peshtoqi ro‘parasiga chiqilgan. Atrofi bog-rog‘ bilan o‘ralgan saroy asosiy binosining tomonlari 138x65 metrga teng. Imoratning old tomoniga rangdor koshinlar bilan bezak berilgan. Peshtoq yonlari va bino burchaklari burjlar bilan mustahkamlangan. Peshtoqning bosh ravoqi usti va uning ikki yonboshi bezakdor bo‘lgan. Ikki yon devorida uncha chuqur bo‘lmagan ravoqchalar mavjud. Old hovli Buxorodagi Sitorai Mohi Xossa saroyining kiraverishdagi gir ayvonchali hovlisi kabi elchi, savdogarlar va boshqa mehmonlarning hamda a’yonlarning murojaat joyi -

ko‘rinishxonasi sifatida xizmat qilgan. Bu hovlining bir qismida zarrinxona va o‘ng tomonida alohida hovlichali saroy masjidi joylashgan[80].



Xudoyorxon o‘rdasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Suningdek, Qo‘qon o‘rdasida O‘rta Osiyo arklariga xos salomxona va shohning xos xonalari, jumladan, shohnishin, xo‘jalik xonalari, hamda zarbxona mavjud. Bosh binoning ikkinchi qismi uchta alohida hovlichalarni yaxlit birlashtirib turuvchi xonning har bitta xotini uchun alohida-alohida barpo etilgan ikki oshyonali haramdan tashkil topgan. O‘rda bunyod etilishida asosiy qurilish materiali sifatida pishiq g‘isht qo‘llanilgan. O‘rda darvozasi o‘zining g‘oyatda nafis yog‘och o‘ymakorligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ayvonlardagi yog‘och o‘ymakorligi va shiflarining naqshinkorligi ham diqqatga sazovordir. Asosiy xonalarning devorlari parchin bilan birga qo‘shib ishlatilgan ganch o‘ymakorligi bilan bezatilgan.

Qo‘qon xonligining masjidlarini bir necha turga bo‘lib o‘rganiladi. Bular: mahalla (yoki guzar) masjidlari va biror bir ziyoratgoh, madrasa, saroy, bozor qoshidagi kichikroq masjidlardir. Jome masjidlari orasida Qo‘qon, Andijon va Kosonsoy masjidlari o‘zining mahobatliligi hamda me’moriy yechimi bilan ajralib turgan. Qo‘qon jome’si 98 yog‘och ustunli, oldi tomoni ochiq va qolgan uch tomoni

[80] https://uz.wikipedia.org/wiki/Xudoyorxon_o%CA%BBrdasi

g‘isht devorli binodan iborat. Masjid 1809-1822-yillarda Qo‘qon xonligini boshqargan Umarxon davrida bunyod etilgan, deb taxmin qilinadi. Masjidning baland qilib qurilgan ayvoni markazida ikki qatorli, o‘n ustunli to‘rtburchak shaklidagi uzun xonaqoh mavjud. Masjid ayvonining umumiy sahni 97,5x25,5 metr. Ayvonning old tomonida 22 metrdan balandroq bo‘lgan minora qad rostlab turibdi.

Masjidning ichki devorlari ganch bilan pardozlangan, yuqori qismiga sharafa ishlangan. Marmar tagkursiga o‘rnatilgan ko‘pqirrali ustunlar yulduzsimon muqarnaslar bilan tugallanadi. Qo‘qon xonligida mahalliy yo‘nalishga ega bo‘lgan madrasalar bunyod etish maktabi ham rivojlangan. Ulardan biri sifatida XIX asrda Qo‘qonda barpo etilgan Kamol Qozi madrasasini keltirish mumkin. Mazkur bino jome’ masjidining g‘arbida joylashgan bo‘lib, 20x 20 m chorsi sahnli hovlini o‘rab olgan an’anaviy hujra, darsxona va masjiddan iborat. Kirish peshtoqining old tarzi koshin naqshdan iborat. Ammo Buxoro, Samarqand madrasasozligidan ajralib turadigan tomoni - bu kirish yo‘lida bosh peshtoq ravoqining ikkinchi oshyonasi darsxona old ayvonchasining ko‘chaga chiqib turishidir. Madrasa ayvoni sharqqa qaratilib to‘rt ustunli qilib barpo etilgan. Bino ichkari qismi o‘yma ganchkorlikdan foydalanilib, devorlari pishiq g‘ishtdan ko‘tarilgan[81].

XVIII - XIX asrlar me’morchiligida mahobatli binolar qurilishi birmuncha rivojlandi. Ichki qismlarini koshin, tosh, ganch, yog‘och o‘ymakorligi bilan bezatish davom etgan. Naqqoshlikda, ayniqsa, islimiy naqshi rivoj topib, o‘ymakorlikda turli uslublar shakllangan

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekiston XVIII asr me’morchiligi to‘g‘risida o‘z fikringizni bildiring.
2. Amir OIimxon madrasasiga ta’rif bering.
3. Xiva me’morchiligida karvonsaroylar qurilishida nimalarga e’tibor berilgan?
4. Qo‘qon xonligining masjidlarining qanday turlari mavjud?
5. XIX asr birinchi yarmi me’morchiligida GES, sanoat korxonalari nima maqsadlarda barpo etilgan?

[81] Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 1995.- В. 88-89.

10- ma’ruza. O‘zbekistonning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi me’morlik

Reja:

1. XIX asr ikkinchi yarmi me’morchiligiga rus an’analari ta’siri
2. XX asr boshlari me’morchiligi
3. Me’morchilikda madaniyat saroylari, teatr, klublar qurilishi

Kalit so‘zlar: *galereva, terrasa, klub, madaniyat saroyi, kombinat, marmar, naqsh, yog‘och o‘ymakorligi, panno*

XIX asr ikkinchi yarmida xalq me’morchiligida paxsa, guvala, xom va yapaloq, pishiq g‘isht qo‘llanilgan bo‘lsa, XIX asr so‘nggi choragidan boshlab to‘g‘ri to‘rtburchak yuzli g‘isht, fanera, tunuka, oyna kabi qurilish materiallaridan ham keng foydalanilgan. Sinchkor konstruksiyalar o‘z ahamiyatlarini yo‘qotmagan. Ravoq, toq, gumbazlar ko‘proq, madrasa, masjid, maqbara, hammom kabi binolarda qo‘llanilgan. Bezak sifatida rangdor naqshdan, ganch va yog‘och o‘ymakorliklaridan keng foydalanilgan.

Turarjoy uylari xilma - xil qilib barpo etilgan. Oddiy aholi uylari sodda va kichik, boylarniki esa ko‘p xonali, naqshinkor edi. Aksariyati uylar tashqari va ichkari hovlilardan iborat bo‘lgan. Hovli sahnida supa bo‘lib, tok, tut, urik, olma kabi mevali daraxtlar ekilgan. Deyarli barcha hovlidan ariq o‘tkazilib, undan suv ichilgan, ekin sug‘orilgan. Toshkentda usti yopiq hovlilar ham keng tarqalgan edi. Ular ko‘pincha ikkinchi qavatda qo‘llanilgan. Shahar devoriday tashqaridagi yozlik uy – qo‘rg‘onlarning muhofasiga alohida e’tibor berilgan. Devorlari paxsadan qilinib, ba’zan guldasta bilan bezalgan. Qo‘rg‘on uylarda yopiq xonalardan ko‘ra ko‘proq ayvonlardan foydalanilgan[82].

XIX asrning 2-yarmidan boshlab Turkistonda ba’zi bir qadimiy shaharlarining chekkalarida, yonlarida yoki ulardan biror masofada “yangi shahar”lar barpo etilgan. Samarqand va Toshkentda dastlabki “yangi shahar”lar qadimgi qal’alarning buzib tashlanishi hisobiga, ularning o‘rinlarida qurildi. Xiva. Buxoro va Qo‘qon shaharlari

[82] Пўлатов Х.Ш. Ўзбекистон архитектура ёдгорликлари. – Т.: ТАҚИ, 2003. – Б 56 .

o‘zlarining asrlar davomida shakllangan shaharsozlik tizimlarini saqlab qoldilar. Buxoro shahrining “qo‘riqchisi” sifatida Kogon qurildi. Marg‘ilondan birmuncha masofada “Yangi Marg‘ilon” - hozirgi Farg‘ona shahari tashkil topdi. Turkiston shaharlari hayotida yirik va mayda ma’muriy - rejaviy tizimning ahamiyati saqlanib qolgan. Ko‘pgina shahar va yirik qishloqlarda (masalan, Parkentda) aholi dehqonchilik bilan ham shug‘ullangan (Buxoro shahari bundan mustasno). Bunday shaharlarda oilalar bahorda ko‘ch – ko‘roni bilan shahar tevaragidagi bog‘lariga chiqib ketib, kuzda hosilni yig‘ib bo‘lgach o‘z mahallalariga qaytishgan. Shaharliklarning dehdonchilik qiladigan qo‘rg‘on devordan tashqaridagi yerlari turli nom bilan atalgan: Toshkentda - mavzu yoki mavze, Samarqandda va Qarshida – bog‘ot deyilgan.

Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklarida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida me’morchilikda, turarjoylar arxitekturasida mahalliy uslublar shakllangan. Farg‘ona vodiysida hovlilar ishkomli, bo‘yama naqshlar bilan bezatilgan mehmonxona va ayvonli qilib qurilgan. Samarqand va Buxoroda hovlilar imorat va paxsa devor bilan o‘ralgan holda bir necha qismlarga bo‘lingan. Darvoza qarshisida hovuz, chorbog‘ bo‘lishiga ahamiyat berilgan. Xorazmda hovli baland paxsa devor bilan o‘ralib, uylar baland qilib qurilgan. Ustunlar o‘ymakorlik naqshlari bilan bezatilgan. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida me’morchilikda rus rassomlarining ta’siri ham katta bo‘lgan. Masalan, Sitorai Mohi Xosa saroyida kirish eshigi oldida sher haykallari o‘rnatilgan. Xona devorlarida tabiat manzaralari ishlangan. Naqqoshlikda qush va hayvonlarning tasvirlari ko‘paygan, suratkashlik san’ati kirib kelgan[83].

Xiva shahrida XIX asr oxiri - XX asr boshida ham avvalgi davrdagi kabi qurilish ishlari rivojlandi. Qurilish asosan Dishan qal’ada olib borildi. Unda bu davrda bunyod bo‘lgan Nurillaboy saroyi, Sayidboy madrasasi va masjidi, To‘rt Shabboz majmualari kabi ko‘pgina obidalar mavjud.

Xivada joylashgan eng baland inshootlardan (1908-1910-yillarda qurilgan) biri Islom Xo‘ja minorasi sanaladi. Minoraning balandligi 44,5 metr bo‘lib, Buxorodagi

[83] Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur. – B 103.

Minorai Kalondan 2 gaz chamasi past hisoblansa-da, yuqoriga qarab keskin qis'qarishi va shakli tufayli undan balandroq ko'rinadi. Diametri asos qismi 9,5 metr bo'lgan ushbu minora silliqlangan pishiq g'ishtlardan barpo etilgan. Ularni o'rab turuvchi koshinkori halqalari o'rta asrlardagidek terib chiqilmasdan balki taxtachalar sifatida yopishtirilgan[84].



Islom Xo'ja minorasi. 1908-1910-yillar



Islom Xo'ja minorasi. (hozirgi ko'rinishi)

Islomxo'ja madrasasi va minorasi Ichan qal'aning o'rta qismidagi yodgorliklar turkumiga kirib, ularni 1908 - yilda Asfandiyorxonning vaziri Islomxo'ja qurdirgan. Madrasani usta Xudoybergan xoji barpo etgan. Koshin bezaklarini Voisov va Madaminov kabi ustalar bajarishgan. Madrasa naqshlarining muallifi Eshmuhammad Xudoyberdiyevdir.

Madrasa tuzilishi va bezaklari oddiygina bo'lib, oldi peshtoqi hamda uning tomonlari ikki qavatlik ravoq va guldastalar bilan ajralgan. Ravoqlar bag'alidagi bezaklar nihoyatda sodda qilib ishlangan. Kichik hovli atrofidagi hujralar bir qavatli bo'lib, faqat kirish tomonida ikkinchi qavatda soddagina ayvon bor. Madrasaning janubiy – g'arbiy tomonida gumbazli masjid qurilgan. Ichidagi mehrobi hamda ayrim joylarida ganchdan naqshin bezak qo'llanilgan. Masjidga birikib ketgan minora madrasaga nisbatan mahobatlidir. Uning balandligi - 44,6 m, asosining

[84] Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 1995.- Б. 82.

diametri - 9,5 mni tashkil etadi. Minora yuqoriga qarab juda keskin ingichkalashib qubbali fonus - qafasa bilan tugallanadi. Tepasi sodda, lekin bezakdor naqshin xalqalar bilan o‘ralgan. Xalqalar zangori, moviy va qizg‘ish oq sirlangan g‘ishtlardan iborat. Minoraning tepa qismida moviy rangli g‘ishtlar ko‘proq bo‘lib, ular nafis qilib ishlangan.

Xivada shuningdek, XX asr boshlarida Asfandiyorxonning sobiq rasmiy qabulxonasi me’moriy yodgorlik Nurullaboy saroyi barpo etilgan. Ushbu saroy-bog‘ni Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz o‘g‘li Asfandiyorxon sharafiga bunyod ettirgan (Nurullaboy ismli shaxsning bog‘i o‘rnida barpo etilgani uchun Nurullaboy saroyi deb ataladi). Mazkur saroy 9 ta turli xil o‘lchamdagi xonalar, darvozaxona, saroy, qabulxona, arzxona, madrasa, xizmatchilar uchun turarjoy, bog‘, gulzorli hovlilardan tashkil topgan. Majmuaga (185,6x143,0 m) janubidagi ariq ustiga barpo etilgan ko‘prik orqali darvozadan kiriladi. Darvozaxonaning dalonida bir necha xonalar joylashgan. Uchinchi hovlida ikki qavatli, janubiy-g‘arbiy hovlida bir qavatli xonalar mavjud. Bosh tarzi darvozasi madrasa, turarjoy va arzxona bilan o‘zaro tutashgan. Saroy shimolidagi ikkinchi hovli ayvonlarning tomi ikkinchi qavat uchun o‘tish joyi maqsadida qurilgan. Katta hovli saroyning shimoliy-g‘arbiy qismini egallaydigan.

Qabulxona (27,5x32,1 m) saroyning shimoliy-sharqiy qismida yevropa uslubida qurilgan hamda bosh tarzi janubiga qaratilgan. Qabulxona bir qavatli bo‘lib, yettita xonasi bor.

Arzxona (82,0x71,0 m) saroyning sharqida joylashgan. Tarhi “G” shaklida, janubiy qismi uch burchakli, shimol va g‘arbga qaratilgan ayvonlari mavjud. Madrasa bosh tarzi sharqqa qaragan. Janubiy-sharqiy burchagida to‘rt ustunli ikki qavatli masjid, shimoliy-g‘arbida ayvon mavjud. Hovli atrofida darsxona va hujralar joylashgan. Tashqi devorlari va to‘rt burchagidagi guldastalar pishiq g‘isht va koshin bilan bezatilgan.



Nurullaboy saroyi. (hozirgi ko‘rinishi)

Nurullaboy saroyining ganchdan ishlangan devorlariga oltin va kumush bilan zarhal berilgan. Zalning “oltin shifti” nihoyatda jozibador bo‘lib, undagi murakkab girih naqshlar o‘zgacha ko‘rinish kasb etgan. Shuningdek, ihki va tashqi darvozalari, eshiklari, ayvon ustunlariga tushirilgan naqshinkor bezaklar Xorazm yog‘och o‘ymakorligining yuksak namunasidir. Qabulxonada joylashgan baland eshiklar, yirik rangdor oynalar, parket pollar va koshinkor pechlar yevropa me’morchiligi bilan uyg‘unlashgan holda ishlangan. Tashqi tomoniga silliq g‘ishtlar va feruza rang koshinlar bilan shaxmat taxtasi shaklida bezak berilgan.

Qashqadaryo yodgorliklari orasida Shahrisabz shahari boshqa o‘rtacha kattalikdagi shaharlar qiyofasiga o‘xshash qiyofaga ega bo‘lgan. Uning tarhida XV asrga mansub bo‘lgan shaharsozlik tizimi saqlanib qolgan. XIX asrning oxirida Shahrisabzda 52 guzar mavjud bo‘lgan. Har guzarda uning jamoat markazida oldi hovuzli hamda ko‘kalamzorlashtirilgan guzar masjidi bo‘lgan. Ba’zi hollarda guzarda boshqa xildagi, masalan, jome tipidagi masjid ham bo‘lgan. Markazga guzar ahli yi‘ilib o‘z ishlari xususida kelishib olishar edi. Bunday joylarda ba’zan maktab, madrasalar ham qurilgan. Shahrisabzda XIX asr oxirida Xo‘ja Mirhamid va Molik Ajdar masjidlari qurilgan. Birinchisi Chorsuning qarshisidagi hammom yonida, ikkinchisi Molik Ajdar guzarida joylashgan. Ikkala obidada ham yirik xonaqoh

(tomonlari 8,0 m va 8,5 m) gumbazdari burchaklaridagi ravoqlarga tayantirilgan. G‘arbga yo‘naltirilgan binolarning asosiy o‘qlarida ikki xil rangli ganchkor mehrob joylashgan. Xonaqohlarning boshqa, uchchala tomonlari taxmonlaridagi eshiklar orqali tashqariga ochiladi. Xo‘ja Mirhamid masjidining xonaqohi uch tarafdan ayvon bilan o‘ralgan. Molik Ajdar masjidida esa ayvonlar xonaqohning yonlarida joylashtirilib, asosiy kiraverish peshtoq bilan ajratilgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida o‘z davrining ilg‘or taniqli me’mor, etnograf va arxeologlarining katta qismi yashab ijod etardi. Ular arxeologik ishlar olib borib, mahalliy aholining hayoti, me’morlik obidalari va tabiatini o‘rgandilar, shaharsozlik va me’morchilik loyihalarini ishladilar. Jumladan shu yillarda arxeolog olimlar Afrosiyobda qazilma ishlarni boshlaganliklari, Bibixonim yodgorligi devoriy rasmlarini o‘rganish, ulardan ko‘chirmalar olishga e’tibor berilganligini, Ulug‘bek madrasasining og‘a boshlagan minoralarini tiklash masalalari kun tartibida qo‘yilganligini e’tirof etish mumkin. Shuningdek asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Farg‘ona va boshqa shaharlarda turli bilim yurtlari tashkil etilgan edi. Toshkentda hunarmandlar tayyorlaydigan bilim yurtining ochilish ham shu davr uchun yangilik edi.

XX asr birinchi choragida O‘zbekiston me’morchiligi uslub va yo‘nalishlarining rang barangligi va shu bilan birga shakllanib kelayotgan yangi jarayonlar mavjudligi bilan harakterlanadi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi me’morligida an’anaviy milliy me’moriy uslub yetakchi o‘rinni egallasa ham, yangi davr unga o‘z o‘zgarishlarini kirita boshladi. Davr taqozosi bilan yangi tipdagi binolar - pochta, telegraf, vokzal kabi binolar paydo bo‘la boshladi. Yangi qurilish materiallari keng ko‘lamda hayotga kirib kela borishi ham (masalan, toshoyna, turli kafellar,tunuka va b.) shu davr me’morchiligi ko‘rinishida o‘z ifodasini topa bordi.

XX asr boshlarida Buxoro me’morligi maktabi an’anaviy uslubi shu davrda qurilgan jamoat va ijtimoiy binolar, guzar, masjidlar, honoqoh va maqbaralarda hamda o‘ziga to‘q xonadonlarning uylarida, fuqaro me’morchiligida o‘z aksini topgan.

Bu davr Buxoro me’morligining o‘ziga xos yodgorliklaridan biri bu shubhasiz amirning shahar tashqarisidagi Sitorai Mohi Xossa qarorgohi hisoblanadi. O‘zbekiston milliy bezak san’ati bilan birga Yevropa an’analarining uyg‘unlashtirilishi asosida qurilgan Sitorai Mohi Hossa Buxoro xoni Abdullaxon davrida (XIX asrning ikkinchi yarmi) barpo etila boshlagan.

Sitorai Mohi Xossa amir Olimxonning yozgi saroyi bo‘lib, bu qarorgohga triumfal darvoza orqali kiriladi. Mazkur darvoza 1916-yilda qurilgan. Uning ikki tomoniga qorovulxona, tepada esa qorovullar yashashi uchun maxsus xonalar bo‘lgan. Saroy uch qismga bo‘linadi. Birinchi hovli Derun deb atalib (tashqari hovli) - asosan hunarmandchilik ustaxonalaridan iborat bo‘lgan.

Buxoroning eng zo‘r ustalarining 25 nafarini amir saroyiga taklif qilingan. Ular amir va mehmonlar uchun turli xil sovg‘a buyumlar tayyorlab turishgan. Mehmonlar o‘ziga yoqqan buyumni sotib olishi ham mumkin bo‘lgan. Bunday yo‘l tutilganligiga sabab, agar amir saroyiga tashrif buyuruvchi mehmonlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xon oldiga kirsa uni hayajon bosib aytadigan so‘zi esidan chiqib qolishi mumkin bo‘lgan. Shuning uchun bu yerda tashkil etilgan bozor bilan chalg‘igan holda ancha o‘zini bosib olgach, saroyning ikkinchi qismiga o‘tishgan.

Ikkinchi qism hovli durun - ichkari hovli bevosita amirning o‘ziga mo‘ljallangan bo‘lib, u yerda 1911-yil 4 arkali ayvon “salomxona” qurilgan. Har kuni ertalab amaldorlar shu hovlida tizilib turishgan va amir qaysi eshikdan chiqsa, o‘sha tomonga qarab ta’zim qilishgan. Saroyning o‘zida 3000 ta amaldorlar faoliyat yuritishib, ular orasida asosiy amaldorlar soni 360 taga yetgan. Asosiy 360 ta amaldor har kuni ertalab bomdod namozidan so‘ng, amirning chiqishini shu yerda kutib turishgan. Mazkur davrda bu joy markazida favvora bo‘lib, u 1914-yildan boshlab ilk bora elektrodvejok yordamida harakatga keltirilgan. Favvora qurilishida qatnashgan mahalliy ustalarning yetti nafari Yalta va Peterburgda o‘qib kelgani bois, uning tashqi ko‘rinishida Yevropa uslubi an’analari seziladi. Bino tarxini esa rus me’mori Sakovich va Margulislar chizib berishgan. Shunga asoslangan holda 400 ta ustalardan iborat jamoa ushbu binolarni qurishgan.



Sitorai Moxi Xossa saroyi.
1912-1918-yillar



Sitorai Moxi Xossa saroyi.
(hozirgi ko‘rinishi)

Amir saroyining asosiy “xonai safiy”(oq xona) taxt zaliga 1911-1913-yillarda Usta Shirin Murodov tomonidan 30 shogirdi bilan “oyna pardoz” uslubida bezak berilgan. Oynalar maxsus Italiyadan olib kelinib, 6 oy mobaynida 4 mingta oyna sinig‘i daraxt yelimi yordamida xona devorlariga o‘rnatiladi. Chunki yaxlit oyna o‘rnatilsa, vaqt o‘tib ko‘chib tushishi va uning bezaklari sinib ketishi mumkin. Shuning uchun sindirib o‘rnatilgan ganchni maxsus qorishma asosida tuyaning suti bilan tuxumning oqida qorishadi, bunga esa tuyaning suti ganchni oqligini saqlashga xizmat qilgan bo‘lsa, tuxumning oqi esa uni mustahkam ushlab turgan. Oyna ustida ganch turishi uchun esa zaytun moyi kley vazifasini o‘tagan. Mazkur xona katta o‘lchamga (17,7 x 7 metr) ega bo‘lsada, undagi bir tokchaning naqshi ikkinchi tokchaga darhol takrorlanmaydi. Va bu yerda Usta Shirin Murodov ilk bor qo‘llagan mana shu uslubi unga “Miroxor” unvonini beradi. Ya’ni bu hozirgi podpolkovnik lavozimi bilan tengdir. Va bu uslubi “Oqqush qo‘shig‘i asari” nomini olgan. Tokchadagi chinni buyumlar Xitoydan, mebellar Fransiyadan amir buyurtmasi bilan keltirilgan.

Ushbu xonaga 14x7 o‘lchamli, og‘irligi 360 kg sof jundan to‘qilgan gilam to‘shalgan. Barcha xonadagi qandillar Varshavadan keltirilgan. Eng kattasi oq zaldagisi hisoblanib, og‘irligi yarim tonnaga yetgan. Bronzadan ishlangan bu qandil lampochkalari Avstriyadan keltirilgan. Saroyga 1914-yildan boshlab elektr tokida

mazkur qandil yoqiladi. Eshik oldida amirning 16 kg tilla plastina qoplatilgan taxti turgan.U 1920-yilda olib ketilib, hozirda Ermitajda saqlanadi. Bu zal o‘zining yorqin va nafisligi bilan ajralib turadi.

Mazkur qarorgoh eski saroy va keyingi davrda qurilgan yangi saroydan iborat. Qurilish ishlari Buxoroning so‘ngi amiri Said Olimxon davrida tugatilgan (1918-yil). Bu saroyni qurilishiga rahbarlik qilgan usto Xo‘ja Xofiz ish boshlashdan avval rus me’morchilik san’ati bilan chuqur tanishgan. Rus shaharlarida jumladan, poytaxt Peterburg va Yalta shaharlarida bo‘lgan.

Xon saroyiga kirish darvozaxonasida milliy bezakning koshin uslubidan keng foydalanilgan. Shu bilan birga qurilishga turli ark va materiallar ishlatilishgan. Bu esa binoning birmuncha eklektik tomonini orttirgan.

Ushbu saroyning mehmonxonasi ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.. Xrustal lyustralar, kafelli o‘choq (pechka), yog‘ochdan yotqizilgan pollar, bagetlar, eshik va romlar xonaga faqatgina fayz kiritibgina qolmay, balki me’morchilik bezak san’atida sodir bo‘layotgan yangi jarayonlarning shakllana boshlaganligidan ham dalolat beradi.

Saroyning dahliziga ishlangan xalq ustasi naqqosh Usto Xasanjonning islimiy naqsh va gullari ham saroy ko‘rkini oshiradi. Saroyga kirish eshiklari oldiga o‘rnatilgan Abduraxim toshtarosh tomonidan ishlangan sherlar haykali ham Buxoro memorligi majmualarida san’at sinteziga e’tibor va qiziqish paydo bo‘layotganidan darak beradi. Bezatishda xrustal va oltindan lyustrali bezak ishlatilgan.

1912-1914-yillar davomida qurilgan bu saroy Milliy Sharq me’morligi an’analarining Yevropa me’morligi uslublari bilan uyg‘unlashuvini namoyish etadi. Saroy keng va ko‘rkam hovlili, hovuz va gullarga o‘ralgan bog‘ qo‘ynida joylashgan. Xonalarining ketma-ketlikda anfilada tizimida joylashuvi, golland kafeli bilan pardozlangan isitgich pechlar, turli boshqa me’moriy unsurlar (karniz, osma lyustra, toshoyna va boshqalar) saroy ko‘rinishiga yangi davr ruhini kiritadi.

Mazkur davrda Buxoroda yana bir amir saroyi rus me’mori Aleksey Leontevich Benua tomonidan bunyod etiladi. Ushbu mashhur me’morchilik yodgorligi Buxoro amiri Said-Abdul-al-Ahad-Bahodir-Xon saroyi sanalib, u Buxorodan 12 km

ichkaridagi Kogon shahrida joylashgan. Bu yillarda Buxoro amiri Said-Abdul-al-Ahad-Bahodir-Xon Rus Imperatori Nikolay II bilan do‘st tutinadi. Shundan keyin Abdul-al-Ahad-Bahodir-Xon eng sevimli o‘g‘illaridan birini Sank-Peturburgga o‘qishga yuboradi va o‘g‘li u yerda Nikolay II ning qizi knyaginya Olga bilan tanishib, do‘stlashadi. O‘g‘li o‘z yurtiga qaytganidan so‘ng Amir Nikolay II va qizini Buxoroga taklif qiladi. Bunga atab ular uchun mehmonxona qurdirmoqchi bo‘ladi. Ammo Oktabr revolyutsiyasi tufayli bu reja amalga oshmagan. Abdul-al- Ahad-Bahodir-Xon saroyi bizning davrimizgacha yaxshi saqlanib qolgan.



Abdul-al-Ahad-Bahodir-Xon saroyi. XX asr boshlari



Abdul-al-Ahad-Bahodir-Xon saroyi. (hozirgi ko‘rinishi)

Mazkur davr Buxoro me’morchiligida masjidlar qurilishiga alohida e’tibor berilgan. Shu kabi masjidlardan biri Bolohovuz masjidi hisoblanadi.

Bolohovuz masjidining katta gumbazli masjidi va bir kayvonli ayvoni hukmdor Abulfayzxonning onasi - Sitorai Mohi xossaning homiyligi ostida 1712-yilda barpo etilgan. Masjid hovli va hujralari esa XIX asrda qurilgan. M. Y. Saidjonov ma’lumotiga ko‘ra, 1915-1917-yillarda masjid ayvoni 3 kayvonli qilib qayta ta’mirdan chiqarilgan. Masjid minorasi saqlanib qolmagan, u 1917-yilda Usta Shirin Murodov va usta Hafizovlar tomonidan boshqa xil ko‘rinishda bunyod etilgan. Masjidda juma namozi o‘qilgan.

Masjid tomonlari 11,5 metrli murabba tarhli binodan iborat. Bolohovuz masjidi qalqonsimon va murakkab bo‘rtma naqshlar bilan bezatilgan. Mehrobiga nafis naqshlar ishlangan. Ganch shuvoqli peshtoq masjidning sharq tomonida qurilgan. Peshtoqning yon tomonlariga ikki qavatli baland tokchali hujralar joylashgan.

Masjidning 20 ta baland va ingichka yog‘och ustunli ayvoni mavjud bo‘lib, ayvonning yon devorlaridagi tokchalari naqshlar bilan bezatilgan. Masjidning ayvoni va qandil osilgan shifti ayniqsa serhashamligi bilan diqqatga sazovordir.

XX asr boshlaridagi Buxoro va Xiva me’morligida an’anaviy memoriy uslub yetakchi o‘rinni egallasa, Turkiston general-gubernatorligi hududida turli yevropacha me’moriy uslublar yetakchi o‘ringa chiqdi. Ayni shu hududda asr boshlarida yevropa va milliy me’morchilik uslublar mutanosibligi masalasida izlanishlar sezila boshlagan edi.

Gubernatorlik poytaxti bo‘lgan Toshkent yana muhim shaharlaridan Samarqand, Farg‘ona, Qo‘qon, Andijon kabi shaharlarida barpo etilgan ijtimoiy-madaniy ma’rifiy va diniy binolarda hamda boylarning shaxsiy uy va qo‘rg‘onlarida shu davr me’morligida sodir bo‘lgan jarayonlar o‘z ifodasini topdi. Bu ishlarda Turkistonda yashab ijod etgan rus me’morlari G.Svarichevskiy, K.Tiltin, I.Markevich, L.Voronin, L.Benua, V.Geynselman, Lidval kabi ijodkorlar sezilarli iz qoldirdilar.

Qurilish ishlari ayniqsa Turkiston general gubernatorligi poytaxti hisoblanadigan Toshkent shahrida sezilarli bo‘ldi. XX asr boshlarida sodir bo‘lgan jarayonlar shu yerda qurilgan binolarda o‘z ifodasini topdi. Buni natijasini Zobitlar uyi, Universal shaxsiy do‘konlar, aptekalarda ko‘rish mumkin. Masalan 1906-yilda me’mor Georgiy Mixaylovich Svarichevskiy tomonidan barpo etilgan Qoplon aptekasi bunga misol bo‘la oladi. Avvaliga ushbu apteka mashhur botanik, aptekachi I. I. Krauzega tegishli bo‘lgan. Uning vafotidan so‘ng esa Qoplon nomi bilan atala boshlagan. Sovet davrida binoga uchinchi etaj qurilib, u yerga Universitet joylashtiriladi. Bugungi kunda ushbu bino o‘rnini “Ipoteka” banki idorasi egallagan.



Qoplon aptekasi. 1906-yil



Hozirgi kunda Ipoteka banki

Bu davrda qurilgan yana bir me’morchilik yodgorliklaridan biri bu Toshkent shahrida joylashgan “Xiva” kinoteatri hisblanadi. Bu kinoteatrning “Xiva” deb nomlanishi knyaz Iskandar-Romanovning 1873-yilda Xivaga qilgan yurishi bilan bog‘liqdir.

Bu imorat sobiq knyazning muvaffaqiyatli biznes g‘oyasi asosida yaratilgan. 1909-yilda ushbu g‘oya asosida me’mor Georgiy Mixaylovich Svarichevskiy kinoteatrni yog‘ochdan bunyod etdi. “Xiva” kinoteatri o‘z davrida knyazga ulkan daromad keltirdi. 1917-yilda “Qishgi Xiva” deb nom olgan bebaho elektroteatr yonib ketgan. Uning o‘rniga knyaz Iskandar Romanovning rafiqasi Nadejda Aleksandrovna o‘z sarmoyasi hisobiga kinoteatrni g‘ishtdan qurdiradi. Knyagina o‘z qo‘li bilan yozib qoldirgan ma’lumotlaridan birida ushbu kinoteatr mablag‘i uchun brilliantlarini sotgani aytib o‘tilgan. “Xiva” kinoteatri 1966-yil zilzila sodir bo‘lgunga qadar yaxshi holatda saqlangan. Zilziladan so‘ng esa kinoteatr buzilib ketgan. G.M. Svarichevskiyning “Xiva” kinoteatri binosi sharq va g‘arb me’morlik uslublari uyg‘unlashgan holda xiva hamda buxoro me’morligini eslatadi.

Aksincha, mazkur davrda qurilgan Blagoveshenskiy cherkovi binosi ko‘rinishida esa psevdorus, Yupatov sirki (1913-yil) binosi, me’mor

I.A.Markevichning Toshkentdagi Bank binosida (1915-yil) renesans uslubi va qisman modern uslubi unsurlari uyg‘unlashib ketganligini ko‘rish mumkin.

Gubernatorlik tarkibida bo‘lgan Samarqand, Farg‘ona va Qo‘qon shaharlarida ham XIX asr oxiri XX asr boshlarida qurilish ishlari keng ko‘lamda olib borildi. Yangi tipdagi binolar qurildi, boylar uylari ham yangi davr ruhida ishlandi. Mahalliy va rus boylari, savdogarlar uchun hashamatli shaxsiy uy va qasrlar, bank va savdo rastalari barpo etildi. Ularning ichki va tashqi bezaklari uchun mahalliy san’atkorlar va xalq ustalari taklif etildi.

1920-1930-yillar O‘zbekistonda zamonaviy me’morchilik san’atining shakllanish yillari bo‘ldi. Mazkur yillarda uning dastlabki namunalari paydo bo‘ldi. 1920-yillarda kichik sanoat korxonalari, maktab, gidroelektrostansiyalar qurilishlarida o‘zgartirishlar kiritilib, me’morchilikda uning yangi tiplari yuzaga kela boshladi. Ushbu qurilmagalarga Toshkentda Bo‘zsuv gidroelektro stansiyasi, jamoat oshxona va klublar, hammom, dizel stansiyalarini misol keltirish mumkin. 1926-yilda Toshkent yaqinida Bo‘zsuv elektrostansiyasi qurildi, u gidroenergetika sohasida birinchi va O‘zbekiston quruvchilari va iste’molchilari uchun maktab hamda gidroenergetika beshigi bo‘lib qoldi. Shundan keyin Toshkentda Toshramning ikkinchi issiqlik dizel stansiyasi barpo etildi. Bu ikki stansiya respublikada Toshkent sanoat va kommunal xo‘jaligini elektr energiyasi bilan ta’minladi.

XX asr boshlarida qurilgan dizel stansiyalari avvaliga unchalik qiziqish uyg‘otmagan. Faqatgina Toshkent shahrida bunyod etilgan dizel stansiyasi e’tiborni o‘ziga tortadi. Bu binolar odatda mustahkam pishiq g‘ishtdan ishlangan. Toshkent shahrida bunyod etilgan dizel stansiyasi shahar markaziga ikki kompleksda qurilgan. Binolar birida dizel elektrostansiyasi, ustaxonalar, ma’muriy binolar va xodimlar uyi qad rostlagan bo‘lib, Kuropat va Gogolev ko‘chasida joylashgan. Ikkinchi binoda tramvaylar remont qilinib, shu yerga qo‘yib ketilgan.

Bu komplekslar me’mor V. S. Geynselman tomonidan 1908-1912-yillarda qurilgan. Toshkentdagi mazkur dizel elektrostansiyasi aynan tramvaylar uchun barpo etilgan. Ungacha bu yerda elektr energiyasi bilan ishlaydigan tramvaylar

bo‘lmagan. Binolar barcha tomondan paneldan ishlangan ko‘p kvartirali uylar bilan o‘ralgan.

Tiklanish davrining oxirgi yillariga kelib birinchi yirik sanoat korxonasi – Toshkent qishloq xo‘jaligi mashinasozligi (Tashselmash) ishga tushdi. Keyinroq esa sanoat korxonalarining dastlabki namunasi Toshkent qishloq xo‘jaligi mashinalari zavodi va boshqalar (bu binolar ko‘pchiligi keyinchalik buzib tashlangan) qurildi. Bu binolar O‘zbekistonda yashab ijod qilgan rus memorlari A.Petelin, N.Bleze, K.Babievskiylar loyihasi asosida barpo etilgan.

Toshkentda paxta sanoatining qaldirg‘ochi, yirik miqyosidagi korxona – to‘qimachilik korxonasi hamda qisman shaharni elektr energiyasi bilan ta’minlaydigan yirik issiqlik elektr markazi bunyod etildi. Bu davrda O‘zbekistonda 500 dan ortiq sanoat korxonalari qurilgan edi. Bu sanoat korxonalari respublika qiyofasini tubdan o‘zgartirib yubordi.

Dastlab qurilgan yirik sanoat korxonalari O‘zbekistonda yangi shaharlar barpo etilishiga imkon yaratdi. Yerga jamoat mulki deb qarash yangi shaharlarning keng muhitini erkin shakllantirishga , ularni maqsadga muvofiq rejalar bilan ta’minlashga turtki bo‘ladi. Rejalar asosida qurilgan shahar tuzilmasida yirik turarjoy majmualari rivojlandi.

Bu esa yangi shaharlarning mikrotumanlarini tartibsiz qurib tashlangan eski mahallalardan keskin ajratib turar edi. Bunday davrda shaharlar orasida Yangiyo‘l (1934-yil) va Chirchiq shaharlari alohida diqqatga molik.

Chirchiq-O‘zbekiston shaharlari ichida dastlabkilaridan biri edi. U 1934-yilda barpo etilgan va ishchilarning manzilgohlarini o‘z ichiga olgan edi. Bularga Yuqori ijtimoiy shaharcha, Quyi ijtimoiy shaharcha, Bo‘zsuv, Quyi Komsomol kabi shaharchalarni misol keltirish mumkin.

1930-yillarga kelib qurilish ishlari birmuncha kengaydi. Yangidan yangi sanoat korxonalari, binolari ishga tushdi. Shunday ishlar, ayniqsa, respublikaning yangi poytaxti Toshkent shahrida sezilarli darajada amalga oshirildi (1930-yili Toshkent shahri - O‘zbekistonning poytaxtiga aylantirilgan. Ungacha Samarqand poytaxt bo‘lgan).

Ma’muriy – ma’rifiy bino majmualari, saroy va sport koshonalari, saylgoh va hiyobonlar qad ko‘tardi, fuqarolar, jumladan, mutaxassislar uchun mo‘ljallangan ko‘p qavatli turarjoy binolari, maktab va bolalar bog‘chalari, sog‘lomlashtirish majmualari, xotin-qizlar o‘qishi uchun mo‘ljallangan maxsus bilim yurtlari, gimnaziyalar barpo etildi.

Bunga misol tariqasida Marina xotin-qizlar bilim yurtini misol keltirib o‘tish o‘rinlidir. Bino 1910-yilda me’mor G. M. Svarichevskiy loyihasi asosida barpo etilgan. Ushbu bino bunyod etilgunga qadar qiz bolalarni faqat uyda muallim yollagan holda o‘qitishgan. Avvaliga mazkur Marina xotin-qizlar bilim yurti hududida qatllar amalga oshirilgan. Hozirgi kunda esa uning o‘rniga Fransiya elchixonasi qad rostlab turibdi.



Marina xotin-qizlar bilim yurti. 1910-yil



Hozirgi kunda Fransiya elchixonasi

1912-1913-yillarda Ikkinchi xotin-qizlar gimnaziyasi ishga tushiriladi. Birinchi xotin-qizlar gimnaziyasi me’mor Ye. Dubrovin rejasi asosida Skverda o‘g‘il bolalar gimnaziyasi yonida qurilgan edi. Mazkur Ikkinchi xotin-qizlar gimnaziyasi esa me’mor G.M. Svarichevskiy tomonidan loyihalashtirilib, barpo etilgan. Keyinchalik ushbu bino Aviatsiya texnikumiga aylantiriladi. Bugungi kunda esa bu bino maydonida Vestminster Universiteti joylashgan.



Ikkinchi xotin-qizlar gimnaziyasi. 1912-1913-yillar



Hozirgi kunda Vestminster Universiteti

Toshkent shahrida mazkur davrda shuningdek turli xildagi arzon oshxonalar, restoranlar, qahvaxonalar bunyod etilgan. Ammo bu kabi tamaddixonalarning umumiy bir joyga birlashtiradigan sifatli zamon talabiga javob beradigani bo‘lmagan. Odatda mazkur binolar remont qilinmagan, sanitariya talablariga javob bermaydigan, odamlar ko‘p to‘planadigan joylar bozorlar, vokzal va shahar bog‘lari yaqinida qurilgan.

Ko‘pgina restoranlar faqatgina yoz oylarida ishlagan. Ba’zi bir restoranlar esa mehmonxonalar binosida joylashgan. Mehmonxonadagi ushbu restoranlar mehmonxonada vaqtinchalik turadigan mijozlar bilan birgalikda tashqaridan keladigan mijozlarga ham xizmat ko‘rsatgan. Bu yillardagi mehmonxonalar arxitekturasi me’morchilik badiiy qiymati jihatidan yuqori bo‘lmay, ularning ko‘rinishi savdo-sotiq binosini eslatgan.

1912-yillarda qurilgan mehmonxonalardan eng mashhuri bu “Regina” mehmonxonasi hisoblanadi. Ushbu uncha katta bo‘lmagan gumbazli bino me’mor G. M. Svarichevskiy tomonidan qurilgan. Restoran ko‘p qirrali zallardan iborat bo‘lib, bu bir etajli imoratni mahalliy me’morchilikning eng yaxshi namunasi deb bo‘lmaydi. Hozirgi kunda “Regina” mehmonxonasi o‘rnida “Zarafshon” restorani joylashgan.

Xususan, bu yillarda O‘zbekistonga kelgan ayrim me’morlar ijodida konstruktivizm g‘oyalarini ko‘rish mumkin. Biroq respublikada yetarli moddiy-

texnik qurilish bazasining yo‘qligi tufayli g‘ishtli uylarni temir-betonli uylarga o‘xshatib qurish odat tusiga kirgan.

1920-1940-yillarda eski shaharlarni rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirila boshlandi. Ko‘p kvartirali binolar barpo etilib, bino atrofi obodonchiligiga etibor berildi. Agar 1920-yillar O‘zbekiston me’morlik san’atida konstruktivizm uslubi belgilarini ko‘rsak, aksincha 1930-yillarda qurilgan yirik inshoot va qurilmalarda klassitsizm uslubida memoriy loyihalar amalga oshirila boshlandi.

Yangi davr memorligining o‘ziga xos tomoni katta shaharlarda qurilgan qo‘p qavatli turarjoylar, madaniy ma’muriy binolar qiyofasida ko‘zga tashlanadi. Ular tashqi bezakka boy. Turli dekorativ shakllar, eshik atrofi peshtoq ko‘rinishlari, deraza atrofi bezakdorligi, shuningdek devor yuzalarida bo‘rtma tasvirli bezaklar oq - sariq qizg‘ish oxra ranglari fonida oq bilan ajratilgan.

1940-yillarning ikkinchi yarmidan shaharlarda katta maydon, keng ko‘chalar yaratishga ahamiyat berilgan. Toshkentda Navoiy, Usmon Yusupov, Furqat ko‘chalari, Xadra, Komsomol teatr maydonlari bunyod qilingan. 1945-yilda Farhod GESi va metallurgiya zavodi bazasida Bekobod shahri vujudga kelgan. Angren, Ohangaron, Olmaliq kabi sanoat shaharchalari, posyolkalar qurilgan. Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri binosi qurilishi O‘zbekiston me’morchilik tarixida muhim voqea bo‘lgan.

Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri binosi me’morchiligida o‘zbek xalqining qadimiy - badiiy an’analari o‘z ifodasini topgan. Bino mashhur me’mor akademik A.V.Shchusev loyihasi va uning rahbarligida o‘zbek xalq san’atkorlari bilan hamkorlikda 1947-yilda yaratilgan. Uning tuzilishida klassik sxema asos qilib olingan bo‘lsada, milliy tusda ishlangan. Bino tashqi tomondan maxsus pardozlangan g‘ishtchalar bilan qoplangan. Uning bezaklarida ganch, marmar, yog‘ochdan keng foydalanilgan. Binoga kiraverish peshayvon shaklidagi ravoqlar (3 tasi oldda, 2 tasi yonda) qatoridan iborat. Yon tomondagi ayvonlarning har biri to‘qqiz ravoqdan tashkil topgan.



Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri. 1947-yil



Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri.(hozirgi ko‘rinishi)

Ushbu imorat bezak qismida T. Arslonqulov, A. Boltayev, Q. Jalilov, S. Norqo‘ziyev, Usta Shirin Murodov kabi bir qator ustalar ishtirok etishgan. Imorat tarzi va interyer qismlari bezaklarida milliy me’morlik an’analari qo‘llanilgan. Devorlarida Ch. Ahmarovning A. Navoiy asarlariga bag‘ishlangan miniatyura asarlari tasvirlangan. Bino tarzlarini peshayvon shaklida baro etilgan ravoqlar qatori tashkil etadi. Foye, tomosha zali, sahna va boshqa ayrim xonalar uchinchi qavatga joylashgan. Imoratning pastki zalidagi devoriy suratlarda musiqa, raqs she’riyat va rassomlikni ifoda etuvchi majoziy ma’noda go‘zal ayollar obrazlari aks etgan. Shuningdek, imorat foyelarida U. Tansiqboyev, M. Arinin, K. Cheprakov va boshqa bir qator rassomlar qo‘shimcha devoriy suratlar ishlaganlar[85].

Binoning ichki qismi - foye, tomosha zali, sahna, artistlar uchun mo‘ljallangan xonalar va uch qavatda joylashgan zallardan iborat. Binoning mashhur bo‘lishida o‘zbek xalqining ganchkorlik san’ati katta rol o‘ynagan. Bezakchilikda asrlar davomida sayqal topgan qadimiy san’atning yetuk namunalari yaratilgan. Naqsh ishlarining turli xil uslublari namoyish qilingan.

Buxoro xonasi qadimiy naqshlar, arxitektura detallari va ganch o’ymakorligi ijodiy jamlanib, juda chiroyli ishlangan. Bu xona oynavand zaminda jimjimadorligi, o‘ymakorligi, barcha qismlarning o‘zaro monandligi, bezaklarning nozik va nafisligi bilan ajralib turadi. Toshkent xonasida lavha(panno)lar, ravoq va ajoyib guldastalar ishlangan. Devorlar majnuntol va doira shaklidagi palaklar, nozik gullar bilan

[85] https://uz.wikipedia.org/wiki/Navoiy_teatri

bezatilgan. Xiva xonasida ganch, marmarga ishlangan shakl va naqshlar ilmiy uslubda yaratilgan. Sarnarqand xonasi o‘ymakorlik bezaklaridan yirik gul va barglar shakllarining bo‘rtmali o‘yilishi, muqarnasli gumbaz va bezakdor lavhalar bilan go‘zal ishlangan. Farg‘ona xonasida o‘lkaning me’moriy bezaklariga xos bo‘lgan o‘simlik - gulsimon bezaklar asosiy o‘rin egallagan. Termiz xonasi shaharning unutilib ketgan mayda davra va jangarilik tasvirli o‘ymakorligi bilan yangidan jonlantirilgan. Bino ichidagi marmardan yasalgan ikki asosiy zina panjaralariga naqshlar o‘yilgan. Pastki zal devorlarida to‘rt xil san’at turi - musiqa, raqs, she’riyat va rassomlikni ifodalovchi majoziy obrazlar (go‘zal ayollar) tasvirlangan. Ikkinchi qavatning o‘rta zalida Navoiyning dostonlari asosida lavhalar ishlangan. Tasvirlarda zangori, pushti, kumush, sarg‘ish kabi mayin ranglardan foydalanilgan.

1950-yillarda kelib esa Toshkentda klub, kinoteatr, madaniyat saroylari quriIishida milliy me’morchilik an’analaridan (galereva, terrasa) foydalanilgan. 1950-yillarning ikkinchi yarmidan turar-jovlar qurilishi keng ko‘lamda davom ettirilgan. Toshkentning janubi-sharqiy qismida Chilonzor turarjoy massivi vujudga kelgan. Keyinroq, boshqa turarjoy massivlari ham qurilgan. Turarjoy massivlari Samarqand, Buxoro, Farg‘ona, Andijon va boshqa shaharlarda ham bunyod etilgan. Andijon, Namangan drama teatrlari, Samarqand opera va balet teatri qurilgan. Chirchiq, Yangiyo‘l, Angren, Yangiyer, Olmaliq kabi yangi shaharlarda ham ko‘p qavatli turarjoylar barpo qilingan. 1950-yillarning ikkinchi yarmi, 1960-yillarning boshlarida Toshkentda “Toshkent” mehmonxonasi (1956), hozirgi Prezident devoni kompleksining eski binolari, Markaziy univermag, “Paxtakor” stadioni barpo etilgan. Boshqa shaharlarda ham ma’muriy, madaniy-maishiy xizmat binolari, oliy o‘quv yurtlari, maktablar, kasalxona, poliklinika binolari, savdo markazlari qurish ishlariga e’tibor kuchaygan. 1960-yillarda barpo etilgan Navoiy, Zarafshon shaharlarida ko‘p qavatli uylar atrofini ko‘kalamzorlashtirishga alohida ahamiyat berilgan.

1960-1970-yillarda qurilishda yangi konstruksiyalar, yangi qurilish materiallaridan foydalanilgan, binolar mahobatlashtirilgan. Milliy an’analar zamonaviy arxitektura shakllari bilan uyg‘unlashtirilgan. Mahobatli san’at asarlari

(haykaltaroshlik, devoriy rasm, naqsh, koshin va parchindan hosil qilingan tasvirlar) bilan arxitektura sinteziga erishilgan. 1960-yillarda bunyod etilgan Toshkent yirik panel uysozlik kombinati, Samarqand. Buxoro, Andijon, Namangan, Chirchiq, Farg‘ona uysozlik kombinatlari qurilishda progressiv metodlarga o‘tishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Turarjoylarni tipovoy loyihalar asosida qurishga ahamiyat berilgan. 1966-yilda Samarqand me’morchilik va qurilish instituti ochilgan va u ham mamlakatimizga iqtidorli arxitektor kadrlar va muhandis quruvchilar yetkazib berishga o‘z hissasini qo‘sha boshlagan.

Shahar aholisi va sanoat tarmoqlarining tez o‘sishi Toshkentning bosh rejasini ham qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi. 1964-yilda bu ish amalga oshirilgan bo‘lsada, biroq 1966-yil 26-apreldagi Toshkent zilzilasi munosabati bilan bu loyiha ham qayta ko‘rib chiqildi va ba’zi o‘zgarishlar kiritilib 1967-yiIda yangidan tasdiqlandi. Respublika arxitektorlari, binokorlari, ayniqsa Toshkent markazini loyihalash va qurishda o‘z mahoratlarini namoyish etganlar. Markaz 1966-1974-yillarda barpo etildi. Toshkentda poytaxtning bosh maydoni yaratilgan. U maydon poytaxtning turli namoyishlar o‘tkaziladigan joyi hisoblangan.

Shu bilan birga Toshkent shahri bosh loyihasida shahar (Sergeli tumani bilan) aholisi 1,5 mln. umumiy maydoni 25,6 ming ga bo‘lishi nazarda tutilgan. Shu loyiha asosida Toshkentda yangi mikrorayonlar, maktab, bog‘cha-yaslilar, poliklinika, kasalxona, ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlari, oliy o‘quv yurtlari binolari, ishlab chiqarish korxonalari, madaniy-maishiv muassasalar, 5 mln 794 mingdan ortiq turarjoy qurilgan.

1973-yilda ko‘plab yangi maydonlar va bog‘-parklar, keng va zamonaviy ko‘cha va prospektlar foydalanishga topshirilgan. Shahar elektr quvvati, vodoprovod, kanalizatsiya, gaz, telefon va boshqa zarur injenerlik qurilmalari, maishiv xizmat muassasalari davr talablari darajasiga ko‘tarilgan. Zilziladan katta talafot ko‘rgan Toshkentni qayta tiklashda, uni yirik zamonaviy shaharlardan biriga aylantirishda qardosh xalqlarining yordami katta bo‘lgan. Moskva, Leningrad, Kiyev va boshqa shaharlardan quruvchilar (250 mingdan ortiq kishi) va qurilish

materiallari yuborilgan. Buning natijasida yuzlab binolar va inshootlar bunyod etilgan.

1974-yiIda poytaxtda “O‘zbekiston” mehmonxonasi qurib bitkazilgan. Mehmonxona Amir Temur xiyoboni tevaragida jovlashgan. Bino konstruksiyasi metall karkasli bo‘lib, qavatlar soni 17 ta, xonalar soni 495 ta, o‘rinlar soni 930 tani tashkil etgan. Binoda ikki qavatli 450 o‘rinli ikki zaldan iborat restoran joylashgan. 100 o‘rinli banket zali, 250 o‘rinli katesi, 100 o‘rinli tungi bar va choyxonasi ham bor. Uning arxitekturasida zamonaviy va milliy uslublar uyg‘unlashgan.



O‘zbekiston mehmonxonasi.1974-yil



O‘zbekiston mehmonxonasi. (hozirgi ko‘rinishi)

Bo‘zsuv arig‘ining o‘ng sohilida 1978 - 1985-yillarda Toshkent teleminorasi bunyod etilgan. Uning balanligi 375 m bo‘lib, o‘z davrida MDH davlatlari orasida Moskvadagi Ostankino teleminorasidan keyin 2-o‘rinda turgan. Teleminora metall konstruksivalardan ishlangan (metall harajatlari 6 ming tonna), 9 ballik zilzilaga bardosh beradi. Minora ustunidagi inshoot hajmi 15 ming m ni tashkil etadi. Minora ichida tezyurar lift, kommunikatsiya shaxtalari, xizmat xonalari, evakuatsiya zinalari, kuzatish va boshqa xonalari bor.

Toshkentda yangi prospektlar, maydonlar, rekonstruksiya qilingan bosh maydon atroflarida 4 qavatli turar-jovlar, ko‘p qavatli jamoat binolari bilan bir qatorda 9 qavatli turarjoy binolari, ko‘p qavatli maktab, bolalar bog‘chalari va yaslilari, mehmonxonalar (“O‘zbekiston”, “Turon”), sirk, bosh univermag va boshqalar qurilgan. Farg‘onadagi markaziy univermnag, Samarqandda “Inturist”

mehmonxonasi, Navoiyda “O‘zbekiston” kinoteatri, “Flora” restorani, Buxoroda pedagogika instituti, mehmonxona binosi va hokazolar barpo etilgan. Me’morchilik birmuncha taraqqiy qilgan, qurilishda estetik sifatga ahamiyat berilgan.

Shuningdek, mazkur davrda metrolar qurilishi rivojlangan. 1977-yil 7-noyabr arafasida foydalanishga topshirilgan Toshkent metropolitenining bekatlari arxitekturasi va badiiy bezalishida monumental dekorativ va amaliy san’atning milliy an’analari o‘z aksini topgan. Keyingi yillarda tasviriy san’atda turli badiiy uslublar kuchaydi. Mahobatli jamoat binolari va turarjoylar qurilishining keng ko‘lamda davom ettirilishi, binolarning estetikasiga nisbatan oshgan talab arxitektorlar bilan rassom, haykaltaroshlar hamkorligi kuchayishini taqozo etdi. Maydonlar haykallar bilan, yirik binolarning fasad va interyerlari rassomlik, haykaltaroshlik asarlari, naqshlar bilan bezatildi.

Mazkur davrning muhim me’moriy binolaridan biri bu Istiqlol san’at (avvalgi Xalqlar do‘stligi) saroyi sanaladi. Istiqlol san’at saroyi Respublika poytaxtida shaharni rivojlantiruvchi element sifatida namoyon bo‘lib, 1980-yil qurilgan holda 1981-yilda foydalanishga topshirilgan. Me’morlar: Ye.Bukina, S.Odilov, Ye. Rozanov, Ye.Suxanova, F. Tursunov, V.Shestopalov, Ye.Shumov va boshqalar sanaladi[86]. Binoda 4100 kishiga mo‘ljallangan tomosha zali bor. Saroyning an’anaviy shakli kompozitsiyaning umumiy klassik sxemasi bo‘yicha tashkil etilgan. Bino qiyofasi va bezaklarida milliy me’morlikka xos bo‘lgan muqarnasga o‘xshash shakllardan foydalanilgan. Binoni bezatishda mahalliy xom ashyolar, Nurota va G‘ozg‘on marmarlari ishlatilgan. Bino tarhi to‘rtburchak shaklda bo‘lib, tarzlariga ishlangan quyosh nurini to‘sadigan jimjimador shakllar binoga salobat bag‘ishlaydi. Bino tepasiga yuzasi marmar bilan qoplangan muqarnasni eslatuvchi yirik yig‘ma temirbeton qurilmalar o‘rnatilgan. Bino sahnasi maxsus qurilmalar (ko‘tarilib tushiriladigan supalar, prezidium, sahna va xor supalarini tomosha vaqtida siljitishga imkon beradigan transportyor, dekoratsiyalarni ko‘tarib

[86] https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalqlar_do%CA%BBstligi_saroyi

tushiradigan shtanketlar, keng formatli ekran) bilan jihozlangan. Binoning o‘ziga xos tarhi Varaxsha va Kampirtepa arxeologik yodgorliklariga monand loyihalangan.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yildan so‘ng o‘z taraqqivotining yangi davriga kirdi. Me’morchilik yodgorliklarini o‘rganish, ta’mirlash va restavratsiya qilish ishlari san'ati rivojlandi. Samarqand shahrining 2750 yillik, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining 2500 yillik, Shahrisabzning 2700 yillik, Toshkent shaharlarining 2200 yillik, Marg‘ilon shaharining 2000 yillik yubileylari nishonlandi. Buyuk sohibqiron va atoqli davlat arbobi Amir Temur, jahonga mashhur Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali-ibn Sino, al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Marg‘inoniy, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Imom al-Moturdiy, Jaloliddin Manguberdi singari qadamjolar yangilandi.

2007-yilda Islom madaniyatining poytaxti deb tan olingan Toshkent shahrida “Hastimom” masjidi barpo etildi. Zamonaviy materiallar va konstruksiyalar asosida, milliylik asnosida umumiylik bilan uyg‘unlashgan ko‘plab turarjoy, jamoat hamda sanoat binolari va inshootlari qurildi. Mamlakatimizda yuksak me’morchilik san’ati darajasida akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, maktablar, sport inshootlari yaratildi. Ko‘plab maydonlar, yam-yashil bog-rog‘lar, oromgohlar qurilgan. Yangi-yangi ishlab chiqarish korxonalari, zavodlar, fabrikalar ishga tushdi. Gidrotexnika, elektroenergetika singari inshootlar bunyod etildi, yangi yo‘nalishdagi avtomobil yo‘llari, temir yo‘llar, ko‘priklar va ko‘plab boshqa xildagi inshootlar qurilib, foydalanishga topshirilgan.

Savol va topshiriqlar

1. O‘zbekistonning XIX asr ikkinchi yarmi me’morchiligida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi?
2. 1960-1970-yillar qaysi shaharlarda uysozlik kombinatlari barpo etilgan?
3. 1966-yilgi Toshkent zilzilasidan so‘ng me’morchilik qay holatda rivojlandi?
4. Me’morchilikda shaharlar bosh rejasi qanday ko‘rinishda o‘zgartirildi?
5. XX asr me’morchiligida qanday yangi elementlar qo‘llanildi?

GLOSSARIY

№	O‘zbek	Rus	Ingliz
1.	Ayvon – yon tomonlarining barchasi yoki ba’zilari ochiq usti yopilgan inshoot	Айван – конструкция со всеми или некоторыми открытыми сторонами	Ayvan – a construction with all or some open sides
2.	Ark – feodal davlatining qal’a ichida mudofaa qilingan joyi	Арк – место обороны феодального государства в крепости	Ark – the place of defense of the feudal state in the fortress
3.	Burj – shahar yoki qal’a devorlaridagi va tashqi burchaklariga ishlangan minorasimon qurilma	Бурдж – башенное устройство на стенах и внешних углах города или крепости	Burj – a tower device on the walls and outer corners of a city or fortress
4.	Go‘rxona – dahma, maqbara	Гурхона – гробница, мавзолей	Gurkhona – tomb, mausoleum
5.	Dahma – zoroastrizm davrining qabr usti inshooti	Дахма – надгробное сооружение эпохи зороастризма	Dakhma – is a tombstone of the Zoroastrian era
6.	Ziyoratxona – marosimlar o‘tkaziladigan katta xona	Зиярат-хана – представляет собой большое помещение, в котором проводятся обряды, церемонии	Ziyarat-Khan – is a large room in which rites and ceremonies are held
7.	lslimiy – o‘simlik shoxlari ko‘rinishidagi naqsh turi	Ислими – разновидность узора, орнамента представляющая собой ветви растений	Islimi – is a kind of pattern, an ornament representing branches of plants
8.	Qal’a – feodal davridagi shahar qo‘rg‘oni	Крепость – городская цитадель феодальной эпохи	Fortress – the city citadel of the feudal era

9.	Karvonsarov – karvonlarning to‘xtash joyi, rabot, savdogarlar qo‘rg‘oni	Караван-сарай – постоялый двор для караванов на торговом пути, дом отдыха, место служащее кровом и стоянкой для путешественников и для торговых караванов	
10.	Karniz – devorning tugallanish joyi, tepa qismi	Карниз – венчающая часть здания, выступ, край кровли	Caravanserai – is an inn for caravans on the trade route, a rest house, a place that serves as a shelter and parking for travelers and for trade caravans
11.	Kitoba – binolar bezagidagi yozuvli namoyon, peshtoqning yuqori qismidagi epigrafik naqsh	Китабе – прямоугольная или фигурная панель с надписями арабской графикой, вид эпиграфического орнамента. Обычно включается в общую композицию декора архитектурного портала, двери, надгробия	Kitabe – is a rectangular or figured panel with inscriptions in Arabic graphics, a type of epigraphic ornament. It is usually included in the overall composition of the decor of an architectural portal, door, tombstone
12.	Kitobxona – kutubxona	Китабхана – библиотека	Kitabhana – library
13.	Koshin – islom me’morchiligi bezagida ishlatiladigan shishasimon sirlangan material	Майолика – стекловидный глазурованный материал, используемый в исламском архитектурном декоре	Majolica – is a vitreous glazed material used in Islamic architectural decoration
14.	Kufiy – chiziqlarning tekis, sirqirraligi bilan ajralib	Куфийское письмо – древний образец арабского	Kufi writing – is an ancient sample of

	turuvchi arab yozuvining qadimgi imlosi	письма, характеризующееся плоской, загадочностью линий	Arabic writing, characterized by flat, mysterious lines
15.	Kundal – ichki devorlarda bo‘rtiq yuzaga zarhal berib ishlangan naqsh turi	Кундал – живописно-пластичная роспись - это нанесение красок с позолотой и серебром на рельефную глиняную основу, осуществлялось в основном во внутреннем убранстве здания	Kundal – pictorial-plastic painting is the application of paints with gold and silver on a relief clay base, carried out mainly in the interior of the building
16.	Maqbara – daxma (o‘lgan insonning tanasi ko‘milgan joy) ustida tiklangan mahobatli inshoot, yodgorlik	Мавзолей – большое надгробное монументальное сооружение, памятник, где помещались останки умершего, и иногда поминальный зал	Mausoleum – is a large tombstone monumental structure, a monument where the remains of the deceased were placed, and sometimes a memorial hall
17.	Madrasa – diniy oliy o‘quv yurti	Медресе – религиозное высшее учебное заведение	Madrasah – religious higher educational institution
18.	Masjid – ibodatgoh, musulmonlar jamoa bo‘lib namoz o‘qiydigan joy	Мечеть – мусульманское молитвенное арзитектурное сооружение. Мечеть служит местом сбора мусульман для совершения коллективных молитв	The mosque is a Muslim prayer architectural structure. The mosque serves as a gathering place for Muslims to perform collective prayers
19.	Mehrob – masjid ichida uning qibla tomonidagi	Михраб – это арочное пространство внутри	The mihrab is an arched space inside

	devori ichiga ishlanagan ravoq shaklli joy, sajdagoh	мечети, встроенное в стену со стороны, в которую обращаются мусульмане во время молитвы	the mosque, built into the wall from the side that Muslims turn to during prayer
20.	Minora – musulmonlarni namozga chaqirish uchun joy, maxsus bino	Минарет – возвышающаяся над мечетью башня, с которой служители мечети призывают мусульман на молитву	The minaret is a tower towering over the mosque, from which the servants of the mosque call Muslims to prayer
21.	Peshtoq – masjid, madrasa yoki karvonsaroylarning kirish qismidagi usti baland ko‘tarilgan ravoqli serhasham qismi	Портал – архитектурно оформленный вход в мечети, медресе, караван-сараи. Портал имеет вид вертикально стоящего прямоугольника со стрельчатой аркой	The portal is an architecturally designed entrance to mosques, madrassas, caravanserais. The portal has the form of a vertically standing rectangle with a pointed arch
22.	Rabod – o‘rta asr shahar atrofi (shahriston)	Рабад – средневековый пригород (шахристан)	Rabad – medieval suburb (Shahristan)
23.	Sag‘ana – qabr ustidagi qurilma	Сагана (надгробие) – сооружение над могилой	Sagana (tombstone) – a structure over the grave
24.	Sitadel – qal’a ichida mustahkam mudofaa qilinadigan jov	Цитадель – крепость защищающая город, либо внутреннее укрепление крепости, имевшее самостоятельную оборону	Citadel – a fortress protecting a city, or an internal fortification of a fortress that had an independent defense
25.	Tim – savdo inshooti, usti yopiq bozor	Тим-торговый центр, крытый рынок	Tim - shopping center, indoor market

26.	Xonaqoh – darvishlar va ziyoratchilar qarorgohi	Ханака – резиденция дервишей и паломников	Khanaka – residence of dervishes and pilgrims
27.	Hujra – madrasada talabalar yashaydigan joy	Худжра – место проживания студентов в медресе	Khujra – the place of residence of students in a madrasah
28.	Chillaxona – qirq kunlik tarkidunyochilik uchun joy	Чиллахана – место для сорока дней секуляризма	Chillahana – is a place for forty days of secularism
29.	Sharafa – shift bilan devorni tutashtirib turuvchi mehrob	Шарафа – алтарь, соединяющий потолок и стену	Sharafa – an altar connecting the ceiling and the wall
30.	Shahriston – o‘rta asr islom shahrining asosiy, mustahkam joyi	Шахристан – главное укрепленное место средневекового исламского города	Shahristan – is the main fortified place of the medieval Islamic city

TEST

1. Me’morchilikda qal’alar qanday vazifani o‘tagan?

a) himoya

b) darvoza

c) ombor

d) turarjoy

2. Bronza davri shaharsozligida shaharchalar qanday shaklda qurilgan?

a) oval

b) to‘rtburchak

c) aylana

d) spiralsimon

3. Sopollitepa yodgorligi kim tomonidan topilgan?

a) L.Albaum

b) A.Asqarov

c) G.Pugachenkova

d) B.Turg‘unov

4. Sopollitepa uylari va mudofaa inshootlari qanday xom ashyodan qurilgan?

a) somon qo‘shilgan xomg’isht

b) xomg’isht

c) pishiq g‘isht

d) tosh

5. Avestoda yozilgan ideal shahar ?

a) Varra

b) Yasna

c) Visparad

d) Vendidad

6. Naus bu.....?

a) zardushtiylarning ostodonlarini saqlash uchun loy, g‘ishtdan qilingan inshoot

b) zardushtiylarning kulolchilik buyumlarini saqlash uchun g‘ishtdan qilingan inshoot

c) zardushtiylarning turarjoylari

d) zardushtiylarning loy, g‘ishtdan qilingan manzilgohlari

7. “Devori qiyomat” nomi bilan mashhur voha qaysi shaharda joylashgan?

a) Samarqand

b) Farg‘ona

c) Toshkent

d) Buxoro

8. Jonboz qal’a devorlaridagi g‘ishtlarida necha xil tamg‘a aniqlangan?

a) 9

b) 6

c) 11

d) 4

9. “Podsho zali”, “Askar zali”, “Bug‘u zali” xonalari qaysi qal’ada joylashgan?

a) Tuproqqal’a

b) Ichanqal’a

c) Quvaqal’a

d) Yonboshqal’a

10. M.Pachos fikricha Samarqand qurilishi ilk feodalizm davrida necha qismdan iborat bo‘lgan?

a) 3

b) 5

c) 2

d) 4

11. Ilk feodalizm davrida Syuan Szan ma’lumotiga ko‘ra Samarqandda qaysi din taraqqiy etgan?

a) zardushtiylik, buddizm dini

b) islom dini

c) xristian dini

d) yahudiylik dini

12. Panjikentning eng ravnaq topgan davri?

a) VIII asr

b) V asr

c) VII asr

d) VI asr

13. Somoniylar maqbarasi kimni davrida qurilgan?

a) Ismoil Somoniy

b) Amir Temur

c) Qoraxoniylar

d) Mirzo Ulug‘bek

14. Chashma Ayub maqbarasi kimning farmoyishi bilan qurilgan?

a) Amir Temur

b) Shayboniyxon

c) Ismoil Somoniy

d) Arslon Bug’raxon

15. Minorai Kalonning barpo etilishi qaysi sulola davriga to’g’ri keladi?

a) Qoraxoniylar

b) Xorazmshohlar

c) Saljuqiylar

d) Somoniylar

16. Minorai Kalon qaysi amir tomonidan bunyod etilgan?

a) Arslon Bug’raxon

b) Amir Haydar

b) Amir Husayn

d) Amir Nasrullo

17. Arslonxon va usta Baqo ismi bitilgan minora nomi?

a) Minorai Kalon

b) Kalta minora

c) Islomxo’ja minorasi

d) Vobkent minorasi

18. Qaysi madrasa eshiklariga “Bilim olish har bir musulmon va muslimaning burchidir” degan so‘zlar bitilgan?

a) Buxorodagi M. Ulug‘bek madrasasi

b) G‘ijduvondagi M. Ulug‘bek madrasasi

c) Samarqanddagi M. Ulug‘bek madrasasi

d) M. Ulug‘bek rasadxonasi

19. Jarko’rg’on minorasi kim tomonidan qurilgan?

a) Ali ibn Muhammad

b) Baqo usta

c) Sadr Burhoniddin Abdulaziz II

d) Sulton Sanjar

20. Xoja Abdulxoliq G’ijduvoniy tashabbusi va mablag’i evaziga qurilgan minora?

a) Vobkent minorasi

b) Minorai Kalon

c) Jarko’rg’on minorasi

d) Islomxo’ja minorasi

21. O’rta Osiyo o‘rta asr shaharlarining savdo va hunarmandchilik do‘konlari, mahallalari joylashgan qismi?

a) rabod

b) rasadxona

c) tim

d) kuhandiz

22. Arablar Samarqandda muqaddas joy deb e’lon qilgan maqbara nomi?

a) Qussam ibn Abbos maqbarasi

b) Chashma Ayub maqbarasi

c) Go’ri Amir maqbarasi

d) Buyan Qulixon maqbarasi

23. Sardoba bu ..... ?

a) suvni to‘plash va saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz

b) aylana shaklidagi inshoot

c) me’morlikda g‘ishtlarni qirra qilib terib hosil qilinadigan bezak usuli

d) maqbara tagidagi o’lik ko’mish uchun mo’ljallangan maxsus xona, yerto’la

24. Chingizxon lashkarlari tomonidan vayron etilgan masjid va madrasalarni saqlashga buyuk hissa qo’shgan shaxs?

a) Sayfiddin Boharziy

b) Jaloliddin Muhammad

c) Mazhariddin Mutahhar

d) Abu Mufaxir Yahyo

25. Amir Temur suyukli xotini Tuman og‘aga atab qurdirgan bog‘ nomi?

a) Bog’i Behisht

b) Bog‘i Davlatobod

c) Bog‘i Dilkusho

d) Bog‘i Shamol

26. Temuriylar davriga xos bo‘lgan naqsh turi?

a) kundal

b) guldasta

c) sharafa

d) muqarnas

27. Tillakori madrasasini Ulug‘bek va Sherdor madrasalaridan ajratib turadigan farqli jihatlari nimadan iborat?

a) ikki qator peshayvoni mavjudligi, burchaklarida minoralar yo‘qligi

b) minoralarining balandligi

c) burjlarning mavjudligi

d) qurilish materialida pishgan g‘isht ishlatilishi

28. Ulug‘bek rasadxonasi nechanchi yillarda qurilgan?

a) 1428-1429-yillar

b) 1424-1425-yillar

c) 1426-1427-yillar

d) 1425-1426-yillar

29. Tillakori madrasasi hovlisi qanday maqsad uchun mo‘ljallangan?

a) diniy yig‘ilishlar uchun

b) dam olish uchun

c) rasmiy yig‘ilishlar uchun

d) bayramlar uchun

30. Abdullaxon onasi sharafiga qurdirgan madrasa nomi?

a) Modarixon madrasasi

b) Govkushon madrasasi

c) Mir Arab madrasasi

d) Chor Minor madrasasi

31. Tillakori madrasasida minoralar o‘rnini nima egallagan?

a) moviy gumbazchalar bilan yopilgan kichik bo‘yli burjlar

b) yirik hajmli guldastalar

c) kichik hajmli hovuzlar

d) yirik hajmli madrasalar

32. Abdulazizxon madrasasi nima sababdan bugungi kunga qadar asl holida yetib kelmagan?

a) tomdan tushgan hamda bino atrofida yig‘iladigan yog‘in-sochin suvlarining yo‘qotishni to‘g‘ri hal etilmaganligi sababli

b) o‘zaro nizo va urushlar sababli

c) noqulay iqlim sharoiti sababli

d) loydan barpo etilganligi sababli

33. Peshtoqida sher tasvirlangan madrasa?

a) Shersor

b) Tillakori

c) Abdulazizxon

d) Modarixon

34. Tillakori madrasasining bezaklari Sherdor madrasasi bezaklaridan nimasi farq qiladi?

a) sirlangan g‘ishtlardan solingan naqshlar biroz mayda ishlangan

b) sirlangan g‘ishtlardan solingan naqshlar biroz yirik ishlangan

c) sirlanmagan g‘ishtlarga solingan naqshlari sababli

d) islimiy, girihsimon naqshlar qo‘llanilganligi sababli

35. Qaysi madrasada darsxona va masjid bo‘lmagan?

a) Sherdor

b) Modarixon

c) Mir Arab

d) Nodir Devonbegi

36. Peshtoqida quyoshga qarab intilayotgan afsonaviy qush – Semurg‘ tasvirlangan madrasa?

a) Nodir Devonbegi

b) Mir Arab

c) Abdulazizxon

d) Chor Minor

37. Buxoro Arkini hozirgi qiyofasi asosan qaysi sulolasi davrida shakllangan?

a) Shayboniylar

b) Qoraxoniylar

c) Ashtarxoniylar

d) Somoniylar

38. Juma masjidining boshqa masjidlardan ajralib turadigan jihati nimadan iborat?

a) pastdan yuqoriga qarab qadahsimon shaklda yo‘g‘onlashib boradigan ustunli yechimi sababli

b) ustunlari bezaksiz ishlanganligi sababli

c) ustunlarida inson tasvirlari ishlanganligi sababli

d) yuqoridan pastga qarab qadahsimon shaklda ingichkalashib boradigan ustunli yechimi sababli

39. Nechanchi yildan keyin Samarqand shahrida yevropacha binolar qurila boshlagan?

a) 1871-yil

b) 1873-yil

c) 1875-yil

d) 1877-yil

40. Xudoyorxon O‘rdasi qurilishida asosiy qurilish materiali sifatida nima ishlatilgan?

a) pishiq g‘isht

b) xomg’isht

c) loy

d) tosh

41. Guldasta bu.....?

a) tashqi devorlar tutashgan burchakda tirgak sifatida devorga qo‘shib tiklangan ustunsimon qurilma, kichik minora

b) gul solib ishlanadigan naqsh turi

c) masjid, madrasalarga kiraverishdagi xona

d) suvni to‘plash va saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz

42. Pavlik Morozov nomidagi bolalar kutubxonasiga aylantirilgan madrasa nomi?

a) Amir Olimxon madrasasi

b) Mir Arab madrasasi

c) Chor Minor madrasasi

d) Kamol Qozi madrasasi

43. Sitorai Mohi Xossa saroyi necha qismga bo‘linadi?

a) 3

b) 2

c) 4

d) 5

44. Toshkent shahrining bosh rejasi nechanchi yilda yaratilgan?

a) 1938-yil

b) 1936-yil

c) 1935-yil

d) 1930-yil

45. 1909-yilda barpo etilgan “Xiva” kinoteatri qurilishida dastlab qaysi xom-ashyodan foydalanilgan?

a) yog‘och

b) g‘isht

c) beton

d) tosh

46. Sitorai Mohi Xossa saroyining xonai safiy” taxt zaliga qaysi usta tomonidan bezak berilgan?

a) Usta Shrin Murodov

b) Eshmuhammad Xudoyberdiyev

c) Qalandar Xivakiy

d) Mir Ubaydulla

47. Muqimiy nomidagi teatr binosi nechanchi yilda qurilgan?

a) 1943-yil

b) 1940-yil

c) 1947-yil

d) 1949-yil

48. “Miroxor” unvoniga sazovor bo‘lgan usta?

a) Usta Shrin Murodov

b) T. Arslonqulov

c) A. Boltayev

d) Q. Jalilov

49. Islomxo‘ja madrasasi naqshlari kim tomonidan ishlangan?

a) Eshmuhammad Xudoyberdiyev

b) A.Boltayev

c) S.Xujayev

d) T.Arslonqulov

50. Toshkent teleminorasi nechanchi yillarda bunyod etilgan?

a) 1978-1985-yillar

b) 1970-1979-yillar

c) 1973-1980-yillar

d) 1975-1982-yillar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Ташкент: Фан, 1975. – 160 с.
2. Альбом Фотоиллюстраций. Медресе Улугбека в г. Самарканде. 1994. С–68-65/А-90-фонд, Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги Архиви.
3. Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977. – 232 с.
4. Аскаров Ш. Генезис Архитектуры Узбекистана. - Т.:, 2014.- 224 б.
5. Аҳмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 1995.- 142 б.
6. Ахмедов М. К. Пути развития средневековых архитектурных ансамблей Узбекистана. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 160 с.
7. Ахмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида.-Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2002. - 224 б.
8. Arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash: darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2009. – 240 b.
9. Булатов М.С. Мавзолей Саманидов - жемчужина архитектуры Средней Азии. - Ташкент : Изд-во лит. и искусства, 1976. – 127 с.
10. Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX-XV веков.- Москва:Наука, 1988. - 364 с.
11. Vaxitov M.M. Me’morchilik. Darslik. Qism I. : Me’morchilik tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – 368 b.
12. Воронина В.Л. Архитектура Средней Азии XVIII-XIX вв// Всеобщая история архктектуры, т. VIII. М: Издательство литературы по строительству, 1969, 367 с.
13. Грицина А.А. Археологические работу в Сырдарьинской области. Т. Фан. 1990. 147 с.
14. Зоҳидов П.Ш. Меъмор олами: [луғат]. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996. – 240 б.

15. Jo‘rayev M., Saidova R. Buxoro afsonalari. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. - 126 b.

16. Инженерные соображения о сохранности и прочности на памятнике архитектуры в г.Самарканде медресе Тилля-Кари (1646-1660 г.) Главный портал. Автор инженер Лебдев С.В. Ташкент, Август, 1957, арх. № С 591-Л. Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги Архиви.

17. Корректура проекта приспособления летнего двора медресе Шер-дор в г. Самарканде. Том 1. Пояснительная записка. Тошкент 1984. С–82-39/Ш-68-фонд, Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги Архиви.

18. Кадырова Т.Ф. Архитектура и дизайн. //Архитектура и строительство Узбекистана. - Ташкент, 2001, № 1. С.49-53.

19. Mankovskaya L. Y. Qo‘sh madrasa. - Toshkent: O‘zbekiston, 1977. - 33 b.

20. Мец Адам. Мусульманский Ренессанс. – Москва: ВиМ, 1966. – 544 с.

21. Медресе Тилля кори Предварителные работы. Самарканд.Тошкент. 1994. С–89-12/Х-16-фонд, Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги Архиви..

22. Медресе Улугбека в.г. Самарканде. Книга А. 1-1. Тошкент.1992. С–89-63/Ш-69-фонд, Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги Архиви.

23. Медресе Шердор Предварительные работы. Самарканд.1979. С–23-37/Б-18-фонд, Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги Архиви.

24. Медресе Шердор Предварительные работы. Тошкент.1978 й. С–45-57/Б-26-фонд, Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги Архиви.

25. Негматов Н.Н. Государство Саманидов (Мавераннахр и Хорасан в IX-X вв.) - Душанбе: Дониш, 1977. – 279 с.

26. Нильсен В.А. Монументальная архитектура Бухарского оазиса XI-XII вв. К вопросу о возникновении средневековой архитектуры в Средней Азии. - Ташкент: Издательство Академии наук, 1956. - 156 с.

27. Нозилов Д.А. Марказий Осиё меъморчилигида интерьер: монография – Тошкент: Фан, 2005. – 215 б.

28. Нозилов Д. Халқ меъморчилиги.-Т.:Фан, 1982. - 96 б.

29. Пугаченкова Г.А. Искусство Зодчих Узбекистана. Мавзолей Араб-Ата (из истории архитектуры Мавераннахра IX-X вв). – Тошкент: Zamon-Press-Info, 2021. – 146 с.

30. Пугаченкова Г. А. Пути развития архитектуры южного Туркменистана поры рабовладения и феодализма. – Москва: Изд-во Академии Наук, 1958. – 490 с.

31. Пўлатов Х.Ш. Ўзбекистон архитектура ёдгорликлари. – Т.: ТАҚИ, 2003. – 76 б.

32. Салимов О.М Архитектура ёдгорликларидан замонавий мақсадларда фойдаланиш усуллари. Ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент, 2012. – 172 б.

33. Сухарева О. А. К истории городов Бухарского ханства, Ташкент: Издательство Академии Наук Узбекской ССР. 1958, 130 с.

34. Raxmonova N.N. Amir Temur davlati Rui Gonsales de Klavixo nigohida // International Conference on Developments in Education. – Hosted from Bursa, Turkey. 2022. – B. 77-81.

35. Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. История развития и теория построений. - Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1961. - 608 с.

36. Salayev T.A. Amir temur va temuriylar davri me’morchilik obidalari // Science and innovation international scientific journal. – 2022. – №2. – B. 75-79.

37. Самарқанд шаҳрининг умумбашарий маданий тараққиёт тарихида тутган ўрни // Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий симпозиум материаллари. Тошкент - Самарқанд. “Фан”, 2007. – 470 б.

38. Султанова Д.Н. Ўзбекистон меъморчилигида тасвирий ва бадиий воситаларни уйғунлаштириш. Монография (узб.). СамГАСИ. - Т.:Санъат, 2010. - 232 б.

39. Технического состояния медресе Шер-дор. В г. Самарканде по состоянию на сентябрь 1979. Предварительные работы. С–27-48/А-98-фонд, Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги Архиви.

40. Turgunova F.N. Sirdaryo viloyati eski Xovos yodgorligida o’lkashunoslik muzeyi. // Muzeylarning yangi konsepsiyasi: muzeylar faoliyatida IT texnologiyalar integratsiyasi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent. 2024 y. 223-226 bet.

41. Ubaydullayev X.M. Turarjoy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari: darslik. – T.: Voris-nashriyot, 2009. – 384 b.

42. Xasanova Z.D. Markaziy Osiyo me’morchilik san’ati. O‘quv uslubiy majmua. – Samarqand.: 2021, - 72 b.

43. Xaqqulov S. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда меъморчилик ва шаҳарсозлик тарихи // Multidisciplinary Scientific Journal. – VOLUME 2. ISSUE 1. 2023. – Б. 227-231.

44. Qodirov B. Amir Temur madaniyat va ilm-fan homiysi. “Ijodiy parvoz” gazetasi, 4 (60)-son, aprel, 2018. B.1.

45. Қодирова Т. Ф. Ўзбекистоннинг истиқлол йиллари меъморлиги: ўқув қўлланма. – Тошкент: ЎАЖБНТ, 2004. – 80 б.

46. Кадырова Т.Ф. Пути архитектурного возрождения Узбекистана за XX - начало XX1 вв.. (традиции и современность). - Т.:, 2007. - 303 с.

47. Ўралов А.С. Самарқанд шаҳрининг мустақиллик йилларидаги архитектураси.//Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши. 2007 йил, 3-сон, Б.23-28.

48. Юсупова М.А., Рахимова З.И., Ибрагимов О.А. Суфийские традиции в искусстве Мавераннахра XV-XVII вв. (архитектура, миниатюра, музыка) / Коллективная монография. - Ташкент, 2010 г. 208 с.

49. Шишкин В. А. Афрасиаб - сокровищница древней культуры. - Т.: Наука, 1966. 35 с.

50. http://artyx.ru/books/item/f00/s00/z0000004/st010.shtml

51. https://hozir.org/amir-temur-va-temuriylar-davri-madaniyati.html

52. www.ziyonet.uz

53. www.edu.uz

54. www.google.com

55. www.smallbay.ru
56. www.wikipediya.ru
57. www.artyx.ru
58. www.biblioteka.ru

MUNDARIJA

Kirish. O’zbekiston me’morligi xususiyatlari	6-12
Ibtidoiy davr O’zbekiston me’morligi	13-22
Antik davri O‘zbekiston me’morligi	23-36
O‘rta asr O‘zbekiston me’morligi	37-48
O‘zbekistonning XI - XIII asrlar me’morchiligi	49-58
O‘zbekistonning XIV - XV asrlar me’morchiligi	59-76
O‘zbekistonning XVI asr me’morchiligi	77-87
O‘zbekistonning XVII asr me’morchiligi	88-99
O‘zbekistonning XVIII asr - XIX asrning birinchi yarmidagi me’morchilik	100-108
O‘zbekistonning XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi me’morlik	109-131
Glossariy	132-136
Test	137-147
Adabiyotlar ro‘yxati	148-151

СОДЕРЖАНИЕ

Введение. Особенности архитектуры Узбекистана	6-12
Архитектура Узбекистана первобытной эпохи	13-22
Архитектура Узбекистана эпохи Античности	23-36
Архитектура средневекового Узбекистана	37-48
Архитектура Узбекистана XI-XIII вв	49-58
Архитектура Узбекистана XIV-XV вв	59-76
Архитектура Узбекистана XVI века	77-87
Архитектура Узбекистана XVII века	88-99
Архитектура Узбекистана XVIII века - первой половины XIX века	100-108
Архитектура Узбекистана во второй половине 19 века - начале 20 Века	109-131
Глоссарий	132-136
Тесты	137-147
Список литературы	148-151

CONTENT

Introduction. Features of architecture of Uzbekistan	6-12
Architecture of Uzbekistan of the primitive era	13-22
Architecture of Uzbekistan of the Antiquity era	23-36
Architecture of medieval Uzbekistan	37-48
Architecture of Uzbekistan XI-XIII centuries	49-58
Architecture of Uzbekistan XIV-XV centuries	59-76
Architecture of Uzbekistan of the XVI century	77-87
Architecture of Uzbekistan of the XVII century	88-99
Architecture of Uzbekistan of the XVIII century - the first half of the XIX Century	100-108
Architecture of Uzbekistan in the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century	109-131
Glossary	132-136
Tests	137-147
List of references	148-151